

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

X.E. Sultanov

**TASVIRIY SAN‘AT TEXNOLOGIYASI VA
NUSXA KO‘CHIRISH**

(o‘quv qo‘llanma)



5110800 – “Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi” ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun

TOSHKENT-2022

Muallif: Sultanov Xaytboy Eralievich.

Mas'ul muharrir: “Tasviriy san'at va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası dotsenti,
p.f.n.: **S.F. Abdirasilov**

Taqrizchilar:

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at” kafedrası professori,
p.f.n, O‘zbekiston BA Ijodkorlar uyushmasi a‘zosi: **B.B. Baymetov.**

Toshkent Arxitektura qurilish instituti “Rasm, rangtasvir va haykaltaroshlik”
kafedrası professori p.f.n: **A. Sulaymonov.**

Почетный работник высшего профессионального образования РФ, д.п.н,
профессор, зав. кафедрой изобразительного искусства Института искусств,
ФГОПУ ВО “НГПУ”, член Творческого Союза Художников России и
Международной Федерации художников, член-корреспондент Российской
Академии Естественных Наук (РЕАН), академик Международной Академии
Педагогического Образования (МАНПО) **О.В. Шаляпин.**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2019 yil 4-
oktabrdagi “892” – sonli buyrug‘iga asosan 5110800-Tasviriy san’at va
muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida
nashr etishga ruxsat berilgan.

qaydnoma № 892/4-106

KIRISH

Jamiyatimiz rivojlanishining chuqur ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi bosqichida talabalarga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo'llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, ta'lim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohoti bevosita uning demokratik, bozor munosabatlariga o'tish jarayoni bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Shu sababli yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash, ta'lim sohasini isloh qilish, tizimni tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etish g'oyasi kun tartibidagi dolzarb va ustivor vazifalaridan biri sifatida davlatimiz rahbari tomonidan ta'kidlanib kelinmoqda. Shuning uchun ham Respublikamizda oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida aholining oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan ma'nan yetuk va jismonan barkamol yosh kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustivor yo'nalishlaridan biri deb belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, ta'lim mazmunini tubdan takomillashtirishni, o'quv mashg'ulotlarining sifatini zamonaviy talablar darajasida ko'rsatish, o'qitishning zamonaviy usullaridan samarali foydalana olishni talab etmoqda.

Hozirgi kunda pedagogika oliy o'quv yurtlari "tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" mutaxassislik fanlari tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish fani mashg'ulotlarini o'qitishning nazariy metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan zamonaviy yo'li, shakli, mazmuni, hamda metodlarini takomillashtirish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish fani mashg'ulotlarini o'qitishning hozirgi holatini aniqlash va uning keyingi mo'ljallangan istiqbolli yo'llarini ishlab chiqish.

O'zbekiston va jahonning buyuk rassomlari ijodi, xalq ustalari, qadimiy haykaltaroshlik san'ati materiallari bo'yicha yoshlarga bilim va estetik tarbiya berish tasviriy san'at asarlarini o'qiy olishga o'rgatish, tasviriy san'at texnologiyasi fanini ilmiy uslubiy jihatdan tahlil etish.

Ushbu qo'llanma oliy o'quv yurtlari, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish fani bo'yicha talabalarga nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar berishni maqsad qilib qo'yadi. Bu kitob talabalardagi moybo'yoq ishlashga bo'lgan qiziqishini oshirish, ishonch va dadillik bilan ishlashga rag'batlantirish uchun omil bo'ladi. Uni o'rganishni avvalo moybo'yoqning xususiyati, mo'yqalam, va boshqa kerakli asbob-anjomlarni

bilishdan boshlanadi. Dastgohli rangtasvir asaridan nusxa ko'chirish orqali rangtasvir texnikasi va texnologiyasini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Asrlar davomida to'planib kelingan tajribaga asoslanib tasviriy san'at ashyolari, vositalari va materiallarning xususiyatlarini o'rganish, nafaqat rangtasvir ishlash bosqichlarini tushunib yetish, balki, sifatli rangtasvir asarlari yaratishga ham yordam beradi.

Bir necha asrlik an'analar va usta rassomlar tajribasiga tayanib talabalarga akvarel, tempera va moybo'yoqda rangtasvir ishlash jarayonini nazariy jihatdan o'rgatish, amaliy jihatdan mustahkamlash - tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish fanining asosiy maqsadi hisoblanadi. Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish fani tasviriy san'at yo'nalishlarida o'qitiladigan asosiy mutaxassis fanlardan hisoblanadi va ular orasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

Qo'llanmadan foydalanish jarayonida talabalar: rangtasvir texnikasi usullari, moybo'yoqda ishlash metodlarini amalda qo'llash, rangtasvir asari asl nusxasi yoki illyustratsiyadan nusxa ko'chirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, uyg'onish davri har xil maktablariga tegishli rassomlarining ishlari bilan tanishish, qadimdan ishlatilib kelinayotgan bo'yoqlar hamda zamonaviy bo'yoq turlarining o'ziga xos xususiyatlarini bilish, moybo'yoqda rangtasvir ishlash bosqichlari, bo'yoqlarining bir-biriga ta'siri va mosligini o'rganish, uyg'onish davri rassomlari rangtasvir uchun foydalangan materiallar tayyorlashining turli usullari haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

Tasviriy san'at asarlarini yaratishda tasviriy san'at texnologiyasining o'rni, tasviriy san'at asarlarini yaratishning texnologik xususiyatlari, milliy va jahon tasviriy san'ati taraqqiyotining rivojlanishi haqida tasavvurga ega bo'lishadi.

Kelgusi pedagogik faoliyalarida zarur bo'ladigan tasviriy san'at texnologiyasi bo'yicha mashg'ulotlar olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish, tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish, qadimgi ustalarning rangtasvir asarlarini tahlil qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.¹

Rangtasvir texnikasini amalda o'rganish va tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish yo'li bilan talabalar rangtasvir materiallarini qo'llash texnologiyasini o'zlashtiradi.

Rangtasvir texnikasini o'rganishning asosi sifatida "uch qatlamli" rangtasvir ishlash metodini, tasviriy san'at asarini yaratishdagi gruntli asosni tayyorlash, kartonlar tayyorlash va rangtasvir asarini yaratishgacha bo'lgan bosqichlarini muallif tomonidan qo'llangan barcha texnik usullardan foydalangan holda o'rganadi.

¹ Олий таълимнинг давлат стандарти. 5110800 –*Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси* бакалаврият таълим йўналиши битирувчиларга қўйиладиган умумий талаблар мазмуни

Shaxsning tarbiyalanishi uchun san'at katta imkoniyatga ega ekanligi barchaga ma'lum. Shuningdek, tasviriy san'at va nusxa ko'chirish fani ham talabning ma'naviy va axloqiy tarbiyasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning estetik ehtiyojlarini qondirib madaniyatini yuksaltiradi. Bu fan faqat rassomning ish usulini emas, balki, asarni tahlil qilish orqali ong sohasida o'zgarishlar yuz berishi natijasida inson shaxsiyati tarbiyalanadi. Olam go'zalliklarini ko'rish, dunyoqarashining shakllanishi uchun ma'lum orientatsiya beradi. U shaxsning estetik rivojlanishiga yordam beradi.

Har qanday ijodiy asar o'ziga nisbatan bizdagi javob hissini uyg'otadi, ruhiyatimizga keng va ko'ptomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bu holatni B.M. Nemenskiy shunday ta'riflaydi. "kishi har safar asarga qayta-qayta tikilgan sari bu asar mazmuniga bog'lanib yana va yana uning ichiga sho'ng'ib ketadi. Shu bilan u yoki bu asardagi "muallif qalbi kechinmalari" bilan hamohang ravishda, tasvirlangan voqeliklar ta'sirida quvonch yoki hayrat, ajablanish yoki nafrat, zerikish, shavqat, jirkanish hissini tuyadi".

Tasviriy san'at asari bilan yaqindan tanishish, undan estetik ta'sirlanish uzoq vaqt yodda qoladi hamda kishini ma'naviy yetuk yoki estetik rivojlangan shaxsga aylantiradi. Inson ham san'at va ham hayotdagi go'zalliklarni parallel ko'rish, his qilish va tushunishni o'rgangandagina san'atning tarbiyaviy ahamiyati kuchli bo'ladi.

Ijodiy asarlarni tahlil qilish orqali hayotiy voqeliklar mazmuni bo'lgan hayajonlanish va zavqlanish kabi hissiyotlar talabalarni atrof olamga sinchiklab nazar solishga o'rgatadi hamda ularda voqeliklarga nisbatan hamdardlik, yomonlikdan nafratlanish tuyg'usi paydo bo'ladi. Insonda san'at va hayotda mazmun va shaklning mukammalligi yoki nomukammalligi, umumiyligi yoki qarama-qarshiligini his qilish va uni baholay olish qobiliyatlari rivojlanib badiiy didlari shakllandi.

Estetik tarbiyada san'atning muhimligiga shubha yo'q, chunki u estetik tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Tarbiya vositasi sifatida "Inson ijodiy tajribasi asosida ma'naviy boyluk to'plashga yo'naltirilgan"ligi san'atning o'ziga xos xususiyati sanaladi. O'rganilayotgan turli badiiy asarlar orqali talabalar dunyoning toboro rivojlanib borayotgan jamiyat va tabiatdagi o'zgarishlarga nisbatan o'zlarining estetik munosabatlarini bildirishadi. Olamni anglab yetish uchun bunday tasviriy san'at asarlari ulkan ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Badiiy tarbiyasiz talabning hayoti va umumiy faoliyatida estetik tarbiya to'liqsiz va natijasiz bo'lib qolaveradi chunki insondagi hayotni yaxlitlikda anglash va his qilish qobiliyatlarini tarbiyalash faqat san'atgagina tegishlidir.

I. RANGTASVIR ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI

"Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish" fani bo'yicha amaliy vazifalar san'at bilan uzluksiz bog'langan nazariy ilmiy bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi asosiga quriladi. Tasvirlashda rangtasvirning nazariy asoslarini tizimli va bosqichma-bosqich o'rganish tasviriy san'atni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Boshlovchi rassom faqat kasbiy mahoratning mustahkam nazariy asosiga tayanib, yetuk

tajribasini amalda bajarib o'rgangan holdagina amaliy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi va mustaqil ijod bilan shug'ullanishi mumkin.

O'quv jarayonida avvalo tus va rang nisbatlari qonuniyatlari va ularni aniqlash metodikasi, hamda rangshunoslik va optika qonunlari, perspektiva va plastik anatomiya, rangtasvir texnikasi va texnologiyasi, idrok qilish va tekislikda hajmni, materiallikni va tasvirlanayotgan buyumlarning fazoviylik sifatlarini ifodalash, tasvirga tus va rang jihatdan yaxlitlik va umumiylikni bera olish ko'nikmalarini o'zlashtirishlari lozim. Aynan shu malaka va ko'nikmalar rangtasvirni o'rganishning nazariy asoslari mazmunini tashkil etishi zarur.

Dasturda belgilangan kursni o'zlashtirish natijasida boshlovchi rassomlar mustaqil ishlashlari uchun zarur bo'ladigan tasvirlash asoslar bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishlari talab etiladi.

Ranglar haqida umumiy tushuncha

Tabiatda har doim ba'zi buyumlar yorug'lik nurini yutadi, ba'zilari esa qaytaradi. Quyosh nurini butunlay qaytargan buyumlar oq yoki kulrang tusda, spektrdagi nurning batamom so'nishida esa qora rangda qabul qilinadi. Bo'lg'usi rassomlar uchun yana shuni bilib qo'yish foydaliki, yorug' kunda mashq qilgan ko'z rangning 180 tusini, to'qligining 10 pog'onasini farqlay oladi. Tafakkuri kamol topgan inson ko'zi rang tuslardan taxminan 360 tasini farqlay oladi.

Ranglar tusiga ega bo'lmagan va bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farqlanadigan oq, kulrang va qora ranglar axromatik ranglar deb ataladi. Axromatik ranglar faqat yorqinlik bilan tavsiflanadi. Yorqinlik bo'yicha farqlar ba'zi ranglarning ochroq, ba'zilarining esa to'qroqligidir. Buyum shakli sirtidagi ranglarning har xil nozik turlanishi, tus o'zgarishlari natijasida ularning hajmini kuzatamiz, bizdan qanday darajadagi uzoqlikda joylashganligini his qilamiz, shu bilan masofa, perspektiva haqida tushunchaga ega bo'lamiz. Buyumlardagi tuslarni ko'rish va ajratish ranglarni aniqlashga qaraganda ancha qiyinroq. Tuslarni yaxshi ajratishga o'rgangan rassom xilma – xil ranglar, ularning och to'qlik darajada turlanishini ko'ra olish, his qilishda qiynalmaydi.

Axromatik ranglar xolis ranglar bo'lishiga qaramasdan rassomning amaliy ishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulardan foydalanish hisobiga rangtasvirda boshqa ranglarning jarangdorligini kuchaytirish yoki pasaytirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Axromatik ranglarga boshqa ranglarni aralashtirib rangtasvirda kerakli to'yinganlik va ochlik darajasiga erishishimiz mumkin. Undan tashqari qora rangni boshqa ranglar bilan aralashtirib yangi ranglar hosil qilish mumkin (m.n: sariq rang aralashtirib yashil rangni hosil qilinadi).

Oq, kulrang va qora ranglardan tashqari - qizil, to'q sariq, sariq, yashil, havo rang (yoki zangori, moviy), ko'k, binafsha (fiolet) ranglar va barcha ularning oraliq rang tuslari xromatik ranglar hisoblanadi. Bu ranglarning yorqinligi axromatik rang bo'lgan kulrangdan boshqachaligi bilan farqlanadi va axromatik ranglarga tegishli sifatdir. Uni oqishlik bilan adashtirmaslik kerak (narsalar, buyumlarning rang sifatleri).

Agar bir xromatik rangga kulrang qo'shilsa, u xira tortib, och-to'qligi o'zgaradi. Ranglar iliq yoki sovuq ranglar bo'lishi mumkin. Axromatik ranglarga nisbatan aksincha, xromatik ranglar bir-biridan bo'yoqning ranglilik darajasi bilan farq qiladi. Shuningdek natyurmort ishlash jarayonida yana qarama-qarshi ranglarga ham duch kelamiz. Har qanday axromatik rang to'q ranglar orasida ocharib ko'rinsa, och ranglar orasida esa to'qlashib ko'rinadi. Bu tus kontrastlari deyiladi. Yonidagi rang ta'sirida rang tusi o'zgarishi rang kontrasti deyiladi. Spektrdagi ba'zi ranglardagi tus juda to'q, ba'zilari esa juda och ko'rinishda bo'ladi.

Mavjud bo'yoqlar nisbatini ko'p yoki oz miqdorda qo'shib aralashtirish natijasida barcha kerakli tUSDagi rang ko'lamlarini hosil qilish mumkin. Bo'yoqlar rangi singari tabiatda uchraydigan har bir rang - rang-tusi, och-to'qligi va to'yinganlik kabi uchta asosiy xususiyatga ega. Ranglarni spektrdagi qizil, ko'k, sariq kabi bironta rangga nisbatan solishtirish natijasida bu ranglarning *rang-tus* sifati aniqlanadi.

Tusni aniqlashda yo'l qo'yilgan xato noto'g'ri rang berishga olib keladi, shuning uchun tusni to'g'ri idrok qilish rassomning asosiy vazifasi sanaladi. Bundan ham ko'rinib turibdiki rang va tus o'zaro bir-biriga bog'liq tushunchalardir. Rassom uchun asar yaratishda shakl bilan birga mazmunni rangda ifodalash ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda yaxshi asar yaratish uchun maqsadning o'zi yetarli emas (eng yomon san'at asarlari jiddiy kishilar tomonidan yaratilishini esdan chiqarmaslik lozim). San'atda yaxshi g'oya va jiddiy maqsad bu hali yutuq degani emas. Asar yaratish uchun ular muhim hisoblanmaydi.

G'oyani rangda ifodalash ham eng muhimlardan biridir. Inson bajargan har bir ijodiy ish bu qandaydir darajadagi bir asar. Badiiy asarning o'zi qanday muammo ifodalanganligidan qat'iy nazar "alohida asar" sifatida e'tiborga molik bo'lishi kerak.²

Oqishlik – bu qoraga nisbatan ushbu rangning oq rangga yaqinlashishi, ochlik darajasi. Masalan, sariq rang va uning rang tusi (ottenkasi) jigar rang, binafsha rang va ko'k ranglarga nisbatan sezilarli darajada oqishroqdir. Oqishlik ranglar to'yinganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikda joylashishi (bo'lishi) mumkin (masalan, yorug'lik va to'q-qizil pomidor). Ranglar oqishligi buyumning qaysi fonda qaralishiga ham bog'liq bo'ladi. Oqishligi (yoki yorug'ligi) bo'yicha ko'rinuvchi ranglarga baho bera olish va ularning farqlarini ko'rsatib bera olish rassomning turli xil grafik texnikalarda qalam bilan rasm chizishida ham, rangtasvirdagi amaliy faoliyatida ham o'ta muhimdir.

To'yinganlik – bu xromatik ranglarning o'zidagi yorug'ligi, ochroqligi bo'yicha kul rangdan farqlanib, uning spektr ranglarga yaqinlashuv darajasidir. To'yinganlik etaloni sifatida spektr ranglar qabul qilingan. Tabiatning rangi

² Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s-18

spektr rangiga qanchalik yaqinlashsa va uning farqi kul rangdan qanchalik kuchliroq bo'lsa, u shunchalik to'yingan hisoblanadi.


Tabiatda tashqi muhitning ta'siri natijasida ranglardagi och-to'qlik, rang-tus va to'yinganlik darajasi kabi uch xil belgilari bo'yicha ranglarning o'zgarishini kuzatamiz. Agar ushbu belgilardan atigi bittasini noto'g'ri ifodalash tasvirlanayotgan naturaning ranglar xususiyatining buzilishiga olib keladi.

U yoki bu rang aralashmasini tayyorlash uchun rassom aralashtirilayotgan har bir rang qanday xususiyatga ega ekanligini bilishi zarur.


Agar xromatik rangga har xil och-to'qlikdagi (oq, kulrang, qora) axromatik ranglar qo'shilganda undagi och-to'qlik darajasi bilan birgalikda uning to'yinganlik darajasi ham o'zgaradi. Boshqa rang yoki tuslar aralashtirilmagan bo'yoqlar "sof ranglar" deb tushiniladi. Shuning uchun spektrdagi faqat uchta: qizil, ko'k va sariq ranglarnigina sof ranglar deb atashimiz mumkin.

Uchta asosiy ranglarni optik aralashtirish natijasida oq rang, ulardan ikkisini aralashtirilganda esa boshqa xromatik ranglar (masalan, sariq va ko'k - yashil) hosil bo'ladi. Toza spektr ranglar tizimi ranglar doirasini ifodalaydi. (1-rasm).

Ranglar doirasi



Ranglarning asosiy xususiyatlari: a – rang-tus, b – to'yinganlik, v- och-to'qlik



1-rasm.

Ranglarni bir-biri bilan aralashtirish mexanik va optik ko‘rinishda bo‘ladi. Bu jarayonda aralashtirilayotgan bo‘yoqlar rang-tus, to‘yinganlik va och-to‘qlik kabi o‘z xususiyatlarini o‘zgartirishi mumkin.

Rangni anglash va his qilishning ba’zi bir o‘ziga xos xususiyatlari

Qalamtasvirni ranglar bilan qo‘shib shaklni boyitish rangtasvirning ajoyib xususiyati hisoblanib, rangtasvir ham qalamtasvir singari shaklni qurishning qat’iy qonun-qoidalariga asoslanadi. Rangtasvirni o‘rganish – bu shakllarni rangda qurish vositalari va usullarini o‘rganish demakdir. Tekislikda atrof muhit bilan bog‘liq ravishda buyum shakli rangini ko‘ra olish va to‘g‘ri ifodalash – ta’limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Rang rassom tushunchasida nimani anglatadi? Yoritilayotgan quyosh nuri ta’siriga bog‘liq ravishda buyum sirtida aks etib tomashabinda ma’lum bir his uyg‘otadigan buyumning bashqi ko‘rinishi. Tabiatda barcha buyumlar rangli ko‘rinishga ega bo‘ladi (osmon – moviy, o‘tlar – yashil, qor – oppoq va h.k.) buyumga tegishli tabiiy rang uning tarkibini ifodalaydi. Bunday ranglar buyumning asl rangi yoki lokal rang deb aytiladi.

Odatda amaliy ishlayotganda rassom buyumning asl rangi emas, balki ma’lum bir muhitda idrok qilayotgan rangdan foydalanadi. Rangtasvirchi tomonidan idrok qilinayotgan lokal rang va idrok qilinatgan rang bir xilda emas. Boshlovchi rassomlar rangtasvir ishlaganlarida ko‘pincha oddiy bo‘yoqchilik ishi bo‘lib qoladigan buyumning asl rangi bilan bo‘yashadi. Buyum shaklini uning asl rangida emas, balki ranglar nisbatini atrof-muhitdagi yorug‘lik ta’sirida o‘zgargan ranglarda mahorat bilan tasvirlash mumkin.

Rangtasvir ishlash jarayonida rangni idrok qilishimizda yorug‘likning ta’siri kuchli ekanligini unutmasligimiz kerak. Yorug‘lik, fazoviylik, atrofdagi ranglar va yorug‘lik manbaalari ranglarning o‘zgarishiga olib keladigan asosiy faktorlar hisoblanadi. Idrok qilinayotgan ranglarga ta’sir ko‘rsatib unda buyum rangidan farq qiluvchi har xil ranglar ko‘lamini hosil qiladi. muhitda idrok qilinadigan ranglar shartli ranglar deb ataladi. U buyum rangiga qaraganda ancha murakkab va harakatchan. Muhitning o‘zgarishi buyumlarda kuzatilayotgan ranglarning ham

o'zgarishiga olib keladi. Aynan shunday ranglar rangtasvirning asosiy tasvirlash vositasi hisoblanadi.

Naturadan qarab ishlaganda rassomdan tasvirning ranglariga ta'sir ko'rsatishini va uning sabablarini sezish talab qilinadi. Ranglarni nisbatlarda olish metodi – naturadagi obrazni muvaffaqiyatli yaratishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Bir buyumni ikkinchisi bilan solishtirib, yorug' va soyalardagi rang surtmalar farqini to'g'ri aniqlashtiribgina naturani jonli ifodalashga erishish mumkin.

Yorug'lik rangni idrok qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Yorug'likning har xil manbaalari spektr tarkibi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. sun'iy yorug'likda (elektr lampasi) qizil, zarg'aldoq, sariq kabi iliq ranglar kuchli bo'ladi. Unda ko'k ranglar juda oz miqdorda bo'ladi. Shuning uchun bunday yoritilganda ob'ektlar sariq yoki zarg'aldoq tushlarda bo'ladi. dnevnoy chiroqlarda esa aksincha sovuq ko'k yoki pushti ranglar kuchli bo'ladi. yorug'lik sun'iy bo'lganligi uchun shuning uchun sovuq tushlar kuchayib, iliq tushdagi ranglar yo'qoladi. Sun'iy yorug'lik kuzatilayotgan naturada yorug'-soya nisbatlarining butun ko'lamini bera olmaydi. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlarida natyurmort qo'yilmalari tabiiy yorug'likda bajarish talab etiladi.

Quyosh nuri oqish yorug'lik taratadi. Oq rang butun ranglar aks etadigan spektrdagi barcha ranglarning optik aralashuvi natijasi bo'lsa; yuzaga tushib turgan spektrning barcha ranglarining butunlay so'nishi natijasida qora rang hosil bo'ladi. lekin bu faqat nazariya, amalda esa umuman boshqacha ekanligini ko'ramiz. Palitrada spektrdagi barcha ranglarni aralashtirganimizda oq rang emas, balki kulrang hosil bo'ladi. xuddi shuningdek biz sof qora rangni ham uchratmaymiz, shunday ekan tabiatda ranglarning butunlay so'nishi yoki aks etishi mumkin emas degan xulos achiqadi. Oq va qora ranglar tarkibi amalda ko'plab rang-tushlardan tashkil topganligini kuzatish mumkin. Natyurmort rangtasviri ishlayotganda buni unutmaslik kerak, chunki oq va qora buyumlarga ishlov berar ekan ko'pincha talabalar oq va qora ranglarni sof holda qo'llab rangtasvirda ko'p xatolarga yo'l qo'yishadi. –

Ushbu ranglar to'g'ridan-to'g'ri tushgan yoki nur qaytishi natijasida qaytib buyumda aks etgan yorug'lik ta'sirida har xil tushlarda bo'ladi va bu holatda boshlovchi rassomning asosiy vazifasi ranglarni to'g'ri idrok etish va tasvirda ifodalashdan iborat bo'ladi.

Ranglarni aralashtirish texnologiyasi

Rangtasvirni o'rganishning boshlang'ich bosqichlaridagi rangtasvir nazariyasi va amaliyoti jarayonida eng asosiy muamolardan biri – bu bo'yoqlarni aralashtirib rang tayyorlash hisoblanadi. Ranglarni optik aralashtirishning uchta asosiy qonuni mavjud.


Birinchi qonuni: ranglar doirasidagi qarama-qarshi joylashgan (aylana markaziga nisbatan) har qanday ranglar aralashtirilganda axromatik ranglar hosil bo'ladi. Bunday ranglar *qo'shimcha ranglar* deb ataladi. O'zaro qo'shimcha ranglar qizilga – yashil, sariqqa – ko'k va h.k. qat'iy belgilangan

Ikkinchi qonuni: amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ranglar doirasidagi bir-biriga yaqin joylashgan ranglarni aralashtirilganda aralashtirilgan ranglar o'rtasida yangi rang hissini beradi. Masalan, qizilning sariq bilan aralashmasi zarg'aldoq, sariqni ko'k bilan aralashtirilganda esa yashil rang hosil bo'ladi. Uchta asosiy (qizil, sariq, ko'k) ranglarni har xil miqdordagi nisbatlarda aralashtirish yo'li bilan optik effektga ega bo'lgan har qanday rangni tayyorlash mumkin.

Uchinchi qonun bir xil ranglar bir xil aralashmalarini beradi. Ba'zan turlari bir xil, lekin to'yinganligi har xil bo'lgan ranglar hamda xromatik va axromatik ranglar aralashtirilganda optik ayiruv effektiga erishish mumkin.

Rangtasvirda kerakli rangni har xil usullar bilan olish mumkin. Masalan, bo'yoqni aralashtirmay toza holda boshqa ranglar oldiga qo'yib yoki ikki yoki uch xil bo'yoqni aralashtirib ham kerakli rangni hosil qilsa bo'ladi.

Bo'yoqlarni bir-biri bilan mexanik va optik yo'llar bilan ham aralashtirish mumkin. (1-2 jadvalga qarang). Bunday aralashtirish bo'yoqlardagi rang-tus, to'yinganlik va och-to'qlik xususiyatlarini ham o'zgartirib yuboradi.



Ranglarni mexanik aralashtirish natijalari

Ranglarni optik va mexanik aralashishda tabiatdagi bo'yoqlar xususiyatiga bog'liq ba'zi farqlari mavjud. Bo'yoqlarni optik va mexanik va mexanik aralashtirish natijasini ko'z oldimizga keltirishimiz uchun quyidagi aylanayotgan diskda sariq va ko'k ranglarning aralashmasi axromatik rang bo'lgan kulrang tusni beradi, aynan shu ranglar birgalikda mexanik aralashtirilganda yashil rang hosil bo'lishiga guvoh bo'lamiz.

Bo'yoqlarni aralashtirishda nafaqat rang xususiyatlari, balki aralashtirishning uch xil tarkibini hisobga olish kerak bo'ladi.

1) Mayda rang surtmalarining mozaika usulida qo'llanilishi (ranglarni optik aralashtirish);

2) Bo'yoqlarni oddiy palitrada aralashtirish usuli;

3) Bo'yoqlarni bir-birining ustidan bir necha qatlamda qo'yish— lessirovka usuli.

Kimyoviy tarkibi bo'yicha bir turdagi yoki har turdagi bo'yoqlar aralashmasi bo'lishi mumkin. Lessirovka, yarim lessirovka yoki korpusli rangtasvir bitta guruh ichidagi bo'lib – bu usullarda ranglar och-to'qlik va rang-tus bo'yicha bosqichma-bosqich bir tekisda beriladi. Lessirovka va korpusli usullarning aralashmasi har xil turdagi bo'yoqlar turini paydo qiladi; bunda bo'yoq notekis izlar va uzilishlar bilan yopiladi, ulardagi yorug'likka bardoshlik susayadi. Yarim lessirovka guruhiga kiruvchi ranglar lessirovkali va korpusli rangtasvir usullari bilan ham yaxshi kelishadi.

Akvarelda ishlovchi boshlovchi rassom uchun bo'yoq qurigandan keyin rang to'yinganligining ko'p yoki oz darajada yo'qolishi hamda ocharish xususiyatlarini hisobga olishi zarur bo'ladi.

O'tkir va to'yingan ranglar hosil qilishi uchun kuchli rangdorlik xususiyatiga ega bo'yoqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Iliq va sovuq ranglar

Ranglarning iliq va sovuq ranglarga ajratilishi rangtasvirda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning idrokimizda quyosh rangi, olov, issiqlik taftini beruvchi ranglar iliq ranglarga kiradi. Qor, muz, suvni eslatib sovuqlik hissini beruvchi ranglar esa sovuq ranglar deb ataladi.

Ranglar borasida iliq va sovuq ranglar bir-biriga qarama-qarshi ranglar hisoblanadi. Bu ranglar yonma-yon joylashganda o'zaro qarama-qarshilik hissini beradi. Sovuq ranglar iliq ranglar o'rtasida jarangdorlik kasb etadi. Sovuq ranglar o'rtasida joylashgan iliq ranglar ham xuddi shunday hissiyot beradi.

Iliq va sovuq ranglar o'rtasidagi bunday munosabatdan rassomlar rangtasvirning jozibadorlik imkoniyati sifatida foydalanishadi. Ranglar qarama-qarshiligiga tayangan holda u yoki bu rangga kerakli tusni berish mumkin. Agar sovuq rangni iliq rang bilan aralashtirilganda u o'zining rang-tusini o'zgatirib iliqroq tusga

kiradi. Shu yo'l bilan alohida ranglarni har xil nisbatlarda olib uni kerakli iliq yoki sovuq tushlarda ifodalashimiz mumkin.

Iliq va sovuq ranglar yana bir muhim xususiyatga ega bo'ladi. Iliq ranglar sovuq ranglar qurshovida oldinga chiqib kelayotganga o'xshaydi. Masalan, ko'k buyumlar biln yonma-yon qo'yilgan qizil buyum oldinga bo'rtib chiqadi. sovuq ranglar aksincha uzoqlashayotgandek tuyuladi. O'quv vazifalarini bajarishda ranglarning bu xususiyatlarini hisobga olishga to'g'ri keladi.

Yorug'-soya, havo perspektivasi, kun holatini ko'rsatish kabi fazoviy nisbatlarni ifodalashda iliq va sovuq ranglarning bunday qarama-qarshi xususiyatlaridan foydalaniladi. Intererdagi yoyilgan nur ta'sirida o'quv qo'yilmasining yorug' qismi sovuq, qarama-qarshilik hosil bo'lishi va atrofdagi reflekslar ta'sirida soya qismi esa iliq tushlarda bo'ladi.

Iliq va sovuq tushlarning o'zaro uyg'unligi rangtasvird uchun muhim koloristik jarangdorlikni ifodalashga xizmat qiladi.


Kontrastlar

Ish jarayonida rassomga bir rang yoniga qo'yilgan boshqa rang o'zining yorqinligini yo'qotishi yoki yanada yorqinlashishi mumkin. Bu xususiyat kontrastlik deb ataladi.

Kontrastlar ikki xil: axromatik (och-to'qlik) va xromatik (rangdorlik) turlariga bo'linadi. Har bir ko'rsatilgan turlardan o'z navbatida bir vaqtning o'zidagi kontrastlik, o'zaro to'ldiruvchi ranglar kontrasti, to'yinganlik, bosqichli va chegarali yoki chetki kontrastlarga bo'linadi. (2, 3, 4 suratlar).




Axromatik ranglar ko'lami




Axromatik (qora) rangning xromatik rang bilan kontrasti
2 rasm

Axromatik kontrastlar mazmuni shundan iboratki to‘q fondagi och dog‘ yanada ochroq ko‘rinadi, och fondagi to‘q dog‘lar asliga nisbatan yanada to‘qroq ko‘rinadi. Undan tashqari to‘q fondagi och dog‘ asliga nisbatan kattaroq, aksincha to‘q dog‘ och fonda o‘z o‘lchamidan kichikroq bo‘lib tuyuladi. Och dog‘ qancha kichik bo‘lsa uning yorug‘ligi shunchalik kuchliroq bo‘ladi. Ish jarayonida ortiqcha dog‘lardan xoli bo‘lishi uchun bu holatni hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Bir vaqtdagi rang kontrasti ikki xromatik yoki axromatik va xromatik ranglarning bir-biriga ta’siri natijasida ham paydo bo‘ladi. Qizil fondagi kulrang dog‘ yashilsimon ko‘rinishga ega bo‘lsa, sariq fonda ko‘kish, yashil fonda pushti rangda ko‘rinadi. Faqatgina och-to‘qligi o‘zgarmay balki rang-tusi va to‘yinganligi ham o‘zgaradigan, axromatik ranglarda esa rangdor tuslar paydo bo‘ladigan kontrast turlari xromatik kontrastlik deb ataladi.



Och- to‘qligi o‘zgaradigan axromatik kontrastlar



Monoxromatik kontrastlik

3 rasm

O‘zaro to‘ldiruvchi ranglar kontrasti paydo bo‘lishi o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Ularni solishtirilganda yangi ranglar paydo bo‘lmasdan faqatgina ularning to‘yinganligi va yorqinligi yoki och-to‘qligigina o‘zgaradi.


Axromatik ranglarni xromatik ranglar bilan qarama-qarshi qo‘yilganda to‘yinganlik kontrastini sezish mumkin. Bu faol ranglar jarangdorligiga erishish imkoniyatini yaratadi.

Bosqichli kontrast qandaydir yorqin dog‘ yoki rangni uzoq vaqt idrok qilish orqali paydo bo‘ladi. Masalan, yorqin qizil dog‘ga uzoq tikilib turib, keyin ko‘z qarashini oq yuzaga qaratilganda, bir oz vaqt o‘tib unda o‘sha shakldagi och yashil dog‘ paydo bo‘lganini kuzatish mumkin. Bosqichli kontrastda avval ko‘rgan rangimizga qo‘shimcha kam to‘yingan rang hosil bo‘ladi.


Agar uzoq tikilib qarash buyumning tomashabin idrok qilishida koʻzning koʻnikib qolishiga ham olib kelishi mumkin. Ranglarga koʻnikishda yorugʻlik xuddi xiralashgandek tuyuladi. Eng koʻp vaqt koʻnikib qolish qizil va siyohranglarda, eng ozi sariq va yashil ranglarda yuz beradi. Chegara kontrasti bir joyda joylashagan qarama-qarshi ranglarda yuzaga keladi. Yorugʻ qismning toʻq joyga yaqin joylari undan uzoqlashgan qismiga nisbatan ochroq koʻrinib unga hajmdorlik effektini beradi

Xromatik kontrastda yonma-yon turgan ranglarning chetlari oʻzgaradi: qizil rangning yonida turgan sariq rang surtmasining rangi ozroq yashilsimon tusda boʻladi, lekin u qizildan uzoqlashgan sayin undagi chegara kontrasti effekti pasayadi.

Ranglar hususiyatini bilish va undan toʻgʻri foydalanish rangtasvirni oʻrganishning muhim jihati hisoblanadi.



Rang-tus boʻyicha kontrastlik



Qo'shimcha ranglar kontrasti

4-rasm.

Shaklni rangda ifodalash

Buyum rangi uning butun sirtida har doim bir xilda o'zgarmas bo'lmaydi. Yorug' tushib turgan qism, soya, yarim soya va reflekslar asosiy rangning har xil o'zgargan ko'rinishlarida bo'ladi. Yorug'lik nuri ta'siri ostida yorug'lik tushib turgan va soya qismlarida buyum rangi bir necha rang-tus ko'lamlariga ajraladi.

Buyumning yorug'lik tushib turgan qismiga nisbatan ko'p yorug'lik nuri tushib turgani uchun yorqin ko'rinishda bo'lib, uning rangi ushbu yoritish manbai xususiyatiga muvofiq ko'rinishida bo'ladi. Auditoriyaga yoyilib tushayotgan kunduzgi yorug'likda buyumning yoritilgan qismi sovuq tus kasb etadi. Sun'iy va quyosh nuridan taralayotgan yorug'lik buyum sirtida iliq tusda aks etadi. Sovuq tusda yoritilgan ob'ektlarning soya qismi iliq tusda ko'rinadi. Undan tashqari unga devor, potolok, yaqin turgan buyumlar dan qaytib aks etayotgan ranglar ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Xususiy soya va tushib turgan soyalar rang-tus xususiyatini uning atrofidagi ranglar belgilaydi.

Yarimsoya – yorug'lik va soya o'rtasida joylashadi va ma'lum darajada buyumning asl (lokal) rangini saqlab qoladi. O'tkir kontrast yoritilganda yarimsoyadagi yorug'-soya kontrasti kuchayib uni idrok qilish murakkablashadi. Bu vaqtda u ma'lum darajada to'yinganligini yo'qotib ozgina lokal rang saqlangan holda sezilarli darajada kulrangga yaqinlashadi.

Har qanday buyumning tushib turgan va xususiy soyalar atrofdan tushib turgan reflekslar bilan to'yinadi. Tasvirda rang-tuslari to'g'ri va aniq ifodalangan reflekslar shaklga hajmdorlik berib natyurmordagi buyumlar o'rtasida o'zaro uyg'unlikni ta'minlaydi. Rangtasvir to'g'ri bajarilishi natijasida kompozitsiyada o'ziga xos shaffoflik, rangdorlik xususiyatlari kuchayadi.

Buyumlarni tasvirlar ekanmiz biz avvalo buyumlar joylashgan fazoviy muhit va ularning shaklini ham ifodalashga urinamiz.

Shakl – bu fazoviylikning ma'lum qismi. Fazoviylikni to'g'ri ifodalash uchun rassomda fazoviy tafakkur va tasavvuri yaxshi rivojlangan bo'lishi zarur.

Tasviriy san'atda shaklni ifodalash muammosi nimadan iborat?

Birinchidan u yoki bu shakl qurilishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'ra olish va idrok qilishni o'rganish.

Ikkinchidan ikki o'lchamli tekislikda bu uch o'lchamli shaklni tasvirlashni o'rganish.

Birinchi holat bo'yicha talabdan naturani maqsadli kuzatish, undan asosiysini ajratib olish, buyumning xarakterli xususiyatlari va shaklini qurish qonunlarini yaxshi tushunish va metodik ketma-ketlikda bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasi qo'yiladi.

Ikkinchi holat bo'yicha esa tasviriy san'at asoslarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ikki o'lchamli tekislikda uch o'lchamli shaklni qurish ko'nikmalarini egallash vazifasi qo'yiladi.

II. YEVROPADA RANGTASVIR TEXNIKASINING RIVOJLANISHI

Qadimgi davrda rangtasvir

Qadimda rangtasvir yaratish uchun tasvirlash vositasi sifatida asosan tabiiy materiallardan foydalanilgan. O'simlik shirasi, rangli tuproq kabi tabiiy materiallar bo'yoq sifatida ishlatilgan. Bo'yoqlarni bog'lovchi material sifatida o'simlik va hayvonlardan olinadigan har xil yelimlar, ohak va mumlar ishlatilgan. Qadimgi Misr, qadimgi Gretsiya va Rimda mumlar ishlatilgan rangtasvir asarlari topilgan. Hayvonlardan olingan yelimlar aralashtirilgan va asal qo'shilgan bo'yoqlar bilan yog'och va devor yuzalariga chizishgan. Antik davr rassomlaridan Zevkis, Parraziylar o'z asarlarini shunday bajarishgan. Mum bilan rangtasvir ishlash "enkaustika" deb nomlanadi. Enkaustika usulida rangtasvir ishlash sovuqda qattiq holatda bo'lib, isitilgan holatdagina yumshatib mo'yqalam bilan ishlatsa bo'lardi. Shu bilan birga ishlanayotgan yuza ham qizdirilgan holda bo'lishi kerak edi. Bu usulda ishlaganda rangtasvir yuqqa taxtalarga ishlanib, taxtani orqa tomonidan qizdirish, bu bilan bo'yoqlarni suyuq holatda ushlab, uni aralashtirish mumkin edi. Bunday bo'yoqlar bilan ibodatxona ko'rinishlari bo'yalib, kemalar bezatilar edi. Bu davrda enkaustika rangtasviri bilan bir qatorda freskali rangtasvir usuli ham ma'lum edi. Uning tarkibiga ohak, hayvonlardan olingan yelim, tuxum oqi, pemza (bo'r, jilolash, silliqdash ishlarida qo'llaniladigan yengil organik jism) ko'piktosh va h.k... lar kirar edi. Mana shu davrda oynaga mozaika ishlash va dastgohli rangtasvir ham rivojlanib bordi.

O'rta asrlar va Renessans davrida rangtasvir

O'rta asrlarda rangtasvir texnikasi yanada rivojlanib, murakkablashib bordi. Bu davrda keng tarqalgan yelimli rangtasvirdan tashqari asosida tuxum (tuxum sarig'i, oqi yoki butun tuxum) bo'lgan tempera bo'yog'i ham katta ahamiyatga ega edi. Tuxumli tempera asta-sekinlik bilan yelimli bo'yoqlarni siqib chiqardi va XIII

asrda butun Yevropa bo‘ylab keng tarqaldi. Tuxumli temperaning gullab yashnashi san‘at tarixida rangtasvirning oldinga katta qadami bo‘ldi desa bo‘ladi. Temperada o‘rta asrlar va uyg‘onish davrining ko‘pchilik rassomlari ishlagan. Yelimli bo‘yoqlarga nisbatan ko‘pgina afzallik tomonlariga qaramay tempera texnik mukammal bo‘lishiga hali ancha uzoq edi. U juda tez qurib qolib, shaklga ishlov berishda qiyinchilik tug‘ilardi. O‘rta asrlarda rangtasvirning mutlaqo yangi turi quriyidigan yog‘ bilan tayyorlangan moybo‘yoq paydo bo‘ldi. Lekin unga avval uncha takomillashmagan, faqat temperaga yordamchi material sifatida qaralgan. Vazari tomonidan yaratilgan afsonaga qaraganda moybo‘yoqni flandriyalik rassom Yan Van – Eyk 1410 yilda yaratgan. Haqiqatdan ham uning asarlari an‘anaviy tempera moybo‘yoq unsurlari bilan aralastirib ishlatilganligini kuzatish mumkin. Rassom shuningdek bog‘lovchi sifatida ninabargli daraxtlar tanasidan olinadigan quyuq shira (terpentin yog‘i) oq lakdan foydalangan. Uning ta‘sirida bo‘yoq nisbatan tezroq quriydi va rang yorqin ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu yangilik boshqa Yevropa rassomlari tomonidan ham tezda o‘zlashtirib olindi.

Ilk niderland rangtasviri

XIV asrdan boshlab Niderlandiya hududida ijtimoiy madaniy xarakterdagi o‘zgarishlar ro‘y berdi. Endi tasviriy san‘at asarlariga asosiy buyurtmachi sifatida cherkovlar emas, balki aristokrat, badavlat oqsuyak odamlar, saroy ayonlari chiqqa boshladi. Ilk niderland rangtasviri (ba‘zan eski niderland rangtasviri) – taxminan XV asrning ikkinchi choragidan boshlab Yevropa san‘at tarixida Shimoliy uyg‘onish davri bosqichlaridan biri niderland va qisman flamand rangtasvirini o‘z ichiga oladi. Bu davrda kechki gotika san‘ati erta Renessans san‘ati bilan almashayotgan davr edi. Kechki gotika Fransiyada badiiy shaklning universal tilini yaratib o‘z ulushini qo‘shgan bo‘lsa, Niderlandiya hududida ijod qilgan rassomlar ayniqsa portret janrida o‘z aksini topgan rangtasvir ishlashning o‘ziga xos realistik usulida mustaqil maktab shakllanishiga sabab bo‘ldilar.

San‘at markazi sifatida niderlandlar fransuz saroylarida kech gotika san‘atini siqib chiqara boshladilar. Niderlandiyani Fransiya bilan umumiy Burgund sulolasi bog‘lab turgani uchun flamand, vallon va golland rassomlari Fransiyadagi Anju, Orlean, Berri saroylari va fransuz qirollari saroyidan ish topishlari oson edi. Gotika san‘ati namoyondalaridan Geldernlik aka- uka Limburglar asli fransuz rassomlari edilar. Ba‘zi hollarda o‘z vatanlari Niderlandiyada Melxiora Bruderlama kabi rassomlarga past nazar bilan qarar edilar.

1415 yil Azenkure yaqinidagi jang va Berriysk gersogi Jan Valua vafotidan keyin Burgund gersogi marhamatli Filipp Flandriyaga qaytdi. U bilan birga Flandriyaga ko‘chib o‘tgan burgund saroyi shu yerlik rassomlar uchun vatanlarida ijod qilishlari uchun yaxshi sharoit yaratdilar. Fransiyaga ish izlab borish kerak bo‘lmay qoldi. Mahalliy rassomlik maktablari shakllana boshladi. Avval Jana de Bondal, Jana Maluel yoki aka uka Limburg kabi kamchilik iste‘dodli rassomlar har xil yig‘ma usullarda ijod qilishgan bo‘lsa, endi franko-flamand rassomlari o‘zlarini niderland rassomlari deb hisoblay boshladilar. Bunga Ervin Panofski hatto flamand dahosining qaytishi deb izoh beradi. Niderland rassomlarining yangi avlodlari gotik shakllarining universal tilidan voz kehdilar va shuning uchun bu maktab tipik niderland maktabi deb aytiladi.

Savdo markazlarining ko'pligi va yetakchi rassom ustaxonalari endi juda yaqinligi bu rivojlanishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bryugge, Antverpen, Genta, Bryussel, Ipra, Mexelen va Leven kabi flamand va Brabant shaharlaridagi yerlik boylar, boyluk jihatdan ham davlat jihatdan knyazlarga raqobatchi bo'la olar edilar. Bu guruh buyurtmachilari rangtasvir asarlari mavzulari tanlashga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Lekin diniy mavzudagi mehrobiy asarlarni cherkov ko'pincha rassomlarga to'g'ridan-to'g'ri buyurtma bermay ularni savdogarlardan olar edilar.

Uylarni bezash uchun mo'ljallab buyurtma qilinadigan rangtasvir asarlari tufayli tasviriy san'atda alohida bo'lgan portret janri paydo bo'ldi.

XV asrda burgund qirolligi saroyida gotika va Renessans usullari uyg'unligini o'zida mujassam etgan xususiy badiiy maktablar paydo bo'ldi. Ko'pchilik tarixchilarning ta'kidlashicha bu maktabning ildizi fransuz-flamand kitob minatyurasidan boshlanadi. Bunga Jan Pyusel yoki aka-uka Limburglarni misol qilib keltirsa bo'ladi.


Bu rangtasvir asari o'zining gotik o'tmishdoshlarining fotografik realizmidan keskin farq qiladi. Ilk va yetilgan Uyg'onish davri mahalliy davr bilan qo'shib rangtasvirda ishlashning mustaqil, umuman yangi badiiy usulini shakllantirdi. Niderlandlarda tabiatga e'tibor manzara rangtasvirida o'z aksini topadi. O'rta asrlar kartinalaridagi oltin tusli fon o'z o'rnini real tabiat ko'rinishlariga bo'shatib berdi, manzara - tasviriy san'atning mustaqil janri sifatida shakllanib bordi.

Tabiat ko'rinishlarini kuzatish va aniq o'xshatib tasvirlash, inson qomatini tasvirlashda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Gent mehrobidagi Adam va Yevaning yalang'och tasvirlari antik davrdagiga nisbatan o'zining g'aroyib tabiiyligi bilan ajralib turadi. Naturadan ishlashda o'zining yalang'och rasmlaridagi anatomik detallarining qiziqarliligiga e'tibor beradigan italyan rassomlaridan farqli o'laroq Yan van Eyk inson qomati harakati va tashqi ko'rinishini sinchiklab o'rgandi va uni o'z asarlarida mayda bo'laklarigacha aniq tasvirlaydi.

Ilk Niderland rangtasvirining yangiligi bir tomonidan buyumlarning mayda bo'laklarigacha tasvirlanishi bo'lsa, boshqa tomondan yorug'-soya effektlarining aniq belgilanishi va mohirona qo'llanilishi edi. Yangi usul moybo'yoqda tasvirlashning yangi rangtasvir texnikasi va vositasi asosida yaratildi.

Van Eyk va Rober Kampengacha niderland va flamand rangtasvirida "ko'rkam" va "yumshoq usul" deb ta'riflanadigan internatsional gotikaga ergashilardi. Hattoki eng yirik rangtasvir ustalari ham uzoq vaqtgacha bu usulning ta'siridan voz kecha olishmadi, ularning asarlaridagi gavda ko'rinishlari va kiyimlardagi burmalarga boyligi bilan qadimiy rangtasvir an'alarining ta'siri sezilib turadi. Hozirgi vaqtda XV asrgacha bo'lgan ilk niderland rangtasviriga kam ahamiyat beriladi.

Manbalarda aytilishicha 1432 yil Yan van Eykning "Gent mehrobi" asari tugallanishidan keyin ilk niderland rangtasviri chiqib keladi. O'sha davrlardayoq zamondoshlari Yan van Eyk va boshqa flamand rassomlarining asarlarini "yangi san'at" deb ta'riflashgan. Renessans vatani bo'lgan Italiyada ham Yan van Eyk katta hurmatga sazovor edi. Rassom vafot etganidan bir necha yillar keyin italyan gumanisti Bartolomeo Fatsio van Eykga "asr rangtasvirchilari qirol" deb ta'rif beradi.



Belvil'skiy breviariy. Yuqorida: Saul va David. Pastda: Kainning Avelyani o'ldirishi; Yevxaristiya; Marhamatli. Milliy kutubxon. Parij.



Posel ustaxonasi. Iltifot. Duolar yozilgan cherkov kitobidagi Janna Savoyskoy minatyura rasmi. Jakmar muzeyi. Andre. Parij.

Oqsuyaklar portretlarining paydo bo'lishi rangtasvirdagi birinchi bor individual yondashilgan mavzu bo'lib qoldi. Janrli kartinalar va natyurmortlar XVII asrdagi niderland borokkosi davridagina o'zining san'atdagi tub burilishini boshdan kechirdi.

Ilk niderland rangtasvirining burjuaga xos xususiyati "yangi davr" boshlanganligidan darak beradi. Dvoryanlar va ruhoniylardan tashqari tasviriy san'at asarlariga buyurtmachi sifatida boy zadogonlar va savdogorlar ham chiqib kela boshlashdi. Rangtasvir asarlarida insonlarni ideallashtirib benuqson tasvirlash hollari yo'qoldi. Kartinalarda barcha nuqsonlari bilan tasvirlanadigan haqiqiy insonlar tasvirlari paydo bo'la boshladi. Ajinlar, osilgan qovoqlar barchasi aniq tasvirlana boshlandi. Obro'li va mo'tabar shaxslar portretlari faqat cherkovlarda emas oddiy shahar xonodonlariga ham kirib kela boshladi.



Rogir vann der Veyden. Mixlash. 1440-1445 y.y.San'at tarixi muzeyi. Vena.



Gans Memling. Bibi Mariya mehrobi. 1468 y.y. Milliy galareY. London.

Yan van Eyk bilan birga Flemal tasviriy san'at ustasi, hozirgi vaqtda Robera Kampena nomi bilan mashhur rassom ham tasviriy san'atdagi yangi qarashlarning birinchi vakillaridan biri edi. Uning mashhur asarlaridan biri Nyu-Yorkdagi Metropolitan muzeyida saqlanadigan - Merode triptixi (1425 y.y.) hisoblanadi.

Merode triptixi asarining yaratilishida ishtirok etgan Rogir van der Veyden Kampening shogirdi hisoblanadi. O'z o'rnida u tasviriy san'atda Pirka Bouts va Gans Memlinglarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1465 yilda birinchi marta tilga olingan Xugo van der Gus esa Memlingning zamondoshi edi.

Yuqoridagi mashhur rassomlar bilan bir qatorda ilk niderland rassomlaridan Petrus Kristus, Kolen de Koter, Albert Bouts, Gosvin van der Veyden va Kventin Maseyslarning ham bu davr tasviriy san'atining rivojlanishida o'ziga yarasha xizmatlarini e'tirof etish kerak. Lekin ularning ishlaridan juda kamchiligina bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ikonachilikka qarshi reformalar va urush davrlarida juda ko'plab rangtasvir va grafik asarlar yo'qolib ketgan. Undan tashqari bizgacha yetib kelganlarining ham ko'pchiligi jiddiy ta'mirlashga muhtoj, ko'pchiligining faqat qayta ishlangan nusxalari saqlangan.

Ilk niderland va flamandlar rassomlarining ijodiy asarlari jahon miqyosidagi ulkan muzeylarda saqlanadi. Ayrimlari hali ham cherkovlar, sobor va qasrlarda saqlanib qolgan. Masalan: Genta shahridagi muqaddas Bavona saroyidagi Gent mexrobi va h.k... Hozirgi vaqtda ularni faqat zirhli qalin oynalar orqaligina tomosha qilish mumkin.

Antonella da Messina. Mixlash.1475. Qirollik nafis san'at muzeyi. Antverpen.

Moybo'yoqda ishlashning flamandcha usulining tarqalishi

Bu tarixdagi birinchi moybo'yoqda ishlash usuli hisoblanib, moybo'yoq yaratilishi va unda ishlashning boshlanishi yuqorida aytilganidek aka-uka van Eyklarga tegishli degan ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Flamand rangtasvirida ishlash usuli butun Yevropada ommalashib ketdi. Moybo'yoq



Italiyaga kirib kelgandan so'ng Titsiandan tortib Jorjonegacha bo'lgan Uyg'onish davrining eng buyuk rassomlari moybo'yoqda ishlay boshlashdi.

Tasviriy san'at asarlarini zamonaviy usullarda tadqiqot qilish eski flamand rassomlarining asarlari har doim yelimli oq gruntlarga bajarilganligini ko'rsatadi. Rangtasvir ko'rinishining umumiy effektiga erishishda yupqa lessirovka usulida berilgan barcha bo'yoq qatlamlaridan tashqari asarni ichidan yoritgan bo'yoqlar ostidagi oq grunt rangi ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shuningdek liboslar va drapirovkalardan tashqari rangtasvirda oq bo'yoqning umuman ishlatilmaganligi ham e'tiborni o'ziga jalb etadi. Ba'zan oq bo'yoq eng yorug' joylarda yupqa lessirovka ko'rinishidagina berilganligini kuzatish mumkin.

Asar ustidagi barcha ish jarayoni qat'iy bosqichlarda bajarilgan. Ish jarayoni mo'ljallangan kartinaning aniq o'lchamidagi qattiq karton qog'ozga suratni joylashtirib chizishdan boshlangan. Rangtasvirdagi eskiz - "karton" tushunchasi shundan kelib chiqqan. Bunday eskiz-"karton"ga Leonardo da Vinchining Izabell d Este portreti suratini misol qilish mumkin.

Keyingi bosqich tasvirni gruntga ko'chirishdan iborat. O'ylangan kompozitsiya bajariladigan kartina o'lchamida avvaldan qog'ozga chizib olinib, silliq jilvirlab yelimlangan oppoq gruntli xolstga tushirilgan. Buning uchun qog'ozdagi tasvir shakli va soya chegaralari igna bilan chiziq bo'ylab teshib chiqilgan. Keyin teshib tayyorlangan "karton" gruntlangan taxta yuzasiga qo'yilib, ko'mir kukunini matoga o'rab surat bo'ylab yuritiladi va teshiklardan o'tgan ko'mir kukuni grunt yuzasida yengil chiziqlar hosil qiladi. Hozirda ham bizdagi zamonaviy naqqoshlikda naqshni yuzalarga tushirish uchun bu usuldan keng foydalaniladi. Undan keyin hosil bo'lgan chiziqlar ustidan arab yelimi (gummiarabik)ka qorilgan ko'mir, qo'rg'oshin qalam yoki suyultirilgan bo'yoqda pero, mo'yqalam bilan chizib chiqilgan va shaffof jigarrang bo'yoq bilan gruntning rangi ko'rinib turadigan qilib chizib chiqilgan. Bunda siyoh yoki boshqa tiniq bo'yoqlardan foydalanishgan. Rassomlar avval aytib o'tilganidek rangtasvirda eng yorug' tusalarni hosil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan oqlikni buzib qo'ymaslikdan cho'chib hech qachon birdan grunt yuzasiga ishlamas edilar. Bundan tashqari ayrim hollarda bo'yoq gruntga so'rilib ketmasligi uchun grunt ustiga tushirilgan tasvir ustidan qo'shimcha yelim bilan yopib chiqilgan. Rassom o'ylangan kartinadagi rangdan tashqari kartina yaratishdagi o'z oldiga qo'ygan barcha vazifalarni asosan mana shu bosqichda bajarar edi. Keyingi bosqichlarda tasvir surati va kompozitsiyaga deyarli hech qanday o'zgartirishlar kiritilmagan lekin shu holatda ham kartinani yetuk badiiy asar sifatida qabul qilish mumkin edi.

Tasvirni gruntga ko'chirib olingandan keyin oq grunt rangi tasvirning barcha yuzasida bo'yoq qatlami ostidan ko'rinib turishi uchun shaffof va suyuq jigarrang bo'yoqda tushlab bo'yab chiqilgan. Tushlash tempera yoki moybo'yoqda yuqa yedirib berish usulida bajarilgan. Gruntning oq rangi kartinani ichki tomonidan yoritib, rangtasvirning umumiy effektini kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Shu effektga erishish uchun barcha bo'yoq qatlamlari xuddi shu usulda berib borilgan. Bunday bo'yash ishlari tempera bo'yog'ida, yoki moybo'yoqda ilojining boricha mukammal bajarilganki, ish shu ko'rinishdayoq badiiy asar ko'rinishini olgan. Rangtasvir bajarishdan oldin temperada bajarilgan surat ustidan bir – ikki marta

rangsiz yelim yoki lak bilan yopib olingan. Undan keyin moybo‘yoqda ishlashga o‘tishgan. Agar surat ustidan moybo‘yoqda jigarrang bo‘yoq bilan yopilgan bo‘lsa, unda surat birinchi yelim yoki lak bilan yopib olingan, keyin rangda tushlash ishlari olib borilgan. Keyinchalik surat ham lakdan keyin tushirila boshlangan. Undan keyingi ish jarayoni har xilda bajarilishi mumkin. Flamand usulining paydo bo‘lishining boshlanishida, ayniqsa rangtasvirda temperada tana rangiga yaqin rang tayyorlangan va lak bilan qo‘shilgan suyuq holda chizilgan surat ko‘rinadigan qilib yopib chiqishgan. Bu rang kartinaning butun qismi yoki ma‘lum bir bo‘lagidagi tasvirni yopish uchun ishlatilgan. Keyin bu tasvir ustidan yarim lessirovka yoki lessirovka bilan tugatilgan. Bu usulda bajarilgan asarning yorug‘ joylardagi bo‘yoq qatlamiga nisbatan soya joylarida bo‘yoq quyuk holatda bo‘lgan. Tasvir ustidan jigarrang bo‘yoq bilan yopib chiqilib, u qurigach soya va yarimsoya joylardagi avval bo‘yab chiqilgan jigarrang bo‘yoqlar ko‘rinadigan qilib yarim yopish yoki yaxlit yopish usulida davom ettirishgan. Ba‘zan ishni bir urinishda tugallashgan. Yoki butun kompozitsiyadagi rangtasvirni harir lessirovkada tugatadigan qilib har xil rang va tuslarda tayyorlab olishgan. Yana shunga ham e‘tiborni qaratish kerakki, kartinadagi rangtasvir deyarli oq bo‘yoqlar ishtirokisiz ishlangan. Unda oq bo‘yoqlardan oq rangli kiyim va va matolarni ishlashdagina foydalanilgan. Ba‘zan u juda yorug‘ joylardagina, shunda ham yuqa va suyuq holda ishlatilgan.

Ish yakunida butun rangtasvirni “o‘lik ranglar” deb ataladigan ranglar, ya‘ni (ko‘kish kulrang, yashilsimon kulrang) bilan lessirovkada tugatishgan. Bu jarayondan keyin butun asarga jon baxsh etadigan oxirgi suyuq lessirovka qatlami qo‘yilgan va ish yakunlangan.

Rangtasvirning flamand usulini Rubensning ko‘pgina ishlarida kuzatish mumkin. Ayniqsa ravoqqa ishlangan “Gersoginya Izabella apofeozi” ga bajarilgan ranglavha eskizlarida. Moybo‘yoq rangtasviridagi ko‘k ranglar (moyga aralastirilgan ko‘q pigmentlar rangi o‘zgartirgan) go‘zalligini saqlash maqsadida bu ranglar qo‘yilgan joylardagi hali qurimagan joylarga ultramarin yoki smalta kukunini sepib chiqilgan va ustidan yelim yoki lok bilan yopib chiqilgan. Moybo‘yoqda bajarilgan kartinalar ustidan sarimsoq piyoz bilan ishqalab keyin akvarelda lessirovka qilib ishlangan.

Bu usuldan foydalangan rassom, tabiiyki unga o‘zidan ham nimanidir qo‘shgan. Masalan: rassom Iyeronim Bosxaning biografiasidan ma‘lumki, u flamand usulining osonlashtirilgan bir martada ishlab tugatish usulini qo‘llagan. Shunda ham uning asarlari juda chiroyli va vaqt o‘tishi bilan ranglar o‘z xususiyatini o‘zgartirmaganini kuzatish mumkin. O‘z zamondoshlari kabi u ham suratni tushirish uchun qalin bo‘lmagan oq gruntni tayyorlab olgan. Kartinani jigarrang tempera bo‘yog‘i bilan tushlab olgandan so‘ng keyingi bo‘yoq qatlamlari gruntga so‘rilmasligining oldini olish maqsadida inson tanasi rangidagi shaffof lok bilan yopib chiqqan. Bu qatlam qurigandan keyin, fonni lessirovka usulida yopib chiqilib ish tugatilgan. Ayrim vaqtlardagina ba‘zi joylarida rangni kuchaytirish maqsadida qo‘shimcha rang qatlami bilan ishlab chiqilgan. Rassom Piter Breygel ham o‘z asarlarini shunday yoki shunga juda o‘xshash usulda bajargan.



Aka-uka van Eyklar. «Gentskiy altar». Moybo 'yoq, taxta. 1432.



*Petrus Kristus. Yosh qiz portreti. 1450 y.y. Berlin kartinalar galareyasi
Moybo 'yoq, taxta. XV asr.*



Leonardo da Vinci. "Izabella d Este portretiga karton"



Leonardo da Vinci. "Sehrgarlarning sajda qilishi". Moybo 'yoq, taxta. 1481-1482.



P. Breygel. "Qordagi ovchilar". Moybo'yoq, taxta. 1565.

Moybo'yoq rangtasviri ishlashning italyanacha usuli

Xronologik sanalarga asoslangan holda taxmin qilish mumkinki, eski niderland rangtasviri italyan Renessansi bilan bir vaqtda rivojlanib borgan. O'sha vaqtda italyan rassomlari perspektiva tizimi kabi murakkab matematik va geometrik vositalardan unumli foydalanishgan. Shuning hisobiga tasvirlardagi "reallik"ka qiyinchiliksiz erishardilar. Kartinalardagi harakatlar gotika davridagidek bir vaqtning o'zida bir sahnada bo'lmay, balki chiziqli va fazoviy perspektiva asosida kartinalarda ko'p planlilik aks ettiriladi. Inshootlar perspektiva qonunlari asosida tasvirlanadi, manzaralar esa avvalgidek sodda ko'rinishlarda emas, keng, mayda bo'laklarigacha ishlangan fon tomashabin ko'z qarashini kartinadagi cheksizlikka qarab olib ketadi. O'sha vaziyatdagi buyumlar, kiyimlar, mebel jihozlari fotografik aniqlikda tasvirlana boshladi.

Flamand uslubi (*ital. maniera Fiamminga*) italyan kvatrochento san'atiga ham o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi. Antonello da Messinadje uzoq vaqtgacha Yan van Eykning shogirdi hisoblanardi. Shimoldagi bu maktab rangtasvir ustalari italyan kolleksionerlari tomonidan tasviriy san'at asarlari uchun ko'plab buyurtmalar olishardi. Homiyilar tomonidan yosh rassomlarga flamand rangtasvir ustalaridan ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar yaratib berilardi.

Bo'yoqning hayratlanarli darajadagi yorqin ko'rinishi italyanlarda o'ziga xos flamandlarcha "ichki diyonatlilik (hissiyot)" taasurotini uyg'otardi. Shimoldan kirib kelgan bu san'at italyan rangtasviriga insonparvarlik g'oyalarini singdirdi, tasviriy san'atda naturalizm bilan chuqur taqvodorlikning o'zaro uyg'unlashishiga xizmat qildi.

Keyinchalik Italiyaga ham tarqagan flamand usuli bu yerda butunlay o'ziga xos italyan usuliga o'zgarib ketdi. Bu yerda flamand usulidan foydalanishni davom ettirishga ko'p narsalar xalaqit berardi. Shuning uchun u Italiyada o'z ilk ko'rinishini uzoq vaqt saqlay olmadi. 16 asrdayoq Italiyada dastgohli

rangtasvirning ommaviylashishi buyurtmalarni rangtasvir texnikasidagi qisqartirishlar evaziga qisqa vaqtlarda bajarishni talab qilardi. Flamand usulida ilk qalamtasvir va kompozitsiyani o'zgartirib bo'lmazligi sababli rassom ish jarayonida avvaldan tayyorgarliksiz maqsadga erisha olmaydi. Ikkinchisi: Quyoshli Italiyadagi yorug'likning yorqin va xilma-xilligi rassomlar oldiga o'ziga xos ranglar ko'lami va yorug'-soyalarining xilma-xil rangdorligini bera olish vazifasi turardi. Ko'pchilikka ma'lum bo'lganidek, Italiyadagi doimiy quyosh nurining mo'lligi va quruq, issiq iqlimda moybo'yoqlar tez quriydi. Bundan tashqari bu vaqtda rangtasvir uchun yangi material xolstdan foydalanish juda ommalashib ketdi. Yog'och bilan solishtirganda xolst yengil, arzon bo'lib, kartinani katta o'lchamlarda yaratishga imkoniyat yaratardi. Lekin juda silliq yuzalarda ishlashni talab qiladigan flamand usuli bilan xolstga ishlash mushkul ish edi. Bu muammolarni yechish uchun tabiiyki rassomlar flamand usulini o'zlariga moslab o'ziga xos italyan rangtasvir usulini yaratishdi. Rangtasvirga yangicha yondoshish rangli gruntlar paydo bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Avval oq grunt ustidan qandaydir shaffof rangli bo'yoq bilan yopib chiqilardi, keyinchalik mel va gipsdan qilingan oq grunt har xil rangli pigmentlar, asosan kulrang yoki qizg'ish jigarrang gruntlar bilan almashib bordi. Kartinaga birdan har xil tus berib kompozitsiya koloritini belgilaydigan bu yangilik ish jarayonini tezlashtirishda katta ahamiyatga ega edi. Italiya rangtasvir usulining asosiy xususiyati ilk qalamtasvir rangli gruntga oq bo'r yoki ko'mir yordamida chizilib, keyin chiziqlar ustidan qandaydir rangli bo'yoq, asosan jigarrangda yurgizib chiqilardi. Shu rang bilan birdan soyalar, to'q rangli mato va h.k... larning rangini ham bo'yab chiqishgan. Grunt rangiga qarab dastlabki rang qanday bo'lishini aniqlanardi.

Agar grunt o'rtacha kulrang bo'lsa barcha soyalar va to'q matolar jigarrang bo'yoqda bo'yolib, xuddi shu rangda surati chizib chiqilgan. Yorug' joylar toza oq rangda beriladi. Birinchi ranglar qurigandan keyin yarim soyalarda kulrangni qoldirib naturadagi asl ranglar berilardi. Kartina bir seansda tugatilsa rang butun kuchi bilan birdan olinadi, yoki nisbatan ochroq gruntovkaga lessirovka va yarim lessirovkalar bilan tugatilardi.

Shundan keyin gruntga ishlangan tasvir ustidan yelim surkalib, ketidan grunt moybo'yoqni shimib ketmasligi uchun rangsiz lok bilan ham yopib chiqilgan. Undan keyin shaklning yorug' joylarini faqat oq bo'yoq bilan ishlab uning hajmdorligini chiqarib olishdan boshlashgan. Bu bo'yoqlar qurigandan keyin navbatdagi bosqich - lessirovka usulida ishlashni ko'zda tutgan holda oq rangni keragidan ko'proq ishlatib, moybo'yoqda rang surtmalarni quyuuq xamirsimon holda qo'yib yorug' joylar ishlab chiqiladi. Shunday usulda refleks, yarim soyalar, ayniqsa inson tanasi ranglari ishlab chiqilib, faqat eng pastki qatlam kulrang gruntni yoritib ko'rinishi ishlari qoladi. Bo'yoqlar yaxshilab quritiligidan keyin kompozitsiyani suyuq bo'yoq qatlami bilan lessirovka usulida ishlab tugatishgan. Keyinchalik to'q kulrang gruntlardan foydalanishgan, bunda boshlang'ich xomaki bo'yoq berish uchun oq va qora ranglarni quyuuq rang surtmalari holda ishlatilgan. Bu ranglarda surat va shakl topiladi va keyin koloritga ishlanadi. Yaxshi qurigan ishni jilvirlab tekislanadi, keyin yong'oq moyi bilan ishqalanadi, bo'yoqqa rangsiz lok qo'shib lessirovkada ishlanadi.

Bir-biriga o'xshamagan rassomlarning (Rubens, Titsian va h.k.) o'ziga tegishli alohida bir necha usullarni qo'llashiga qaramasdan umumiy o'xshashlik tomonlarini hisobga olib, ularni bir tizimga yig'ib italyan usuli deb atashimiz mumkin.

Biz quyida ko'p uchraydigan bir necha usullarni ko'rib chiqamiz.

Juda to'q gruntga ishlanganda uning rangi soyalar uchun qoldirilardi, yorug' joylar va yarim soyalar oq va qora bo'yoqlarni palitrada aralashtirilib ishlanadi. Bunda eng yorug' joylarga asosan bo'yoq quyuc va qalin yopiladi. Kartina avval grizayl ko'rinishda bir xil ranglarda (frans. gris — kulrang) ishlanadi. Bunday ilk berilgan bo'yoqlar yuzasiga ishlov berib, silliqlanardi, keyin rangli lessirovkalar bilan tugatiladi.

Gruntga yorqin ranglar berilsa ilk ranglar berish uchun grunt rangi bilan qo'shib xolis rang beradigan rang tanlanardi. Bu yorqin rangning keyingi qatlamdagi ranglarga kuchli ta'sirini kamaytirish uchun zarur edi. Buning uchun qizil gruntga kulrang yashil tuslar bilan qo'shimcha ranglar berilardi.

Izoh: "Qo'shimcha ranglar prinsipi 19 asrda ilmiy asoslangan bo'lsada rassomlar buni ancha asrlar oldin qo'llashgani ma'lum. Bu prinsipga ko'ra uchta asosiy: sariq, ko'k, qizil ranglar mavjud. Ularni aralashtirish yo'li bilan yashil, siyohrang, zarg'aldoq kabi tarkibiy ranglar hosil bo'ladi. Tarkibiy ranglar qarama-qarshi asosiy ranglarga qo'shimcha ranglar bo'lib, ular aralashmasidan xolis kulrang hosil bo'ladi. buni sinab ko'rish juda oson. Masalan: qizilni yashilga, ko'kni zarg'aldoq rangga, siyohrangni sariqqa qo'shib kulrang hosil bo'lishiga guvoh bo'lishimiz mumkin."

Rangtasvirda ishlashning italyan usuli ikki bosqichni ko'zda tutadi.

Birinchi – surat va shaklga ishlash, bunda eng yorug' joylar quyuc va qalin bo'yoq qatlami bilan yopilgan.

Ikkinchi – ranglarni ishlashda shaffof bo'yoqlarda yopib chiqilgan. Bu usul rassom Tintoretto'ga tegishli deyish mumkin. U barcha bo'yoqlar ichida menga oq va qora ranglar yoqadi, chunki biri soyaga kuch bersa, ikkinchi shaklga hajm bag'ishlaydi, qolgan ranglarni har doim Rialto bozoridan topsa bo'ladi deb aytgan edi.

Rassom Titsianni Italyan usulining asoschisi deb aytsa bo'ladi. oldiga qo'yilgan maqsadga qarab u asosan xolis to'q kulrang, yoki qizil grunt dan foydalangan. Rangdor fakturani juda yoqtirgan holda o'z asarlarini grizayl usulida quyuc bo'yoqlarda ishlagan. Rangtasvirda sanoqli ranglardangina foydalanish unga xos usul edi. Titsian "kim rangtasvirchi bo'lishni hohlasa uchta bo'yoq: oq, qora va qizil rang xususiyatlarini o'rgansa va ulardan foydalanishni bilsa bas" deb aytgan edi. Bu uchta rang yordamida u inson qomati tasvirini tugallangan yetuk rangtasvir darajasigacha olib borgan. Yetishmayotgan tillarang oxra ranglarni u lessirovka yordamida chiqargan.

El Greko ham o'ziga xos usulni qo'llagan. Boshlang'ich qalamtasvir suratni oq grunda, dadil va shaxdli chiziqlarda bajargan. Keyin kuydirilgan umbra bo'yog'ida shaffof holda yopib chiqqan. Qurigandan so'ng soyalarda ichkiidagi jigarrang joylarni qoldirib oq bo'yoq bilan yorug' va yarim soya qismlarga ishlov bergan. Bu usulda u mashhur asarlarida palitrada bo'yoqlarni aralashtirib hosil

qilish qiyin bo'lgan yarim soyalarda kulrang perlamutr tuslarni hosil qilgan. So'ng qurigan yuzada ranglarda ishlangan. Yorug' joylar keng va quyuq ranglarda tugallangan kartinaga nisbatan ancha och tusalarda ishlangan. Kartina ichidagi ranglar va soyalarni chiqarish uchun shaffof bo'yoqlarda tugatilgan. El Greko rangtasvir texnikasida katta hajmdagi kartinalarni ko'p bo'yoq sarf qilmay ishlash imkoniyatini berardi.

Rembrandt usuli ham texnik jihatdan juda qiziq. U o'ziga xos italyan usulining boshqa san'at maktablariga keng yoyilishiga xizmat qildi. Rembrandt to'q kulrang gruntlarga ishlagan. Kartinadagi barcha shakllarni u to'q shaffof jigarrang ranglarda tayyorlab olardi. Keyin tayyorlangan bu jigarrang ustidan grizaylsiz ranglarda lessirovka bilan tugatish uchun bir seansda quyuq va qalin rang dog'lari bilan, yoki ba'zi joylarida rangni oqishroq olgan holda ishlardi. Shuning uchun uning ishlarida qorayganlikni kuzatmaysiz, lekin kartinada gi bo'shliq va havo seziladi. Shuningdek kulrang gruntga iliq ranglarsiz bajarilgan asarlarga nisbatan sovuq tuslar kuzatilmaydi.

Shunday tez ishlanishi, yorug'likning murakkab ko'rinishlarini bera olish imkoniyati kabi afzallik tomonlari bilan birga italyan usulining kamchiliklari ham bor. Ulardan asosiysi asarning uncha yaxshi saqlanmasligi. Buning sababi dastlabki berilgan bo'yoq qatlamidagi oq bo'yoqning vaqt o'tishi bilan o'zining yopuvchanlik xususiyatini yo'qotib, shaffoflashib borishi natijasida ranglar o'zgarib ketadi. Natijada ular orasidan to'q grunt rangi ko'rinib qoladi va kartina qorayishni boshlaydi. Ba'zan unda yarimsoyalar yo'qolib ketadi. Yorilgan bo'yoq qatlamlaridan grunt rangi ko'rinib kartinaning umumiy ko'rinishini buzadi.

Har qanday usul ham shu kabi o'zining afzalligi va kamchiliklariga ega. Asosiysi u rassomning oldiga qo'yilgan vazifasiga mos bo'lishi kerak. Shubhasiz har bir usul har doim ko'zda tutilgan qoidalarga amal qilish va bajarish bosqichlariga amal qilishni talab qiladi.

Titsian, Tintoretto, El Greko, Velaskes, Rubens, Van-Deyk, Engr, Rokotov, Levitskiy va boshqo'plab mashhur rasomlar o'z asarlarini mana shu tarzda bajarishgan. Bu ularning ishlash texnologiyalarini uzoq davrlar XVI asrdan - XIX asrgacha qo'llanilib kelingan umumiy bir usul deb xulosa qilishga sabab bo'ladi.

Piter Paul RUBENS

(28 iyun 1577, Zigen – 30 may 1640, Antwerpen)

D.I. Kiplikning (Rangtasvir texnikasi) kitobidan parcha

Rubens Titsianning asarlaridan ko'plab nusxalar ko'chirib o'rganish natijasida italyan rangtasvir usulini mukammal o'zlashtirdi. Uning ta'sirida Italiyada maishiy rangtasvirning paydo bo'lishiga o'zining katta hissasini qo'shdi. Avval moyni shimmaydigan oq yelimli gruntga ishlar edi. Uning oqligini buzmaslik uchun asarlariga barcha eskizlarini qalam va bo'yoqlarda bajarardi. Oq gruntga suratni chizib chiqib shaffof och jigarrang bilan yopib chiqqan, uning butun yuzasini, keyin asosiy soya va qorayib ketmasligini hisobga olib asl ranglardagi to'q joylarini yana o'sha jigarrang bilan (ko'k ranglar bundan mustasno) yopib chiqqan. Bu bilan an'anaviy flamand usulidagi jigarrang tushlash usulini mustahkamlagan. Bu bosqichdan so'ng to'q soyalarni saqlagan holda grizayl usulida ishlab borilgan,

keyin asl tushlarga ishlash bilan rangtasvir davom ettirilgan. Ammo ko‘pincha Rubens *al a prima* usulida ishni yakunlagan.³

Rubens rangtasvir usulining uchinchi bosqichi jigarranglar bilan tayyorlangan ish ustidan yarim soyalarni ko‘kish kulranglarda asl tushlarda, ya‘ni ochroq tushlarda ishlashdan iborat edi. Undan keyin yakuniy ranglar yaxlit ranglarda lessirovka bilan tugatilgan.

Rubens italyan rangtasviri bilan shug‘ullanar ekan unda och va to‘q kulrang gruntlar ustidan ko‘plab asarlar yaratdi. Uning bir qancha ranglavha va tugallanmagan asarlari ichkiidan oq grunt ko‘rinadigan qilib och kulrang grunt ustidan ishlanganligini ko‘rsatadi. Mana shunday ishlash har doim oq gruntni afzal ko‘radigan Tenirsdan tashqari golland rassomlari tomonidan ko‘p qo‘llanganligi ma‘lum. Kulrang grunt uchun qo‘rg‘oshinli oq bo‘yoq, qora bo‘yoq, qizil oxra va ozroq umbra bo‘yog‘ini qo‘shish bilan tayyorlangan. Rubens quyuc xamirsimon bo‘yoqlar bilan yozishdan qochgan va nisbatan flamand usulini xush ko‘rgan.

Rubens har doim soyalarga *a la prima* usulida ishlar ekan na oq va na qora bo‘yoqlarni ishlatmagan holda iliq va shaffof ranglardan ko‘proq foydalangan. “Soyalarni ishlashda ularga ozgina ham oq bo‘yoqni aralashtirishga yo‘l qo‘ymang: oq bo‘yoq - soyalar uchun zahardek ta‘sir qiladi, uni faqat yorug‘ joylardagina qo‘llash mumkin. Oq bo‘yoq tushlardagi shaffoflikni, tillarangni va soyalardagi ilqlikni buzadi, bajargan rangtasviringiz yengil bo‘lmay og‘ir va kulrang tushlarga aylanadi. Yorug‘ joylarni ishlashga esa butunlay boshqacha yondashiladi. Bunda bo‘yoq talab qilingan darajada, toza tushlarda yaxlit qo‘yilishi mumkin. Har bir rang dog‘ini birini ikkinchisining yoniga o‘z joyini topib shunday qo‘yish kerakki, mo‘yqalamning yengil harakati bilan qo‘yilgan bo‘yoq qatlamini

buzmagan holda tushlab chiqish imkoni bo‘lsin. Bunday rangtasvir ustidan keyin aniq harakatlar bilan mashhur rassomlarga xos kerakli yakuniy ranglarni berish mumkin” - deb o‘z shogirdlariga o‘rgatardi.

O‘zining hattoki katta o‘lchamdagi asarlarini ham Rubens bo‘yoqlar birinchi martadan yaxshi yopishadigan juda silliq gruntlangan yog‘ochga ishlardi. Bu Rubensning zamonaviy bo‘yoqlarda ham bo‘lmagan tarkibi qayishqoq va yopishqoq bog‘lovchilardan iborat bo‘yoqlardan foydalanganligini ko‘rsatadi. Rubensning rangtasvir ishlari ancha tez qurigan va qo‘shimcha loklashga ehtiyoj



³ Д.И. Киплик. *Техника живописи 7 бет*

bo‘lmagan.

Endi Titsian singari musavvirlar shahzodasi degan nomga sazovor bo‘lgan Rubensning ko‘mir bilan nozik va chiroyli qalamchizgilariga e‘tiborni qaratamiz. Yengil musiqiy ohanglarga to‘la va borokkoning turli ko‘rinishlariga boy kartinalarini ishlashdan oldin kompozitsiyani aniqlash uchun juda ko‘plab eskizlar bajargan. Bu eskizlar ba‘zi qismlari yengil chiziqlarda bo‘lsa, boshqa joylarida aniq va to‘q shakllar bilan ifodalangan yumshoq realistik usulda ishlangan.

Chiziqning yuzadagi och izlari figuralar kompozitsiyasini yengil fazoviy ko‘rinishga olib kelgan. Qachon ish tugaganda shakli bo‘yicha to‘liq va boy ko‘rinish tus olgan. Rassom kartinada haqiqiy mahoratni ko‘rsata olish, bu kerakli joyga kuchli ranglarda urg‘u berib, ba‘zi joylarda ozgina xiralashtirish deb tushunardi.

Rubens birinchi bo‘lib yotiq ko‘rinishga ega bo‘lgan kartinalar yaratgan rassom hisoblanadi. Uni qalamda ishlagan manzara va me‘morchilik ko‘rinishlari shunchalik darajada aniqlik va haqqoniy tasvirlaganganligi bilan ajralib turadi.



LEONARDO DA VINCI (1459-1519)

Flamasvind usuli ko‘rinishlarini Leonardo da Vinchi asarlarida ham kuzatish mumkin. Uning tugallanmagan “Sehrgarlarning sajda qilishi” asarini kuzatar ekanmiz, uning ham oq gruntga ishlanganligining guvohi bo‘lamiz. Kartondan ko‘chirilgan surat yashil oxra rangidagi shaffof bo‘yoqda chizib chiqilganligini ko‘rish mumkin. Keyin qora, qizil kraplak va qizil oxra kabi uch xil rang aralashtirib tayyorlangan, sepiya rangiga yaqin bir xil jigarrang tusda tushlab chiqilgan. Oq grunt hech joyda qoldirilmagan, butun kartina yuzasi, hatto osmon ham bir xilda shu jigarrang bilan yopib chiqilgan.

Leonardo da Vinchining tugallangan asarlarida ham yorug‘lik mana shu oq gruntlar hisobiga hosil qilingan. Fon, va kiyimlarni bir-birini nozik yopadigan yupqa shaffof ranglar ustma-ust qo‘yilgan bo‘yoqlar qatlamining bir-birining ostidan ko‘rinib turishi hisobiga paydo qilingan. Leonardo da Vinchi flamand rangtasvir ishlash usulini qo‘llar ekan yorug‘-soyani g‘ayrioddiy usulda

tasvirlashga erishdi. Shu bilan birga kartina yuzasidagi bo‘yoq qatlami sezilarsiz juda yupqa va bir tekis surkalganligini sezish mumkin.

Leonardo ishlarini kuzatar ekanmiz, atrofimizdagi voqeliklarni, nozik jihatlarini nafaqat ko‘ra olgan, balki uni qog‘ozda katta mahorat bilan ifodalay olgan qanchalik buyuk iste’dod egasi ekanligini anglab yetamiz. Uning ko‘plab grafik ishlarida qalam yoki ko‘mirda shakl yuzasidagi o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘rsatish uchun ba’zilar chuqur aniqlikda va boshqalarini yengil, nozik shtrixlar bilan ifodalashning juda nafis usulini ko‘rish mumkin.



Asl nusxa va undan qalamda ko‘chirilgan nusxa

Leonardo janubiy sharqiy hududdagi mashhur uslub (Italyan uslubi)ni qo‘llab to‘q va xira tusdagi yorug‘-soyalar yordamida fazoviy bo‘shliq va hajmdorlikni ifodalaganligining guvohi bo‘lamiz. O‘ta mahorat bilan bajarilgan to‘q va xira tuslar uch o‘lchamdagi yakuniy jonli tasvirning paydo bo‘lishiga yordam beradi.



Silliq, bir tekisda bajarilgan tig'iz chiziqlar esa yuzadagi chuqurlik effektini juda ishonarli tarzda ifodadi. Bu tuslar o'z joyida shunchalik mohirona qo'yilganki, unda ortiqchalikni umuman sezmaydiz. Bunday darajadagi natijaga erishish uchun rassomdan juda katta mehnatsevarlik talab etiladi. Shuning uchun maqsadga erishish yo'lida buyuk rassomlar amaliy usullarini o'rganib va amalda qo'llab katta ishtiyoq va qat'iyat bilan harakat qilishi zurrur bo'ladi. Hozirda sizning oldingizda ancha unutilib ketgan bu usullarni egallash vazifasi turibdi. uni o'rganish uchun tinimsiz mehnat va juda ko'p vaqt sarflashingizga to'g'ri keladi.⁴

RAFAEL SANTI (1483-1520)

O'sha davrlarda Filippo Lippi, Botticelli, Michelangelo va Leonardo ishlarini ko'rib yurgan bo'lsalarda zamondoshlari Rafael chizgilarining mukammalligidan yanada hayratga tushar edilar. Undagi nozik topilgan harakatlar rassomning musavvir sifatidagi mahoratining qanchalik yuksakligini ko'rsatib turibdi; e'tibor bersangiz u o'zining yosh bolali Madonna kompozitsiyasida umumiy shaklni ko'rsatish uchun harakatdagi inson qomati, hatto ularning hissiy kechinmalarini bir necha jozibador chizgilarda ifodalaydi.

Bir qarashda sezilmaydigan yengil chiziqlar biz o'ylagandan ko'ra ko'proq mazmunga ega. Undagi oddiylilikni ko'chirish uchun harakat qilganda natija asliga qaraganda ancha sayoz chiqib qolishi ham mumkin. Asl nusxa yoki sifatli reproduksiyadan foydalanib nusxa ko'chirish orqaligina siz rassomning chizgilari va tuslash jarayonini tushunib borasiz.⁵

Rangtasvir ishlashning sof flamand usulidan rassomlar faqat ikki asrdan kamroq foydalandilar, lekin juda ko'plab buyuk asarlar xuddi shu usulda yaratildi. Yuqorida tilga olingan rassomlardan tashqari Golbeyn, Dyurer, Perudjino, Rogir van der Vey-den, Klue va boshqa rassomlar bu usulda ko'plab asarlar yaratdilar.

Qattiq taxtalarda, mustahkam gruntlarda bajarilgan bu asarlar har xil

⁴ Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-17

⁵ Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-26.

yemirilashlarga chidamliligi, o‘zining yaxshi saqlanishi bilan ajralib turadi.

Kartinning umumiy ko‘rinishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan rangtasvir qatlamidagi vaqt o‘tishi natijasida o‘zining uvalanishi va rangining o‘zgarishiga sabab bo‘ladigan oq bo‘yoqning yo‘qligi sababli bu asarlar yaratilgan paytda qanday ko‘rinishda bo‘lsa biz hozir ham xuddi shu holatda ko‘rishga muyassar bo‘lib turibmiz. Puxta bajarilgan surat, nozik hisob-kitob, bajarilish bosqichiga aniq rioya qilish va sabr toqat hamda chidam - bu usuldan foydalanishning asosiy shartlari hisoblanadi.



Jan van Eyck. "Kansler Rolend madonnasi". 1435. Luvr. Parij.

Germaniya. Italyan rangtasviri bilan birgalikda salkam ikki asr mobaynida butun Yevropa san‘ati taqdirini hal qilishi kerak bo‘lgan yangi badiiy yo‘nalish rangtasvirning flamand usuli qo‘shni Germaniya davlati hududiga ham kirib keldi. Djordjo Vazari hatto Albrext Dyurer va uning o‘tmishdoshi Martin Shongauerni flamandliklar deb hisoblardi. Haqiqatdan ham ikki rassomning ijodini ham niderlandlarning ta‘siriz tasavvur qilish qiyin.

Dyurer niderland rangtasvir texnikasi ta‘siri ostida ta‘lim olgan Gans Pleydenvurning shogirdi Mixael Volgumetdan ta‘lim oldi. 1520-1521 yillar Niderland bo‘ylab sayohatga chiqqan Nyurenbergning buyuk o‘g‘loni Mixael Volgumet flamand san‘atini o‘z joyida o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Nemislardagi flamand usulida ishlangan ilk asarlaridan biri “Golgofa Vesserfasov” kartinasi hisoblanadi.

Stefan Loxner asarlarida burgund-flamand usuli ta‘siri yanada aniqroq seziladi. Niderlandiya bilan hududiy yaqinligi uchun ayniqsa Kyoln va Reyn daryosining quyi qismlarida flamand rangtasviri usulining ta‘siri kuchli bo‘ldi. 1445 yil Kyoln zodagoni Goddert fon dem Vasserfass Rogira van der Veydenga hozirda ham Myunxen eski kartinalar galareyasida saqlanadigan Kolombi mehrobi

(boshqacha qilib aytganda “uch qirol mehrobi”) asarini chizib berishi uchun buyurtma beradi.

Ispaniya. Shimolliklar rangtasvir texnikasining Valensiya, Kataloniya va Belear orollarini o‘z ichiga olgan Aragon qirolligi davrida Ispaniyaga birinchi bor kirib kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Qirol Alfons V 1431 yildayoq o‘zining saroy rassomi bo‘lgan Luis Dalmauni Flandriyaga jo‘natgan edi. 1439 yil Bryuglik rassom Luis Alimbrot (*Luís Alimbrot, Lodewijk Allynbrood*) o‘zining butun ustaxonasi bilan Valensiyaga ko‘chib keladi. Yan van Eyk o‘zi 1427 yillari burgund delegatsiyalari tarkibida Valensiyaga tashrif etgani ham ehtimol qilinadi.

O‘rtayer dengizida katta ahamiyatga ega bo‘lgan markaz hisoblanganligi uchun Valensiya o‘sha paytlarda butun Yevropa rassomlarini o‘ziga jalb qilar edi. “Internatsional ruhdagi” an’anaviy badiiy maktablar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan bu yerda flamand usulida ishlaydigan va italyan uslubida ishlaydigan rassom ustaxonalari ham uchrab turar edi. Bu yerda asosiy vakillari Bartolome Bermexo, Xayme Uge va Rodrigo de Osanalar bo‘lgan “ispan-flamand usuli” deb nomlangan san’at yo‘nalishi rivojlanib bordi.

Kastil qirolligida ham shimolliklar uslubi ancha erta boshlandi. Lekin mahalliy rassomlar har doimgi dubning o‘rniga piniya (ignabargli daraxt turi) taxtalariga temperada ishlashni xush ko‘rishardi. Kastiliya va Aragon rangtasvirining o‘ziga xos tomoni oltin kukunlarini haddan ziyod ko‘p ishlatishi va asarlarining naqshlarga boyligi edi.

Kastiliya Qirollari Ragira van der Veyden, Gans Memling va Yan van Eyklarning bir qancha mashhur asarlariga egalik qilishar edi. Buning ustiga qirolicha Izabelning shaxsiy saroy rassomi ispan saroy rassomchiligida realistik maktabga asos solgan Xuan de Flandes bo‘lib, u ham flandriyadan kelgan edi.



Nunyo Gonsalvesh: Avliyo Vinsent mehrobi. (fragment) 1430 y.y. Qadimgi san’at milliy muzeyi. Lissabon.

Luis Dalmau. Taxtdagi Madonna. Fragment. 1445. Katoloniya milliy san’ati muzeyi. Barselona.

Portugaliya. Portugaliyada mustaqil rangtasvir maktablari XV asrning ikkinchi yarmida saroy rassomi Nunyo Gonsalveshning Lissabondagi ustaxonasida vujudga keldi. Bu rassomning “Avliyo Vinset” asarida flamandriya usulining ta’siri seziladi.

Rossiya. Rossiyada ham Italyan usuli an'analari 18-19 asrlarda rus rassomlari tomonidan davom ettirilgan. A. Matveyev to'q jigarrang gruntlarda yarimsoyalar uchun kulrang bo'yoqlar bilan, V. Borovikovskiy kulrang gruntga, K. Bryullov esa to'q jigarrang gruntlarga ishlagan. A. Ivanov ba'zi ranglavhalarida qiziqarli usullardan foydalangan. U shaffof moyli grunt bilan qoplangan och jigarrang yupqa kartonga tabiiy umbrani yashil oxra ranglar bilan ishlagan. Dastlabki suratni kuydirilgan siyenada chizib, eng to'q fon sifatida foydalanigan yashilsimon jigarrang gruntga suyuq grizaylda ishlab chiqqan. Ish lessirovka bilan tugatilgan.

Uyg'onish davri rassomlari : Yan van Eyk, Petrus Kristus, Piter Breygel va Leonardo da Vinchining asarlarini kuzatar ekanmiz, har xil mualliflar va har xil mavzudagi ishlarni bir xil - flamandcha ishlash usuli bog'lab turganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

I.2. AMALIY MASHG'ULOTLAR

Ko'pqatlamli rangtasvir. Usta rassomlar ijodida bo'yoqlarning optik aralashirilishi.

Gruntning rangi va ahamiyati

Qadimgi rangtasvirda – qo'yilgan bir qator bo'yoq qatlamlari va grunt rangi bir-birining ortidan ko'rinib rangdorlik effekti xususiyatini berardi. Shu tariqa grunt ham muhim mazmun kasb etadi. Grunt rangi ustidan qo'yilgan bo'yoqlarning rangi yorug'lik va kartinaning rangdorlik effektiga yarasha chiqib kelishi zarur.

Rangtasvir kompozitsiyasida yorug'lik ko'proq bo'lganda oq grunt, chuqur soyalar ko'p bo'lganda to'q rangli grunt talab qiladi. Och rangli gruntlar unga yupqa surkalgan bo'yoqlarga iliqlik beradi, lekin kartinadagi chuqurlikni yo'qotadi; to'q grunt esa bo'yoqlarda chuqurlikni aks ettirish imkonini oshiradi; sovuq tusli to'q gruntlar sovuqlik hissini beradi. Och grunt da chuqurlikni aks ettirish uchun soyalarga to'q jigarrang ranglar qo'yiladi; kuchli yorug'lik to'q grunt da oq bo'yoqni yetarli darajada ko'proq ishlatish bilan chiqariladi. Oq gruntga harir bo'yoq surkalib rangli grunt hosil qilinishi yorug'likni so'ndiradi, shuning uchun uni juda to'q qilish tavsiya etilmaydi; rangli bo'yoqlardan qilingan gruntlar aksincha, yorug'likni qaytarish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun to'qroq tusda olinsa ham bo'ladi. Iliq ranglarga xos inson badani rangiga yaqin och gruntlar quyug, to'q sovuq tuslar uchun yaxshi qo'llaniladi. Qalin sovuq tusli bo'yoq surib chiqilgandan keyingina yorqin qizil grunt ustida sovuq tuslarni hosil qila (mnsol: ko'k) olish mumkin. Balchiq rang hamda boshqa to'q tusli gruntlar oq bo'yoqlar bilan to'yintirilib tayyorlanishi zarur. Har xil maqsadli rangtasvir uchun ishni yengillashtiradigan, vazifani bajarish tezligini oshirishga xizmat qiladigan ma'lum bir rangli grunt tanlash kerak bo'ladi. Gruntlar ichida och kulrang grunt ko'p tomonlama qulay bo'lib, u barcha bo'yoqlar uchun bir xil to'g'ri keladi va bo'yoqlarni o'ta qalin surkab ishlashni talab qilmaydi.

Oq gruntga xomaki bo'yoq berish

Gruntning oqligini saqlash uchun surat alohida chizib olinib, keyin xolstga kalka qog'oz yoki zamonaviy kompyuter vositalari orqali ko'chiriladi, undan keyin xolstdagi suratning soyasi va yarim soyalari eng yorug' joyini hisobga olgan holda kerakli darajada harir jigarrang bilan (chuqur soyalarda qalin bermasdan) bo'yab chiqiladi. Ma'lum to'q ranglarga mo'ljallangan hamma joylar, u issiq yoki sovuq rang bo'lsin o'sha jigarrang bo'yoq bilan tayyorlanadi. Masalan: ko'k va yashil ranglar, bu rangning to'q yoki ochligiga qarab har doim yupqa qilib quyuq yoki suyuq holda surkaladi. Yaxshilab quritilgandan keyin tempera yoki moybo'yoqda shaklni oq yoki qora ranglarda jigarrang shu'la tushib turgan joydan tashqari hamma joyda bu bo'yoqlar ostidan yengil ko'rinib turishiga erishgan holda bajariladi. Kartinadagi ifodalanayotgan tana rangi, umuman barcha och joylar shunday ishlanib, faqat to'q joylarda esa jigarrang bo'yoq qoldiriladi. Suratni rangda ishlaganda bo'yoq shakl bo'yicha yaxlit rang surtmalarida beriladi. Keyin uning ustidan yana jigarrang surkaladi va bu shakl butunlay aniqlanmaguncha shunday grizayl usulida davom etadi.

Grizaylda xomaki bo'yoq surkash asta-sekin, yumshoq bosqichlarda olib boriladi, bu yerda soyalarni ochroq, yorug' joylarni esa to'qroq olish qoidalariga rioya qilinadi. Kompozitsiyani keyinchalik kerak bo'lsa shu turlarda tugatilishini hisobga olib asl lokal rang-tusi topilishi zarur. Agar yuqorida aytib o'tilgan usulda bajarilgan yuzaga ranglarni yedirib (lessirovka) berilayotgan bo'lsa oxirgi qatlamda yorug'lik sezilarli darajada och tusda beriladi.

Kulrang gruntga xomaki bo'yoq berish

Agar och kulrang grunt ustidan ishlanayotgan bo'lsa, nafaqat buyumlarning soyalari, balki ularning to'q rangli joylari ham harir jigarrang bilan bo'yab chiqiladi. U qurigandan keyin yorug' joylar oq bo'yoq bilan yengil o'tiladi; kulrang grunt yarim soya sifatida qoldiriladi. To'q kulrang gruntli xolstda soya joylarda gruntning rangi qoldiriladi, yorug' joylar va yarim soyalar esa oq rangni u yoki bu darajada ishlatish bilan yopiladi.

Rangli gruntga xomaki bo'yoq berish

Grunt rangining haddan tashqari bo'rtib chiqishini susaytirish maqsadida rangdor to'q tusli gruntga xolis tus beradigan xomaki rang bilan yopiladi, undan keyin o'sha joyning asl rangi beriladi. Masalan: quyuq qizil gruntga yashil – kulrang tusdagi xomaki rang surkaladi va h.k...

Rangtasvir

Oppoq gruntli xolstdagi yorug' joylar va yarim soyalarga xomaki bo'yoq berib chiqiladi. Bu ranglar ishning tugallangan holatiga qaraganda sezilarli darajada ochroq turlarda beriladi. Soyalarning xususiyatiga qarab, keyingi lessirovkani hisobga olgan holda ularni ham shu turlarda ishlanadi, yoki neytral turlarda qoldiriladi, keyinroq ularni yedirma usulida ishlab chiqiladi. Jigarrang tusda tayyorlangan xolst ustidan ishlanganda esa keyingi lessirovkada ishlash bosqichini hisobga olgan holda ishlab boriladi yoki birdan kompozitsiyadagi buyumlarning rangiga yaqin ranglarda ishlab borib "alla prima" usulida tugatish ham mumkin.

To'q tusli buyumlar uchun mo'ljallangan joylar (mato ranglari va h.k...) da jigarrangni ushbu tusning yarim kuchida berib boriladi. Qurigandan keyin xuddi

shu rangning nafis, suyuq rangida yedirma usulida bajarilib, yuzadagi chuqurlikni aks ettirish mumkin. Kulrang va boshqa to‘q rangli gruntlarda yorug‘lik grizayl usulida narsaning rangiga yaqin tuslarda, oq bo‘yoqni kerakli darajada ishlatilgan holda bajariladi, yarim soyalarda gruntning asl (neytral) rangi qoldiriladi. Och kulrang va boshqa neytral gruntlarda jigarrang soyalar yoki reflekslari bilan, yoki neytral tuslarda keragiga qarab qoldirib ishlanadi.

Lessirovka

Rangtasvir yaxshi qurigandan keyin umumiy qoidalar asosida bajariladigan lessirovka usulida ishlashga o‘tiladi. Bu usulda ishlanar ekan beriladigan tusni darhol o‘z kuchida berish shart emas, chunki katta miqdorda surkalgan bo‘yoq bir tekisda yoyilmaydi. Ranglarni to‘g‘irlash asl rangdan ochroq tusda beriladi, undan keyin bu joylar suyuq bo‘yoq bilan yana bir yengil o‘tiladi. Kulrang yuzaning yengil yupqa bo‘yoqlari qurimasdan turib, shu‘laga ham ishlov berib boriladi.

U yoki bu buyuk rassomlarning ishlaridan nusxa olinar ekan, u bajargan va qo‘llagan texnikni yaxshilab tushunib olish kerak. Yana shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, qadimgi rassomlar shablon bilan ishlashdan ancha yiroq edilar. Har bir san‘at ustasi umumiy qoidalarga rioya qilgan holda, uni o‘zicha o‘zgartirib, unga o‘zining didi, qarashlarini olib kirgan.

Shuni yaxshi bilish kerakki, bo‘yoqlar vaqt o‘tgan sari yupqalashib boradi, qalin bo‘yoq surtmalarida bajarilgan rangtasvir ham ko‘pincha suyuq ishlanganday tuyuladi. Yillar o‘tishi natijasida ranglar yupqalashishi, bo‘yoq ostidagi sovuq tusli grunt rangining ko‘proq ko‘rinib qolishi hisobiga an‘anaviy iliq tus o‘rniga aksincha soyalar sovuq tus bo‘lib ko‘rinadi. Ba‘zi holatlarda qadimgi davrda yaratilgan rangtasvirning asosiy prinsiplariga zid ravishda soyalarni sovuq tus egallagan, sarg‘aygan yorug‘ joylarda esa iliq tusga kirganligi ham uchraydi. Bu mulohazalardan shunday xulosa qilish mumkinki u yoki bu qadimgi rangtasvir bilan tanishish jarayonida bu xususiyatlarni esdan chiqarmaslik zarur.

Xulosa

Bu mashg‘ulotimizda usta rassomlar ijodidagi ko‘pqatlamli rangtasvir jarayonida bo‘yoqlarning optik aralashtirilishini ko‘ramiz.

Ularning asarlarida foydalanilgan rangi gruntlar va ularning rangtasvir ishlashdagi ahamiyatini bilib oldik. Oq, kulrang va rangli gruntlarga xomaki bo‘yoq berish, rangtasvirni lessirovkada ishlash usulini o‘rganib chiqdik. Bu olgan bilimlarimiz ko‘pqatlamli rangtasvir asarlaridan nusxa ko‘chirganimizda, ularning ishlash texnikasi va texnologiyasiga rioya qilish hamda ishni to‘g‘ri ketma-ketlikda bajarishimizga yordam beradi

Mustaqil ish uchun vazifa: Tasviriy san‘at texnologiyasiga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish; Usta rassomlar ko‘pqatlamli rangtasvir asarlaridan nusxa ko‘chirish jarayonida rangi gruntlarga rangtasvirni lessirovkada ishlash usulida bo‘yoqlarning optik aralashtirilishini mashq qilish.

Nazorat savollari

1. Ko‘pqatlamli rangtasvirda rangli gruntlarning ahamiyati qanday?
2. Xomaki bo‘yoq rangli gruntlarga qanday beriladi?
3. Rangtasvirda lessirovka usulida ishlash qanday bajariladi?
4. Ranglardagi kontrastlikni qanday tushunasiz?

5. Kompozitsiyadagi o`zaro munosabat ta'rifini ayting?
6. Qaysi ranglar asosiy ranglar hisoblanadi?
7. Qalamda tez bajariladigan chizgilar qanday ataladi?
8. Rangtasvirda eskizlar nima uchun kerak?
9. Rangtasvirda shakl nimani ifodalaydi?

Rangtasvirda ishlashning har xil usullari

Temperada rangtasvir ishlash

Yelimli bo'yoqlar va tempera o'zining har xil turlari bilan XV asrgacha rassomlar uchun eng ma'qul va ommabop rangtasvir ashyosi hisoblangan. Tempera bo'yog'ida ishlashning asosiy usullari:

- 1) bo'yoq aralashmasining oldindan tayyorlab olinishi;
- 2) kartinadagi ma'lum bir yuzaga tuslarni qo'yish va tusning toza chiqishini ta'minlash maqsadida qo'yilgan bo'yoq chetini oldingi qatlam rangi bilan yedirib qo'shib yuborish. Bunday ishlash kechki flamandlar usuli sanalib, shu jumladan Rubensga ham tegishli;
- 3) Qadimdan to Jorjone va Titsian davrigacha amalda qo'llab kelingan bo'yoqni yuqa holatda surkab ishlash;
- 4) Qadimdan qat'iy prinsiplar asosida qo'llanib kelinadigan usul - rangtasvirda soyalarni harir va iliq tuslarda ishlash yoki ularga qarama - qarshi quyuc xamirsimon rang surtmalari holatda sovuq tuslarda ishlash;
- 5) Bo'yoq ichkiidagi oldin qo'yilgan bo'yoq rangi yoki grunt rangining ko'rinib turishiga erishish maqsadida ranglarni yupqa suyuq holda (harir parda ortidan ko'ringani kabi) ustma – ust qo'yish usuli.

O'rta asrlarda yashab ijod qilgan nemis rassomlarining temperada ishlangan rangtasvirlarida asosan oq grunt qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Ularning asarlarida rangtasvirdagi bo'yoq qatlami 2-4 ta qatlamdan iborat bo'lib, unda oldin qo'yilgan ranglar va gruntning keyingi rang ostidan ko'rinib, hayratlanarli darajada ranglarning optik aralashuviga erishilgan. Shunday qilib qalin xamirsimon holdagi quyuc qizil rang ustidan yuqa ko'kish bo'yoq qo'yilib undan to'q jigarrang tus hosil bo'lishiga erishilgan. Neytral – kulrang hosil qilish uchun o'sha qizil rang ustidan harir yashil rang qo'yilishi bilan erishishgan. Shaffof sariq rangni yorqin qizil rang ustidan qo'yib zarg'aldoq rang hosil qilingan. Tillarangni ifodalash uchun issiq bargrangni qalin qo'yilgan qizil (kinovar) ustiga qo'yilgan. Bundan tashqari to'q sariq ustidan qizil (kinovar) qo'yish, tillarang va uning ustidan shaffof jigarrang qo'yish bilan ham hosil qilishgan.

Rangtasvirda ishlashning aralash usuli

Temperada rangtasvir ishlashni yengillashtirish maqsadida unga moybo'yoqlar qo'shib ishlatishgan. Shunday qilib tempera moybo'yoq qo'shib ishlatiladigan o'ziga xos rangtasvir usuli paydo bo'ldi. Avvaliga moybo'yoq temperada boshlangan ishni tugatish oldidagi lessirovka qilib ishlash uchun, keyinchalik esa tempera moybo'yoq uchun faqat xomaki bo'yoq berish uchungina ishlatiladigan bo'lib qoldi.

Rangtasvirning "alla prima" usuli

Butun bo'yoq qatlami faqat bir qatlamdan iborat bo'lgani uchun texnik

jihtdan rangtasvirning bu usuli eng yaxshi usuli sanaladi. O'rtacha qalinlikdagi bu bo'yoqlar tez quriydi, gruntlangan xolstning keyinchalik yorilib ketish xavfi kam bo'ladi hamda vaqtlar o'tsada bir tekis yupqa bo'yoq qatlamining asl holatidagi sofligi saqlanishiga sabab bo'ladi. Och har xil tusdagi rangli xolstlarni ishlatish rangtasvirning bunday usuli uchun maqsadga muvofiq bo'ladi. Rangtasvirning bu usulida xolstga oldindan tasvirni chizib olish talab qilinmaydi va ko'pincha rassomning kasbiy tayyorgarligi yoki ish usuli va rangtasvirga qo'yilgan vazifaga qarab birdan rangda ishlab ketishi mumkin. Agar tasvirni chizib olish juda muhim bo'lsa, unda ham ko'mir bilan yengil qoralamasini chizib olishi mumkin. Bo'yoqlar va gruntning tozaligiga erishish uchun tasvir avval alohida qog'ozda chizib olinib, keyin xolstga ko'chiriladi. Kartinani ho'lligida bo'yoqlar qurib ulgurmasdan rangtasvirni tugatish uchun sekin quriydigan ko'knor, yong'oq va kungaboqar moyi aralastirilgan moybo'yoqlardan foydalanish mumkin. "Alla prima" usulidagi rangtasvirda ishlashda rassom naturada nimani ko'rayotgan bo'lsa (rang, shakl, yarug' soya va h.k...) bir martaning o'zida uni o'z kuchida qo'yib tugatish vazifasi qo'yiladi. Bunday rangtasvir ishlash jarayonida har bir tusni ko'rinayotgan to'qligida yengil va aniq qo'yish, ranglarni palitrada uzoq qorishtirmay yarim quyuq bo'yoqlar surtmasi holda bajarish mumkin. Ishning boshida uni tugallash bosqichiga nisbatan soyalarni ochroq va iliqroq, yorug' joylar esa aksincha to'qroq va sovuqroq tusda bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng kuchli yorug' va soyalar rangiga kompozitsiyaning eng oxirgi tugallash bosqichida ishlanadi. Rangtasvir bajarilar ekan skipidarda mo'yqalam bilan ishqalab bo'yoqlar akvarel bo'yog'i kabi suyuq holda eritilib ham ishlatishi mumkin. Kompozitsiyani bunday ishlashda ranglar bir tekis yopilib, shaklning hajmiga ishlanmasdan tasvirning keng umumiy effekt berishi asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Keyingi bosqichda rang berish rang surtmalarini quyuq xamirsimon holda qo'yib ishlanadi.

Amaliy vazifa: Ko'pqatlamli ishlash usulida rangtasvir ishlash. (Portret)

Moybo'yoqda portretni ishlash bosqichlari. Moybo'yoq bilan niderland usulida ishlovchi taniqli amerikalik portretchi rassom Scott E Bartner (1960) ishidan namuna. Scott Bartner portret ishlash bo'yicha mutaxassis darajasiga ko'tarilgan iste'dodli rassom sanaladi.


Moybo'yoqda eski niderland rassomlari usulida real portret ko'rinishlarini ishlash bu oson vazifa emas. Scott ning texnikasi bu naqta nazardan qaraganda juda ajoyib. Lekin buni niderland rassomlarining standart ishlash usuli deya olmasak ham, uning kartinalarida asosiy ishlash usullarini kuzatish mumkin. Quyida uning ishlash jarayonida tasvirga olingan rangtasvir ishlash bosqichlari namoyish etiladi. Batafsilroq tanishishni hohlasangiz uning vebsaytiga kirib uning ijodi bilan tanishishingiz mumkin. Rassom vebsayti: www.bartner.nl

Xolstni ishga tayyorlash. Har qanday rangtasvirda xolstni ishga tayyorlash rassom uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ish yakunida yuqori natijaga erishish uchun nima bo'lishidan qat'iy nazar siz albatta qanday o'lchamdagi xolst tanlash, qanday rang surtmasi yoki ranglar gammasidan foydalanishni oldindan rejalashtirib olishingizga to'g'ri keladi.

Rangtasvir bilvosita ashyolar yordamida bir necha bosqichlarda yakuniga yetkaziladi. Oddiy ranglavhadan farqli o'laroq mukammal asar - maqsadga erishish uchun gruntning ustiga ilk rang qo'yish, muhim qismlarga bo'yoqda bir necha qatlamda ishlov berishdan to eng so'ngi yakuniy rang surtmalari qo'yishgacha bo'lgan ko'p bosqichli ish jarayonini o'z ichiga oladi. Ranglavhada asosan rangli grunt yuzasidagi rangdorlik xususiyatidan ko'proq foydalaniladi. Rangtasvirda rang tayyorlash optik ranglar hosil qilish (qo'shimcha kontrastlikka erishish) bilan uyg'unlikda olib boriladi.⁶ Rangtasvirni boshlash jarayonigacha xolst ko'plab yupqa qatlamdagi gruntlar bilan yopib olingan bo'lishi zarur. Kuydirilgan umbrada yuza butunlay bir tekisda yopib olinib, yaxshilab quritiladi. Keyin har bir qatlamda kuydirilgan umbrada shaffoflikni saqlab qolgan holda yengil va yupqa qatlamdagi yuz modeli chiqarib olinadi.

Mo'yqalam bilan bo'yoqlarning xolst yuzasiga to'g'ri va o'z joyiga qo'yilishi, bo'yoqlar to'yinganligi yoki xiraligi, rangning dadil, jarangdor yoki o'ta ishonchsizlik bilan qo'yilishi, rangning jonliligi yoki ortiqcha ishlash natijasida o'ta siyqasi chiqib ketganligi rangtasvirning yakuniy yechimi uchun juda muhim sanaladi. Rangli yuzaga oq bilan ishlashga o'tish rassomga palitrada ranglar tayyorlash bilan bir vaqtning o'zida xolst yuzasida optik rang aralashmalari yordamida qo'shimcha kontrastlar hosil qilish imkoniyatini beradi. Kutilmagan bu rang effektlari ijodkordagi kashfiyotchilik hissini kuchaytiradi.⁷


Portretni bosqichma-bosqich tasvirlashni jarayoni.




⁶ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson–Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 49

⁷ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson–Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 26

1 bosqich: Avvalo portret tuzilishini qurib olamiz.




2-bosqich: chiziqlar Eski Golland Van jigarrangi bilan kuchaytirib chiqilgan.




3-bosqich: Titan va Flake oqini aralashtirib yupqa qatlamlarda yuzga rang berib boshalymiz.




4-bosqich: Peshanani eng quyuq rangda ifodalang. Shunday qilib tomoshabin e'tibori shu nuqtaga qaratiladi.





Portretdagi eng jonli qism ayolning chap ko'zi bo'lib turibdi.



Sochga rangli bo‘yoqlarni qo‘shib boshlaymiz.



Kobalt ko‘k, qizil va kuydirilgan siyenani aralashtirib ko‘ylakni bo‘yab chiqamiz. Endi bu rang qatlamini butunlay quriguncha qo‘yib bering.



Portretning yakuniy bosqichi





**Amaliy vazifa: Ko‘pqatlamli ishlash usulida rangtasvir ishlash.
(Yalang‘och gavda)**

Dastlabki xomaki tasvirini ishlash

Tasvirni boshlashning ilk bosqichi gruntning rangi, uning tarkibi va rangdagi xomaki rang berish usuliga qarab turli grafik ashyolarda (qalam, ko‘mir, sangina va h.k...) bajarilishi mumkin. Ilk qalamtasvirni alohida qog‘ozda bajarib, yelimli yoki emulsiyali gruntga akvarel, tempera yoki moyli gruntga tez quriydigan suyuq eriltirilgan moybo‘yoqda xolstga ko‘chirib olish tavsiya etiladi. Ishga bunday yondashish xolstdagi grunt rangi tozaligiga erishish, bundan tashqari qalam, ko‘mir va h.k...da chizish, o‘chirish, to‘g‘irlash ishlarini bajarganda mato yuzasini qirilishidan asraydi.

Dastlabki xomaki bo‘yoq berish

Kartinaga dastlabki xomaki bo‘yoq berish bundan keyin uning ustidan qo‘yiladigan keyingi bosqichdagi qo‘yiladigan ranglar uchun dastlabki poydevor vazifasini o‘taydi. Xomaki bo‘yoqni har xil bo‘yoqlarda berish mumkin. Agar akvarelda bajarilsa, grunt emulsiyali bo‘lishi kerak. Shuningdek akvarel faqat kichik hajmdagi



asarlardagina qo‘llaniladi, bundan tashqari ustidan lak surkalgan akvarel bo‘yog‘i tusi, moybo‘yoq tusidan juda farq qiladi. Shuning uchun akvarelda bajarilgan xomaki bo‘yoq ustidan butunlay moybo‘yoq bilan yopib chiqilishiga to‘g‘ri keladi. Temperada bajarilgan xomaki bo‘yoq ustidan lak surkalgandan keyin moybo‘yoqqa nisbatan yorqinroq va jozibaliroq bo‘lib ko‘rinadi. Rangtasvir ishlayotganda buni albatta hisobga olib qo‘yish kerak. Temperada bajariladigan xomaki bo‘yoq suyuq va albatta yuqa holda surkalishi lozim. Moybo‘yoqda



ishlashdan oldin xolst yuzasini 4 foizli jelatin eritmasi bilan, keyin rangsiz lok bilan yopib chiqish kerak bo‘ladi. Bir necha kun o‘tib, lok qurigandan keyin moybo‘yoqda ishlashni boshlash mumkin. Moybo‘yoqda dastlabki xomaki bo‘yoq berish yelimli yoki yarim yelimli gruntlarda bajariladi. Gruntning rangi har xil: oq,

kulrang, shuningdek har xil och to‘qlikdagi rangli gruntlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Efir moyi, skipidar, neft va h.k... lar bilan suyultirilgan moybo‘yoqning xolstga ishqalab surkalishi rangtasvirda dastlabki xomaki bo‘yoq berishning ko‘p va unumli qo‘llaniladigan usuli hisoblanadi. Bo‘yoqning yupqa qatlami bilan kartinadagi shakl, umumiy kompozitsiyaning koloriti aniqlab olinadi. Agar bo‘yoq tez quriyidigan bo‘yoqlar turkumiga mansub bo‘lsa, bu usulda ishlash tezlikni talab qiladi.

Dastlabki xomaki bo‘yoq berishda mashhur rassomlar kompozitsiyadagi shakl, alohida bo‘laklarni joylashtirish, qurishga butun e‘tiborini qaratib, uni rangtasvirning dastlabki qoralama varianti deb hisoblashgan. Koloritga kelsak, xomaki bo‘yoq berish uning uchun kerakli asos bo‘lib xizmat qiladi va unga tayangan holda ish oxirida kartinadagi o‘zaro uyg‘unlik yaratiladi. Rangtasvirdagi xomaki bo‘yoq berish jarayoni mumkin qadar kompozitsiyaning tugallanish bosqichini ko‘zdan qochirmagan holda olib borilishi kerakligini talab qiladi. Ko‘pqatlamli rangtasvir ishlash uchun qadimdagi mashhur rassomlar yuqori darajada egallagan optikaning oddiy qonunlarini yaxshi bilish juda muhim.

Masalan: to‘q rangli gruntlarga iliq tusli ranglarni berish grunt yuzasi ustidagi bo‘yoq tusining iliqlashishiga sabab bo‘ladi; sovuq tusning ustiga iliq ranglarni va aksincha iliq tuslar ustiga sovuq ranglarni qo‘yilsa iliq ranglar iliqligi, sovuq ranglar sovuqligi jihatidan kuchsizlanib borishini ko‘ramiz.

Birinchi qatlam qurib bo‘lgandan keyingina bo‘yoqning ikkinchi qatlamini berishga o‘tiladi. Xomaki bo‘yoq temperada berilganda u boshqa bo‘yoqlardagiga qaraganda tezroq tayyor bo‘ladi.

Agar kerak bo‘lganda qaytadan xomaki bo‘yoq berilgan yuza yaxshilab tozalanib, maxsus kurakcha yoki jilvirtoshlar bilan silliqlanadi. Bu jarayondan



keyin xomaki bo‘yoq surkalgan xolst nam doka bilan tozalanib, keyin yaxshilab quritiladi. Tekislab, tozalangan, silliqlangan yuzada avvalgi qatlamdagi qurigan moybo‘yoq qatlami bundan keyin surkaladigan bo‘yoqlarni o‘ziga singdirishi uchun oq bo‘yoq qo‘shilgan moy bilan artib chiqiladi. Moy o‘rniga skipidar

bilan aralashtirilgan suyuq va iliq holdagi venetsiya terpentini (balzam) yoki lakning skipidarda eritilgan suyuq aralashmasi bilan ham yopib chiqilishi mumkin. Rangtasvirda bo‘yoqlarni suyultirish ham tarkibida efir moylari mavjud bo‘lgan loklar yordamida bajariladi. Rangtasvirda ishlashning keyingi ikkinchi bosqichida rang berish lessirovka usulida bajariladi yoki bo‘yoqlar yupqa qatlamda qo‘yiladi. Bu yerda bo‘yoqlarni surkashning qadimiy prinsiplariga rioya qilinib, rangtasvir uchun lok yoki quyultirilgan moylar ishlatiladi.

Rang surtmalarini qo‘yish va yedirib ishlash (lessirovka)

Kompozitsiyadagi moybo‘yoq va boshqa bo‘yoqlarda eng oxirgi to‘q va yorqin rang-tusni hosil qilish jarayoni uchun yupqa, suyuq va yarim suyuq qatlamning yedirma usulida surkalishi lessirovka deb ataladi. Suyuq va yupqa

yedirib surkalgan ranglar tasvirning mayda shakl bo'laklari va soya yorug'iga ta'sir ko'rsatmay faqat pastki qatlamidagi rangning nafis, yorqin ko'rinish hosil qilishiga olib keladi. Yarim quyuq yedirib ishlashda esa tiniqlik darajasiga qarab shakl mayda bo'laklariga sezilarli ta'sir qilishi mumkin. Ranglarni yedirib ishlashning har xil usuldagi rangtasvir kompozitsiyalarda qo'llash mumkin, lekin bu asosan maxsus xomaki bo'yoq berib tayyorlangan gruntlarda yaxshi natija beradi. Bu holda xomaki bo'yoq berish usuli tasvirning tugallangan holatiga mo'ljallanib nisbatan yorug'roq yoki sovuqroq bo'lishi mumkin va keyingi yedirib ishlangan rang qatlami ostki qatlamdagi och va sovuq ranglarni kuchliroq tuslar ko'rinishiga olib keladi.

Ranglarni yedirib ishlash usulida quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak bo'ladi:

- bo'yoqni suyultirish uchun tabiiy yoki quyultirilgan holdagi moylar, moyli loklar ishlatiladi;

- bir xildagi rangning o'zi yoki boshqa ranglar bilan aralashtirilgan holda yedirib ishlanishi mumkin;

- yorqinroq va kuchliroq tus hosil qilish va yorqin bo'yoqlarni so'ndirish maqsadida ham bo'yoqni yedirib ishlash usulini qo'llash mumkin;

- tus bo'yicha yedirib ishlangan rang qancha suyuq bo'lsa shuncha och ko'rinishda bo'ladi,

buning ustiga gruntovka ham och bo'lishi kerak. Mana shu yuzada esa to'q tus hosil qilish uchun to'q va quyuq bo'yoqlarda yedirib ishlanadi;

- rassom oldiga qo'ygan maqsadiga qarab ranglarni yedirib ishlash bir marta va ko'p martalab ustma-ust surkalishi mumkin;

- suyuq bo'yoqda yedirib ishlanganda bo'yoqni bir tekisda



surkash mo'yqalam, ipak mato parchasi, qo'l kafti va h.k.lar bilan surkash orqali bajariladi. - quyuq tayyorlangan bo'yoqni esa keng va yumshoq mo'yqalam (fleys) bilan surkash orqali maqsadga erishish mumkin;

- yedirib ishlangan bo'yoqlarni yaxshilab quritish lozim;

- bo'yoqni keragidan ko'p yedirib ishlanganda rangtasvir qorayib ketadi;

- buzib qo'yilgan bo'yoq qatlamini yumshoq non mag'zi va paxta yordamida tozalash mumkin;

- ranglar yedirib ishlanganda oldindan silliqalanib tayyorlangan xomaki bo'yoq berilgan gruntovka ustiga yaxshi yopishadi.

Bo'yoqlarda yedirib ishlangan rangtasvir optika qonunlariga asosan g'ayrioddiy to'yinganlik va jarangdorlik bilan bo'yoqlarga o'ziga xos chiroy baxsh etadi. Yedirib ishlangan bo'yoqlar tarkibiy tuzilishi tufayli yorug'likni so'ndirish xususiyatiga ega. Shuning uchun nurni so'ndirishdan ko'ra ko'proq qaytaruvchi bo'lgan alla prima texnikasida ishlangan kartinalarga yoritish uchun nisbatan kuchliroq yorug'lik berilishi talab etiladi. Jilosiz, yaltiramaydigan bo'yoqlarda erishish mumkin bo'lgan fazoviylikni yedirma usulida ishlangan rangtasvirda bera olish qiyin. Bu usulda berilgan rang turlari oldinga chiqib ketadi, shuning uchun osmon ko'rinishlarini bo'yoqlarda yedirib ishlanmaydi. Shuningdek yarim yedirib ishlash usulini yarim quyuk qatlamda ham qo'llasa bo'ladi.

- optik asosdagi och yarim suyuq bo'yoq turlari to'q yuzaga surkalganda sovuq tusning rangdagi nozik farqlarini beradi;

- shu tusdagi oq yuzaga berilganda iliq rangdagi nozik farqlanadigan turlarni beradi; Masalan: buyuk rassomlar inson tanasi rangtasvirini ishlashda jigarrang to'q gruntga yarim suyuq och bo'yoqlar berish bilan kulrang turlarni hosil qilishgan.

Ko'p qatlamli rang qo'yish usulini qo'llab rangtasvir asari ustida ishlashni davom ettirish. Tugallanish bosqichida asardagi mayda bo'laklarga ishlov berilib, surat shakli aniqlanadi. Shu bilan birgalikda shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, rangtasvirda ramziylik, hissiyot va ruhiyatga ko'proq urg'u berilib, asarda rassom o'zining noyob fikri, shaxsiy dunyoqarashi va o'zligini namoyon qila olishi muhim ahamiyatga ega⁸. Suratdagi kamchilik ma'ruza qismida ko'rib o'tilgan qoidalar asosida tuzatilib chiqiladi. Tugallanish bosqichidagi umumlashtirish ishlari bajariladi.

Rangtasvir ishlash uchun materiallar

Tubalar va bankalarda kukun kuchi va sifati ar xil darajada bo'lgan keng ko'lamdagi moybo'yoq turlari mavjud. Moybo'yoqning eng sifatlisi bu professional rassomlar uchun chiqarilgan bo'yoqlar sanaladi. Bu bo'yoqlar talabalar uchun chiqariladigan bo'yoqlarga nisbatan mustahkam va yorqin kukunlardan tayyorlanadi, shuning uchun ulardagi yopuvchanlik xususiyatlari va yaltirashi kuchli, shu bilan birgalikda uzoq muddat o'z ranglarini o'zgartirmaydigan xususiyatga ega. Rassomlar uchun bo'yoq xarid qilar ekansiz, ulardan keraklisini tanlang.

Tavsiya qilinadigan bo'yoqlar:

Quyida berilgan ranglar standart bo'yoqlar turiga kiradi. Limon sarig'i, kadmiy to'q qizil, sarg'ish yashil, Berlin lazuri, alizarin, sariq, qora fil suyagi, titan oqi, ultramarin, tabiiy umbra, kuydirilgan siyena, tabiiy siyena, oxra, viridian yashili. Bu bo'yoqlarni xarid qilar ekansiz, rangtasvirda ishlash uchun yetarli bo'lib, mavjud bo'yoqlardan ikki yoki undan ortiq ranglarni aralashtirish yo'li bilan hohlagan ranglarni tayyorlab olishingiz mumkin. Eng ko'p ishlatiladigan bo'yoqlarni, masalan oq titan bo'yog'ini katta tubada sotib olish bilan o'z mablag'ingizni tejashingiz mumkin.

⁸ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 41

Rassomlar uchun moybo‘yoqlarning qurishi qo‘yilgan bo‘yoq surtmasi yupqa yoki qalinligiga qarab bir necha kundan bir necha haftalargacha cho‘zilishi mumkin. Tarkibida alkid bo‘lgan bo‘yoqlar an’anaviy moybo‘yoqlarga nisbatan uzoq vaqtda quriydi, shuning uchun plenerda ishlash uchun juda qulay hisoblanadi. Tarkibida suv bilan aralashadigan moy bo‘lgan moybo‘yoqlar qurishi uchun ozroq vaqt ketadi.

Xulosa

Bu mashg‘ulotimizda fon va buyumlar rangiga qarab rang reflekslarini izlash va tasvirlash, umumiy rang muhitini ba juda murakkab vazifa hisoblangan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan bir necha kontrast ranglarni o‘zaro uyg‘unlikda ifodalashni bilib oldik.

Bu vazifalar orqali sizda rang va uning tuslarini idrok qilish qobiliyatlari, bir guruhdagi ranglar qatoridan ularning bir-biridan farqini (iliq va sovuq) topish ko‘nikmalari paydo bo‘ldi.

Turli natura obektlari yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog‘lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlash, natura obektini yaxlit ko‘rish va katta asosiy ranglar dog‘ini aniqlashni o‘rganib oldingiz. Bu vazifamizni keyingi mashg‘ulotlardagi uzoq muddatli (vaqt bo‘yicha) buyumlarning hajmli shakllarini puxta ishlov berib ishlashga doir vazifalarga o‘tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo‘ldi desak adashmaymiz.

Mustaqil ish uchun vazifa: Mustaqil uy–ro‘zg‘or buyumlarinidan tashkil topgan sodda natyurmortni tuzish va akvarelda turli texnologiyalarda tasvirlashni o‘rganishga oid mashqlar bajarish;

Nazorat savollari


1. Bir urinishda ishlab tugatiladigan rangtasvir usuli nima?
2. Soya-yorug‘lar ko‘lamini ayting?
3. Xromatik ranglarga qanday ranglar kiradi?
4. Rang kontrastlari deb nimaga aytiladi?
5. Rangtasvirda palitra nima uchun kerak?
6. Axromatik ranglar qanday ranglar?
7. Xromatik ranglarga qanday ranglar kiradi?
8. Qanday ranglar hosila ranglar deb ataladi?
9. Buyum tekisligi deb nimaga aytiladi?

II.1. SHARQ MINATYURA RANGTASVIRI

O'рта asrlarda eron va o'рта osiyo hududida rangtasvirning rivojlanishi

Zamonaviy oliy ta'limda shaxsni shakllantirishda ulkan ma'naviy ozuqa va badiiy tarbiya berishda tasviriy san'atning ahamiyati katta. Go'zallikni his qilish, yuqori estetik didni shakllantirish, milliy san'at asarlarini, tarixiy obidalar, jonajon tabiatimizning go'zalligi va boyligini tushunish va uning qiymatini baholay olishni ilk bolaligidan tarbiyalab

borish kerak. Madaniy me'roslar vositasida tarbiyalashda milliy madaniyatimizga tegishli eng yaxshi san'at asarlarini o'rganishga tayanish lozim. Xalq milliy an'analari asosida yaratilgan minatyura



asarlari biz uchun ma'naviy, ruhiy, tarbiyaviy maktab vazifasini o'taydi. Uning ma'naviy, estetik mazmuni

badiiy ijodiy tarbiyaga ijobiy ta'sir qiladi. Biz quyida O'рта Osiyo va Eron hududida minatyura rangtasviri san'atining rivojlanishini ko'rib chiqamiz.

O'рта Osiyo va Eron hududida X asr oxirida Firdavsiy tomonidan "Shohnoma" poemasi, XII asrda Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa", XIII asrda Sa'diyning "Bo'ston" va "Guliston" asarlarining yaratilishi, XIV asrda Amir Xusrav Dehlaviy, Hofizning ko'plab doston va g'azallar minatyurachi

musavvirlarni ilhomlantirib, bu hududlarda minatyura rangtasvirining yuksalishiga xizmat qildi. XVII asrda avvalgi shoirlar yozib ketgan xilma-xil shakl va usullarni qamrab olgan o'ziga xos usulida yozilgan ajoyib poemalari dunyoga kela boshladi. Ularning ulkan adabiy asarlari Eron va O'рта Osiyoda ko'plab minatyura maktablari shakllandi va gurkirab o'sdi. Bu maktablarning eng ko'zga ko'ringanlari Sheroz, Tabriz, Isfaxon va Hirotda joylashgan edi. XIII - XIV asrlarda Forsning poytaxti Sheroz madaniy hayotida ulkan yuksalishlar ro'y berdi. Bu shoir Sa'diy, Kermani va Hofiz Sheroziyilar davri edi. Poeziya bilan bir qatorda minatyura san'ati ham gullab yashnadi. Bu davrdagi minatyurachi musavvirlarning eng ulkan yutug'i "Shohnoma" poemasi chizilgan illyustratsiyalar edi. Sherozda



bu ish bilan ko'plab musavvirlar guruhi shug'ullanar edi. XIV asrdagi Sheroz minatyura maktabi kompozitsiyalardagi simmetriyalik, devoriy naqshlar bilan uyg'unlik, suratlarning qo'polligi, kompozitsiyadagi odamlar qomatining juda katta qilib tasvirlanishi, tillarang, qizil va sariq tuslarning ko'pligi bilan ajralib turardi. Suratlar matnlar atrofiga ramka ko'rinishida chizilardi.

Sheroz maktabi Eron va O'rta Osiyo minatyura san'atiga ham o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi. Nizomiyning "Xamsa" asariga ishlangan minatyuralar Sheroz maktabining eng cho'qqisiga chiqqanligiga misol bo'la oladi. Umumiy kompozitsiya va undagi mayda bo'laklar tasviridagi aniqlik, ishonchli chiziqlar va tugallanganlik hamda g'oyaviy uyg'unlikka e'tibor berilardi.

XIII asr oxirida Rashididdin Tabrizda manuskriptlarni bezash va yozish uchun musavvirlar va hattotlarni to'playdi. Shu davrdan Tabriz minatyura maktabi paydo bo'ldi. Ilk Tabriz maktabi Sheroz minatyura maktabidan ancha farq qilardi.

Tabriz armanlar ko'p istiqomat qiladigan qismida joylashganligi uchun unda sharq uslubi vizantiya-arman rantasvir usuli bilan qorishib ketgan edi. XIV asr 30-40 yillarida "Shohnoma" asari mavzularida (ayniqsa dramatik sahnalar) ajoyib minatyura asarlari paydo bo'ldi. XV asrda Amir Temur tomonidan Bog'dod va Tabriz shaharlari istilo qilinganidan so'ng ko'plab ustalarning ko'chib kelishi natijasida Tabriz va Sheroz minatyura rangtasvir ishlash usullari bir-biriga yaqinlashdi.

Ko'plab ustalar Movorounnahri poytaxti Samarqandga yoki Sheroz hokimi Amir Temurning nevarasi Sulton Iskandar saroyiga ko'chib kelishdi.

Yangi joylarda musavvirlar bir tomondan bu joylarda avvaldan mavjud bo'lgan usullarda ishlab, g'olib tomonning didiga moslashishga harakat qilishsa, ikkinchi tomondan o'z Vatanlarida o'rgangan usullarni qo'llashga majbur edilar.

XVI asrda Eron va O'rta Osiyoning barcha hududida poeziya juda ham ommalashib ketdi va minatyura san'atini yangi mavzular bilan boyitdi. Bu esa rangtasvir maktablari gullab-yashnashining boshlanishi edi. Cheklangan qog'oz yuzasida oldida hovlisi bilan saroy, ichki bog' va interyer bo'lagi ko'rinishlari kabi murakkab sahnalar va manzaraning ustalik bilan tasvirlanishi Tabriz minatyura maktabi rivojlanishining eng yuqori cho'qqisiga chiqqanligidan dalolat beradi.



Sulton Muhammad maktabi vakili,
noma'lum rassom. "Chavgon o'yini", 1524 y.

Musavvirlar me'moriy inshootlar, manzaralarni sinchkovlik bilan tafsilotlarigasa tasvirlar edilar. Inson qomatlari endi faqat turg'un holatda emas, harakatlar bilan boyigan nisbatan tabiiyroq ishlana boshlandi. XVIII asr birinchi yarmida Safoviylar sulolasi hokimiyatga kelishi bilan Tabriz maktabida juda katta yuksalish kuzatiladi.

Musavvirlar mahalliy an'analarga tayanib, Yaqin O'rta Sharq maktablari musavvirlari yig'ilgan tajribalar asosida minatyura rangtasvirini yangi usullar bilan boyitdi. 1522 yil Sulton Muhammad, Mirza Ali, Og'a Mirak, Mir Said Ali, Sodiqbek Afshar va boshqa usta musavvirlar faoliyat ko'rsatayotgan saroy kutubxonasiga boshliq etib tayinlandi. Tabriz maktabi musavvirlarining asrlarida rangtasvir va dekorativ san'atning uzviy bog'langanligini kuzatish mumkin. Manzara faqat shartli fon vazifasini emas, balki kompozitsiyaning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Obrazlarning haqqoniyligi va janrdagi tafsilotlarga qiziqish ortdi, maromidagi topilgan ranglar uyg'unligi bilan avvalgi ishlardan farq qilar edi. Tabriz maktabidagi kitob minatyurlari bilan birgalikda alohida qog'ozlarda kompozitsiyalar (ayniqsa, taniqli yosh bolalar tasvirlarini) chizish ham udumga kira boshladi. Safoviylar hokimiyati poytaxtining Kazvinga keyin Isfaxonga ko'chirilishi sababli Tabriz minatyura maktabi ijodkorlari ishlarida pasayish boshlandi.

XV asrning birinchi yarmida Temuriylar davlati poytaxti Hirotida yangi minatyura maktabi paydo bo'ldi, unga Tabriz va Sherozdan yetuk musavvirlar jalb etildi. Amir Temur Hirot istilo qilganidan so'ng 1410 yillarda saroy qoshida kitob qo'lyozmalari ustaxonasi tashkil etilishi bilan bu badiiy maktabning boshlanish davri, 1507 yil Shayboniyxon tomonidan Hirotning istilo qilinishi bilan uning tugallanish davri belgilanadi. Hirotidagi shahar va feodal madaniy hayotining rivojlanishi minatyura san'atining yuksalishiga yaxshi shart-sharoitlar yaratdi. Mahobatli rangtasvir va amaliy san'at bilan uslubiy jihatdan bir xil bo'lgan kitob illyustratsiyasi qo'lyozmani bezashda katta ahamiyat kasb etadi. Hirot minatyura maktabining ilk davrlaridayoq ishlashdagi musavvirning yuksak mahorati, inson qomatini tasvirlashdagi ishonchlilik va kompozitsiyaning murakkabligi bilan ajralib turar edi.



Kamoliddin Behzod Madrasada olimlar suhbatini, Sa'diyning "Bo'ston" asariga chizilgan surat



Ризо Аббосий. Португалиялик йигит портрети

asrlarda shoh Abbas I davrida shakllandi. Bu maktab uchun xarakterli mo'yqalam bilan och tusli tasvirlar ishlashning rivojlanishida dastgohli minatyuraning (alohida qog'ozlarda) paydo bo'lishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda kitob illyustratsiyalari bilan birga alohida qog'ozlarga ishlanib al'bom holatiga keltirilgan portret va janrli kompozitsiyalar paydo bo'la boshladi. Isfaxon minatyura maktabi avvalgi barcha Eron maktabi vakillari uchun xarakterli bo'lgan rangdorlik va tekisliklarga e'tibor berish sezilarli darajada o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Yengil tusalarda mo'yqalamda erkin bajariladigan, shakllarga hajmdorlik va harakatlarga hayotiylik baxsh etadigan mahorat bilan ishlanadigan suratlar asosiy ahamiyatga ega bo'la boshladi.

Shu bilan birga Isfaxon minatyura maktabida

Hirot musavvirlari asosan odamlar tasviriga katta e'tibor berib, ularni o'rab turgan sahnaga kompozitsiyani to'ldiruvchi oddiy bezak sifatida qarashgan. Yorqin ranglar va nozik chiziqalarda bahorda bog'dagi gullayotgan daraxtlar, ariqlar bo'ylab yangi chiqqan ko'katlar va maysalar tasvirlangan manzara, islimi va geometrik naqshlar bilan bezatilgan me'morlik obidalari – bu hammasi kompozitsiyadagi asosiy hodisalarga dekorativ fon xizmatini o'taydi.

Hirot minatyura maktabining eng mashhur vakillaridan biri Kamoliddin Bexzodning ijodiy asarlarining ko'pchiligi Jomiy va Navoiy she'riyati ta'sirida yaratildi. Bexzod minatyuralarida aynan insonning kundalik turmush tarziga ko'proq e'tibor beradi. Uning asarlari natijasida Hirotida minatyura san'ati haqiqiy gullab-yashnadi. Behzodning ustozlari Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Xo'ja Muhammad Naqqosh va Shoh Muzaffarlar Hirot maktabi vakillari edilar.

Isfaxon minatyura maktabi XVI-XVII



Ризо Аббосий. Чўкка тушиб ўтирган йигит.

fon va kiyimlardagi naqshlarni ishlashda tillarang tuslarning keng qo‘llanilishi, mayda bo‘laklarga nozik ishlash kabi an’anaviy belgilar saqlanib qoldi.

“CHO‘kka tushib o‘tirgan yigit” asari XVII asr Isfaxon minatyura maktabi usuliga yorqin misol bo‘la oladi. Isfaxon minatyura maktabining shakllanishida mashhur musavvir Rizo Abbosiyning xizmati katta bo‘ldi.

Rizo Abbosiy fors minatyura san‘atiga yangi mavzularni olib kirdi. Minatyura asarlarida yarim yalang‘och ayollar, nozik bolalar, sevishganlar mavzulari “Shohnoma”, va “Hamsa” poemalari mavzulari bilan almasha boshladi. XVII asrda Rizo Abbosiy asarlari boshqa musavvirlar ijodiy o‘sislari uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ko‘pchilik musavvirlar o‘z usullarini topish uchun bu davrda Rizo Abbosiyning asarlaridan nusxa ko‘chirib uning usulini o‘rganishar edi.

XVII asr ikkinchi yarmida Muhammad Qosim, Afzal al Husayn, Muhammad Yusuf, Muhammad Ali Muin Musavvir ishlarida minatyuradagi figuralar kattaroq, manzaralar nisbatan haqqoniyroq tasvirlana boshladi.

Bu davrda tadbirkor savdogarlar va chet el elchilari Eronga Yevropa san‘at asarlarini olib kira boshladilar. Fors musavvirlari uchun bu chizishning yangi texnikalarini olib keldi. An’anaviy rangtasvir yevropa tasviriy san‘at usullari bilan qo‘shilib bordi. 1670 yillarda yevropa rangtasvir usuli ta’sirida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishda Muhammad Zamon, Aliquli-bek, Jabadar va boshqa musavvirlar ijod qilishdi. Ular o‘z asarlarida xristian mifologiyasi mavzulari va inson yuzi va kiyimlarni yorug‘-soyalar bilan ishlash, manzara ko‘rinishlarida chiziqli va fazoviy perspektivalardan foydalana boshladilar. XVIII asrga kelib “yevropalashgan” usul ommalashib ketdi.



Kamoliddin Bexzod "Machit qurilishi"

Minatyura rangtasvirida ishlash texnikasi

Minatyurachi rassomning asardagi kompozitsiya ishlash bosqichlari, usuli, ifodalash vositasi, uning uzviyligini belgilashda, asarning bajarilish izchilligini yana bir bor aniqlash kerak bo‘ladi. Ta’kidlab o‘tilgandek izchillik tizimi ijodning boshlanishi va an‘analari, qonunlari va asl nusxaligining o‘zaro bog‘liqligini aniqlaydi. Shunday qilib muallifga tegishli asl nusxa an‘anasiga muvofiq yangilik an‘analardan tashqariga chiqib ketmasligi kerak. Me’ros qilib olingan an‘analarga muvofiq rassom kompozitsiyani rivojlantiradi va takomillashtiradi.



Kamoliddin Behzod Yusufga tajovuz qilinishi

boshlanishida Hirot va Tabriz minatyura maktablari boshlig‘i. Behzod o‘z davrining mashhur minatyurachi musavviri. Uni “Sharq Rafaeli” deb ham atashadi, u so‘fiylik g‘oyasi va rang ramzlarini berish uchun o‘ziga xos geometrik usulda tasvirlash metodini yaratdi. Uning ta’siri natijasida 15 asr oxiri Xurosonda va XVI-XVII asrlarda Movorounnahrda so‘fiylikka asoslangan rangtasvir minatyuralari paydo bo‘ldi. “So‘fiylik” tasavvuf dunyosini bilishni, aniq kundalik hayotni, insonning dunyo va koinot, zamon va makon, lahza va abadiyat, hodisa va mohiyat haqidagi tushunchalari bilan bog‘liq qarashlarni o‘zida aks ettiradi.⁹

Kompozitsiya yaratishda uning asl nusxaligi va yangilik maydoni xuddi o‘sha - o‘tmishda ishlab chiqilgan kompozitsiya tizimini rivojlantirish va murakkablashtirishdan iborat.

O‘rta asrlar minatyura rangtasviri uchun sevishtanlarning qasrda yoki qasr yonida, tabiat qo‘ynida uchrashuvi, shohning qabulxonada yoki tabiat qo‘ynida viqor bilan saroy ayonlari qurshovida elchilarni qabul qilishi, jang sahnalari, qasrlarning qamal qilinishi, ov sahnalari kabilar kompozitsiya tizimi uchun xarakterli hisoblanardi.

Minatyura rangtasvirida kompozitsiya masalalari qanday qonunlarga asosan hal qilinishiga Kamoliddin Behzodning ijodi yaqqol misol bo‘lib xizmat qiladi.

Kamoliddin Behzod (1455-1536) - Temuriylar davri oxiri Safoviylar davri



Kamoliddin Behzod Shoh Doro va cho‘pon, Sa‘diyning “Bo‘ston” iga chizilgan surat

⁹ Булатов С.С. Соипова М.С. Мансуров У.Н. Рамзлар: бет.



17 аср аср бошлари. Номаълум rassom. "Дарвиш"

Behzod erta yetim qolib Hirotidagi badiiy qo'lyozma kitoblar tayyorlash saroy ustaxonasi boshlig'i, taniqli musavvir Mirak Naqqosh tomonidan asrab olinadi. Boshqa manbaalarda uning ustozini Said Ahmad Tabriziy deb yoziladi. Temuriylar sulolasi inqirozga uchragandan keyin 1510 yilda Tabrizga Safoviylar shohi Ismoil I tomonidan chaqirib olindi. Shohning badiiy ustaxonalari boshlig'i, 1522 yildan saroy musavviri lavozimida ishlab safoviylar davri rangtasvir san'ati rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Yaqin Sharqdagi eng mashhur minatyurachi-rassom. Bir qancha shohlar saroylarida xizmat qilgan. Ilk ijodiy faoliyati asosan Hirotida boshlab, bu davr uning uchun nisbatan samarali kechdi. Buyuk o'zbek shoiri A. Navoiy yordamida u Sulton Husayn Boyqaro saroyiga ishga joylashadi. Bir qancha vaqt Shayboniyxon, shoh Ismoil I va keyin Taxmasib I saroyida xizmat qildi. Behzod o'z san'ati bilan XV asr Hirot maktabi minatyura rangtasvirini yuksak cho'qqilarga olib chiqdi. Bu XVI asr boshida Buxoro va Tabriz minatyura

san'atiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Behzod ijodi manzarani aniq tasvirlash, inson va hayvonlar gavda harakatlarining haqqoniy va jonli ifodalanishi bilan ajralib turardi.

Kompozitsiya tuzishda u ham o'tmishdoshlari tomonidan me'ros bo'lib qolgan an'anaviy tizimdan foydalanib o'ziga xos asarlar yaratdi. Bu asarlar "o'zining tugallanganligi, kompozitsiyaning mukammalligi, qahramonlarning jonli tasvirlanishi, asardagi g'oyaviy fikrning kengligi" bilan ajralib turardi.

Tasvirlanayotgan mavzularni kengaytirgan holda Behzod o'zgacha ajralib turadigan kompozitsiyalarida borliqning fazoviy kenglikni mohirona ifodalash bilan birga ko'plab yangi qahramonlar obrazlari, me'moriy inshootlar bo'laklarini olib kirdi. Shakllarni aylana, oval holda joylashtirib, gavda holati va ma'nodor hatti-harakatlar yordamida kompozitsiyadagi ichki harakatni kuchaytiradi. Behzod kompozitsiyalari o'ziga xos bo'lib, undagi personajlarni shunday joylashtiradiki, natijada kartinada fazoviy illyuziya paydo bo'ladi. Kenglik hissini tug'dirish uchun kishilarning hatti-harakatlari, holatlari ham juda katta ahamiyatga ega. Behzod ijodidagi kompozitsiyalarda kenglik va borliqni ifodalash uchun me'moriy inshootlaridagi peshtoqlar, minbarlar, yon devorlari, ko'priklar, ayvonlar, shiyponchalar kabi kompozitsiyaning boshqa unsurlari ham mohirona foydalanilgan.



Noma'lum rassom. "Qushlar majlisi", Attorning shu nomli poemasiga chizilgan surat.

Bexzod minatyura rangtasvir kompozitsiyalari tugallanganligi, mukammalligi va ranglar uyg'unligi bilan o'z yechimini topganligini ko'ramiz. Bu o'rinda avvalo me'moriy bezaklarning ranglarga boyligini aytib o'tish mumkin. Bexzod o'ziga xos bo'yoqlar yordamida ranglarning har xilligi, turli-tuman juziy o'zgarishlari, ko'zni olar darajadagi tilla ranglarning ko'p ishlatilishi bilan ranglar uyg'unligiga erishgan. Tomashabinning diqqatini jalb etish uchun asardagi asosiy qahramonlarni bo'rttirib ko'rsatib, atrofidagi bir tekis rangli siluettlarni butun kompozitsiya bo'ylab joylashtirib, asarning tugallanganligiga erishardi.

Shunday qilib Bexzod ijodi o'tmishdagi rassomlar ishlab chiqqan minatyura tipajlaridan foydalanilgan shu bilan birga kompozitsiyadagi har bir

bo'laklarning o'zaro nisbatlarini yuksak darajada aniqliklar kiritdi. K. Bexzodning beqiyos iste'dod egasi ekanligini tasdiqlaydigan, kompozitsiyadagi personajlarning muvaffaqiyatli bajarilgan holati va harkatlarining katta aniqlik bilan tasvirlanishi, minayura san'atiga yangi mavzular olib kirishi minatyura janridagi yana bir yangiligi bo'ldi. Rangtasvirga u o'zining yangi mavzularini olib kirdi. Uning minatyuralari murakkab lekin ularda o'ta tushunarli, rangdorlik juda kuchli lekin aniqligi bilan farq qiladi. O'rta asr minatyurasining shartlilik belgilarini saqlagan holda odamlar va manzara ko'rinishlarini o'z kuzatishlari asosida jonli, obrazli qilib tasvirlaydi. Uning asarlaridagi odamlar turg'un holatda emas, u tabiiy va aniq harakat va holatlarni bera olgan. Bu Sharq minatyurasi uchun katta yangilik edi.

Zamondoshlari tomonidan yuqori baholangan uning ishlari nafis, jozibali chiziqlari, rangga boyligi, odamlarning jonli harakat va holatlari bilan ajralib turadi. Tafsilotlarigacha aniq tasvirlangan ko'plab personajlar ishtirokidagi kompozitsiyalarini tez tez yonma yon ikki varaqda tasvirlanganligini kuzatish mumkin. Sa'diyning "Bo'ston" asariga ishlangan "Yusufning " (1488), Nizomiyning "Layli va Majnun" (1494-95), "Yetti go'zal" asarlariga ishlagan minatyuralari,, Sulton Husayn va Shayboniyxon portretlari Behzodning eng mashhur asarlari sanaladi.

Eron minatyura maktabi namoyondalari

Sulton Muxammad (1470—1555 y.y. oxiri), miniatyurasi rassom, Tabriz minatyura maktabi boshlig'i. Og'a Mirakning shogirdi. Shoh kutubxonasi ishlagan va shoh Taxmaspa I ning badiiy tarbiyasi bilan ham shug'ullangan. Sulton Muxammad Hofizning "Devon", Firdavsiyning



Rizo Abbosiy. Xalat kiygan ayol

"Shohnoma", Nizomiyning "Xamsa" asarlariga suratlar hamda alohida mavzuda minatyuralar ishlagan.

Kompozitsiyadagi

harakat va o'zaro nozik uyg'unlik,

koloritning dekorativligi, manzara, odamlar va hayvonlar harakati va holatini tasvirlashdagi aniqlik va jozibadorlik uning asarlariga xos. Musavvir ko'plab minatyura portretlari,

gilam uchun ov manzaralari tasvirlangan eskizlar bajardi, zargarlik bilan shug'ullandi.

Rizo Abbosiy (1587-1629) – Isfaxon minatyura maktabi yetakchi va talantli musavvirlaridan biri, saroy musavviri Kali Ashgorning o'g'li, taniqli rassom Musinning shogirdi hisoblanadi. Otasdan badiiy talim olganidan keyin yoshligidanoq shoh Abbas I saroyida musavvir bo'lib ishladi. Ko'plab janrli sahnalar va portretlar (cho'ponlar, dehqonlar) ishladi, kamroq illyustratsiyalar uning minatyuralarida saroy ayonlari, nozik gavdali o'smirlar, shuningdek safoviylar davriga xos impressionistik usulida bajarilgan dehqon va cho'ponlar portretlarini ko'rish mumkin. Tabriz maktabi



Rizo Abbosiy. Qariya portreti



Abbosiy. O'tirgan bola

minatyurachisi Muhammadiyning rangtasvir an'analari ta'sirida Abbosiy poetik kompozitsiyalardan gavda siluetlari shaklni atrofida ko'rinishlardan ajratib turgan to'g'ri va yengil chiziqlar, chuqur ichki hissiyotlarga boy o'ta nafis portretlar yaratilishiga sabab bo'ldi. Tus o'zgarishlari yumshoq o'tkir chiziqlar shakllar plastikasini, atrof muhit bilan bog'liqligini ifodalaydi.

Musavvir Muin (1617-1708) Rizo Abbosiyning shogirdi, 17 asrning eng iste'dodli va sermahsul ijodkorlaridan biri. Musavvirning ko'p ishlari qo'lyozmalarga, birinchi navbatda "Shohnoma" asarlariga illyustratsiyalardan iborat (1690 yillar mobaynida "Shohnoma" asariga 21 ta illyustratsiya ishladi). Uning ilk ijodida Rizo



Muin Musavvir. Nay chalayotgan bola

Abbosiyga taqlidni kuzatish mumkin, lekin keyinchalik o'z shaxsiy usulini yaratdi.

Musavvirning "Fleyta chalayotgan o'smir" (1676 yil), "Sulton Itimad al Doul portreti", "Zarg'aldoq rangli ko'ylakdagi o'smir" asarlari eng mashhur minatyura kompozitsiyalari hisoblanadi

O'rta asrlarda bir siyosiy davlat qo'l ostida bo'lgan xalqlarda ijodiy jarayon va madaniyat ham bir biriga chambarchas bog'liq edi. Madaniy aloqalar, bir joyda yashab, bir joyda ijod qilish bu hudud minatyurachi rassomlari tasvirlash tili, badiiy izlanishlar va texnik vositalarning har xilligini hisobga olmasa, umumiy san'atining bir biriga o'xshashligini ta'minladi.

Minatyurachi rassomlarning ishlash usullari, qo'lyozmalarni bezash, minatyura chizishning texnik usullari haqida bizgacha yetib kelgan juda kamchilik qo'lyozmalardan (Sultan Ali Mashxadiy, Siroj-as-sutur XVI asr., Do'st Muxammad Xareviy, Kolat-yexnerveran Qozi-Axmad-Kumiy, Guliston-ye Xuner XVI asr., Sodiq-bek Afshar, Ganun-os-sovar XVI asr.) va tugallanmagan minatyura asarlarini kuzatib, uning bosqichlari va bajarilish jarayonini ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin.



Rizo Abbosiy. Cho'pon

O‘ylangan kompozitsiyaga birinchi qoralama suv shimdirilgan mo‘yqalam bilan berib chiqilgan. Qurigandan keyin suvli izlar ustidan qizil yoki qora siyoh bilan chizib chiqilgan. Bu jarayon qalamgiri – mo‘yqalam yurgizish deb atalgan. Nireng deb atalgan bu tayyor kontur chiziq kraxmal (yoki un) yelimi va tuxum oqi bilan yopib chiqilgan. Keyin kontur chiziq yaltiratib pardozlangan. Bunda ishqalab qizish natijasida berilgan rang va uning sifati buzilmasligi uchun yengil suv sachratib turilgan.

Undan keyin ostidan yengil chiziqlar ko‘rinib turgan ohorlangan yuzaga bo‘yoqlar surkala boshlangan. Kontur chiziqlar orasiga rang berilar ekan, avvalo kompozitsiyaning mayda bo‘laklari uchun fon vazifasini o‘taydigan katta yuzalar butunlay bo‘yab olingan. Bunda rassom olingan rang bilan har bir shakldagi bir xil ranglarni bo‘yab olib, keyin boshqa rangdagi buyumlarni bo‘yashga o‘tgan. Ba‘zan kompozitsiyadagi ba‘zi joylar va buyumlar tillarang yoki kumush rang bilan yopib chiqilgan. Shuning uchun kompozitsiyada tilla yoki kumush ranglar ishtirok etsa, avvalo bu ranglarga ishlov berilib keyin bu yuzalar ohorlab chiqilgan.

O‘rta asrlarda musavvirlar damshuy va miyanshuy kabi ikki xil texnik usullardan foydalanishgan.

Ikki usul ham juda yoqimli va yaxshi.

Birinchi damshuy, keyin esa miyanshuy. Agar mevali daraxt guli kabi naqshli larini ishlash kerak bo‘lsa damshuy, aksincha fonni ishlashda miyanshuy usulini qo‘llash mumkin bo‘ladi. (12.47).

Birinchi usul – bu mo‘yqalam uchi bilan ishlash. Bu usul to‘qdan ochga yengil o‘tishni ifodalaydigan kompozitsiya bo‘laklarini tushlashdan iborat.

Ikkinchi miyanshu usuli – bu mo‘yqalam yoni bilan katta yuza yoki fonlarga rang berish.

O‘sha davrlarda yosh musavvirlarning barchasi avvalo bu ikki usulni o‘rganishar edi. Ustoz yosh musavvirlarni tayyorlashda nafaqat rangtasvirning asosiy texnik usullari, balki minatyura sohasiga oid barcha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga e‘tiborni qaratishardi. Musavvirga kelgan yosh shogirdlar avvalombor taniqli minatyurachi rassomlarning murakkab bo‘lmagan ishlaridan nusxa ko‘chirishar, ko‘nikma va malakalari oshgan sayin vazifalar ham murakkablashib borar edi. Odatda nusxa ko‘chirish kompozitsiyaning alohida bir bo‘laklarini o‘rganishdan boshlanar edi.



Rizo Abbosiy. Gruzin shahzodasi

Kompozitsiya bo'laklaridan nusxa ko'chirar ekan shogird kompozitsiyadagi tashqi shakl va rang yechimi qoidalarini talqin qilishni o'zlashtirardi. Kerakli texnik malakalarga ega bo'lish uchun shogird-musavvir kelajakdagi ijodiy faoliyatlari uchun ko'p kerak bo'ladigan har xil hayvon, qush, o't-o'lan va me'moriy inshootlar suratlarini yig'ishardi. O'zlarini asarlarida kompozitsiya bo'laklaridan tasvirlashda tajribali musavvirlar har xil texnik usullaridan foydalanishardi. Shunday usullardan biri flamand rassomlari ishlatadigan "karton" usuli "axta" deb atalib, chizilgan surat kontur chiziqlari teshib chiqilib, keyin kompozitsiya ishlanadigan asosga kuya yordamida o'tkazilardi. Bu usuldan hozirgacha naqqosh, ganchkor va yog'och o'ymakorlar unumli foydalanib kelishadi.

Bunda hozirgi kalka qog'oz o'rnini yupqa, shaffof ohu (g'izol) terisidan foydalanishardi. Shaffof yupqa parda chizilgan kompozitsiya ustiga qo'yilib, tush bilan chizib keyin bu chiziqlar igna bilan teshib chiqilar edi. so'ngra teshib chiqilgan parda toza qog'oz ustidan qo'yilib, mayda ko'mir kukuni sepilib ustidan yumshoq latta bilan chiziq bo'ylab surkab chiqilar edi. Axta ehtiyotkorlik blan qog'oz ustidan olinib, qog'oz yuzasida qolgan kuya izlari ustidan tush bilan yurgizib chiqiladi. Ranglar toza chiqishi uchun qog'oz orqa tomonidan yengil urilib undagi kuya qoldiqlari qoqib, tozalanadi. Bu usulda shogirdlar bir necha yillar mobaynida ingichka mo'yqalam bilan ishlatishni yuksak darajada o'zlashtirmaguncha, xotirasida shaklning



*Султон Муҳаммад "Мероҷ" Муҳаммад (с.а.в.)нинг
еттинчи осмонга олиб чиқилиши*

umumiy xususiyatlari va har xil mavzuli kompozitsiyalar tuza olmaguncha tinmay ishlashardi. Endi ranglarda ishlov bersa ham bo‘ladi.

O‘sha davrda ijodni his-tuyg‘uga emas aql-idrokka xos xususiyat deb hisoblanardi. Buyuk musavvirlar tabiatning xilma-xilligi, uning qaytarilmas ko‘rinishlarini yaqqol tasvirlashga harakat qilishardi. XV asr tabiat ko‘rinishlarini real ifodalashga qiziqqan musavvirlarning yorqin namoyondasi bu Tebrizlik Sodiq-Bek Afshar hisoblanadi.

“Agar tasvirlash san’ati sening orzuing bo‘lsa, faqat tabiat sening ustoding bo‘lishi mumkin. Bu borada fantaziya qilish aqldan emas va befoyda”.

“U Moniymi yoki Behzodmi, ularning qaysi biri tashvishlardan xoli?”

Juda ilg‘or fikrlar sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan musavvirning bu kichik falsafiy fikrlaridan ham ham ko‘rinib turibdi, chunki fikrlar tasvirlanayotgan obyektga chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ijodkorning o‘ziga talabchan bo‘lishi, o‘tmishdagi buyuk musavvirlarning rangtasvir ishlash usullarini tanqidiy jihatdan o‘zlashtirishni tavsiya etadi.

Avval aytib o‘tganimizdek har xil siyosiy qarashlar tez-tez almashib turadigan bu hududda, Sharqning minatyura maktablariga nisbatan shuni aytish mumkinki, butun hududda etnik tarix va madaniy g‘oyalarga asoslangan madaniyat rivojlanishiga katta sharoit yaratib berdi.

Bu ma’noda qo‘lyozma kitoblar bezagi - o‘rta asrlar Sharq madaniyati uchun tipik hodisa bo‘lib, tasviriy san’atning bir turi hisoblanadi. Lekin asosiy stilistik va badiiy o‘ziga xoslik Sana’tshunoslikda minatyura maktablari bir necha turkumlarga bo‘linadi. Ba’zan ularni sulolalarga nisbatan – temuriylar, safavidlar, mongollar; etnik siyosiy ko‘rinishlarga nisbatan – arab, persid, o‘rta Osiyo, hind; ma’lum joyga nisbatan Tibriz, o‘rta Osiyo yoki mavorannahr, hind va h.k... deb nomlanadi.

Quyida Sharq minatyura maktabiga salmoqli hissa qo‘shgan badiiy maktablar tizimi va mahalliy xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

O‘rta asrlar minatyura rangtasvirini bajarish texnikasi

O‘rta asrlar minatyura rangtasviri bajarish texnikasi ni bir nechta bosqichlardan iborat edi.

Gruntovka. O‘simlik yelimi va baliqdan olingan yelim bilan uzum qiyomi aralastirilib gruntovka tarkibi hosil qilinardi. Buyum sathining silliq bo‘lishi va keyinchalik bo‘yoqdagi birikmalarni o‘ziga shimib olmasligi uchun bo‘yoqni mustahkam qilish maqsadida ushbu tarkib bilan rangtasvirning poydevori gruntlanardi.

Yorqin bo‘yoqli rangtasvir kompozitsiyalarida, bir necha xil rangli bo‘yoqlarning ustma-ust qo‘yilganda bo‘yoqlar tusining tozaligiga ta’sir ko‘rsatadigan, amaliy jihatdan qulay bo‘lgan asosan oq gruntlardan foydalanilgan. Rangtasvir asarlari tuxumli, lokli yoki yelimli bo‘yoqlarda bajarilgan. Qog‘ozda minatyura ishlashda surat chizib olingandan keyin, qo‘rg‘oshinli oq bo‘yoq bilan gummiarabik (arab yelimi) aralashmasi surkab chiqilgan.

Lokli rantasvirda grunt berilgandan keyin rangtasvir asosi qo‘rg‘oshinli oq bo‘yoq va lok bilan yopib chiqilgan. Keyin buyum yuzasiga axta yordamida surat tushirib olingan. So‘ngra kompozitsiyaning rang koloriti aniqlab olingan.

Yoritilgan yoki oldingi plandagi buyumlar alohida e'tibor bilan yorqin va quyug ranglarda, orqa plandagi buyumlar nisbatan suyuq bo'yoqlar orqali har xil quyuglikdagi tuslarda bajarilgan.

Minatyura kompozitsiyasidagi ba'zi unsurlar – osmon, yer, kiyimlarning ma'lum bo'laklari, personajlar va alohida buyumlar ba'zan oltin va kumush ranglar bilan yopib chiqilar edi. Oltin yoki kumush ranglar ishtirok etganda, kompozitsiyadagi boshqa qismlarni buzib qo'yimaslik uchun avvalo ishni mana shu ranglarga silliqib jilo berishdan boshlanardi.

Ranglar uyg'unligini hosil qilish uchun rassom har bir tayyorlangan rangni kompozitsiyadagi har bir bo'lakka berib olgandan so'ngina boshqa rangni bo'yashga o'tilardi. Bunda avvalo kichik elementlar uchun fon vazifasini bajaruvchi katta yuzalarni yopib chiqar edi.

Keyingi – rangtasvirda o'ziga xos natija beradigan to'q rangdan ochga o'tish bosqichlari hisoblangan kompozitsiyadagi bo'laklarni tushlab chiqish, lessirovka usuli. So'ngra har bir buyumning aniq surati hosil bo'lishi va bu suratning ichki mazmunini berish maqsadida kompozitsiya har bir shakl to'q ranglarda chizib chiqiladi.

Yettinchi usul – kompozitsiyadagi ro'zg'or anjomlari, kiyimlar, me'morlik inshootlari bo'laklarini naqshli bezab chiqish bosqichi.

Va nihoyat oxirgi bosqichda har bir qatlamdan keyin quritib buyumni bir necha marotaba loklash jarayoni bajariladi. Tugallangan va yaxshilab quritilgan buyum yaltiroq holga kelguncha silliqib tekislanadi.

Minatyura rangtasvirining ramziy aksessuarlari

Rassom uchun din tomonidan chizilishi ta'qiqlangan avliyolar portretni tasvirlash uchun odatda minatyura rangtasvirida quyidagi ramziy aksessuarlarni qo'llanilgan:

- ilohiy kuchga egaligi, tabarrukligining belgisi sifatida inson qomatidagi yuz qismi parda bilan to'silib, bosh orqasidagi fon oltin, olov rangli bo'yoqlar bilan ifodalangan;
- shohlar sulolasi va hukumat belgisi – qarqara patlaridan serhasham salla
- sarv daraxti – Ollohning ramziy tasviri;
- majnuntol – oshiq insonning ichki ruhiy holati ramzi;
- yozuv unsurlari – qahramonning bilimdonligi, she'riyatga, proza qonunlariga moyilligi;
- piyola va o'riklar – kishining moddiy jihatdan kamtarligi;
- sharob – dunyoni bilish ramzi;
- kamon xalqasi – harbiy salohiyati ramzi;
- oppoq salla– ollohdan qo'rqish, olim va dinning himoyachisi;
- choponlarda qurigan shox ko'rinishidagi naqshlar – borliq–olamga befarqlik;
- oq rang – qahramonning tozaligi ramzi;
- sher – mardlik, jasorat, kuchlilik, hokimlik;
- bulbul – sadoqat;
- ohu – go'zallik, himoyasizlik;
- gul – go'zallik, muhabbat, yaxshilik, himmat ifodasi;
- seryaproq atirgul – yoshlikning nazokatini anglatadi;

- oq atirgul – bokiralik;
- pushtirang atirgul niholi – yoshlikning gulday ochilishi;
- bo‘tako‘z – xotiralar;
- sariq atirgul – er-xotinlik muhabbati. To‘q qizil gullar yosh xonimlarga to‘g‘ri kelmaydi, ular janoblarga tegishli bo‘lib, otashin muhabbat ma’nosini anglatadi, sambitgul, qizil chinnigul, ko‘knor, lotin chechagi (nastursiya) shular qatoridadir.
- o‘rik guli – birga bo‘lish iltimosi;
- behi guli – nafratiga qaramay sidqiddildan sevmok, oq akas – sof muhabbat, aloye - haqorat, astra - sirli niyat, bo‘tako‘z - oddiylik, noziklik;
- qalampir – har xil yomonliklardan asrash, achchiq ta‘m;
- anor, ezgulik, to‘qchilik, to‘kin-sochinchilik va yetuklik ramzi;
- bodom – baxt iqbol ramzi;¹⁰
- agar qahramon ko‘plab yamoqli chopon va yog‘och oyoq kiyimi kiygan bo‘lsa – moddiy boyliklardan hazar qilish ramzi;
- agar personaj minatyurada alohida ramka bilan ajratilgan bo‘lsa – bu jang tafsilotidan tashqi tomonda degan ramzni bildiradi.

II.2. Amaliy mashg‘ulotlar

Minatyura rangtasviridan nusxa ko‘chirish uchun vazifalar

1 - vazifa: manzara elementlarini bajarish (gullar, o‘t–o‘lan, buta, daraxt, tog‘, bulut va h.k...)

Bu vazifa uch bosqichdan iborat bo‘lib: naturadan ishlash keyin chiziqli shakllar ishlash.

1–bosqich. Naturadan tabiatdagi shakllarni chizish. Bunda uning o‘ziga xos xususiyati, plastikasi, shakl nisbat o‘lchamlariga asosiy e‘tibor qaratiladi.

Vazifa maqsadi: talabalardagi kuzatish, tahlil qilish va ko‘rganlarini to‘g‘ri tasvirlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Chizishning ilk bosqichida talabalarining tabiatdagi shakllar go‘zalligini his qilish, ko‘rish, ajratish, ulardagi umumiy va alohida jihatlarini taqqoslash, o‘ziga xosligi va o‘xshashligi topish ko‘nikmalarini shakllantirish, atrof muhitga hissiy munosabatini rivojlantirish kabi o‘quv-tahliliy, va badiiy-obrazli vazifalar hal qilinadi.

Vazifa qalamda bajariladi.

2-bosqich. Avvalgi naturadan bajarilgan vazifa asosida shakllar chizish.

Vazifa maqsadi: talabalarda atrof muhitdagi narsalar shaklini chiziqlar orqali tasvirlashga o‘rgatish.

Vazifani bajarish jarayonidagi minatyura rangtasviri bajarishda chiziqlarning ahamiyatini tushunib yetish va undan mohirona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Talabalarga amaliy ishlash oldidan obrazlar yaratish, dinamik va plastik harakat chekannoy uprugosti ni tasvirlashdagi asosiy tasvirlash vositalaridan biri sifatida

¹⁰ Булатов С.С. Соипова М.С. Мансуров У.Н. Рамзлар: тасвир ва мазмун.-Т.: “Фан ва технология”, 2015, 118-119 бетлар.

minatyura rangtasviridagi chiziqlarning ahamiyati haqida nazariy tushunchalar beriladi.

Chiziqlar jozibasi uning qalinlik, egiluvchanlik, harakat va noziklik darajasiga bog'liq. Minatyurada buyumning chiziqli shaklini qurish, bu naturadagi asosiy unisurni 2 darajadagi narsalardan ajratish, umumlashtirish demakdir.

Bunday surat kishida kompozitsiyadagi uyg'unlik va umumiy o'lchamlar nisbati tasavvurini uyg'otadi.

Tabiatdagi shakllarni shartli umumlashtirish va stilizatsiyalashda shuni hisobga olish kerak-ki minatyura rangtasvirida narsalarning o'ziga xos tomonlari kattaroq o'lchamalarda bo'rttirib ko'rsatiladi.

Bu vazifa ham qalamda bajariladi.

3-bosqich: elementning umumlashtirilgan tasvirini chizish.

Bu vazifada talabalarda naturani estetik qabul qilish hisslarini uyg'otadigan uyg'unlik, tabiatdagi shakllar go'zalligini ko'rish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Vazifani bajarish uchun talabalar siluetning bajarish usuli bo'yicha bir tusli vosita sifatida o'ziga xosligini bilib olishlari zarur. Shu bilan birga ular siluetning o'zida buyumlar xarakterini ochib berish, badiiy obrazlar yaratish mumkinligini bilib olishadi.

Amaliy ishlarda talabalarni tasvirlanayotgan shaklni umumlashtirish (stilizatsiya), undan xarakterli, o'ziga xos jihatini ajratib olishni o'rganish jarayoni davom etadi.

Ish tempera bo'yog'ida (axromatik tuslarda) qog'ozda bajariladi.

2-vazifa: Hayvonlar va qushlar tasviri.

Bu vazifada ham talaba umumlashtirish, stilizatsiyalash asosida shakllar tasvirlashni o'rganishadi.

Vazifa odatda naturadan rasmlar ishlab, keyin chiziqli va siluetli suratlar chizishga o'tiladi. Tabiatdagi narsalardan bir necha mashqlar bajargandan so'ng, talabalar mustaqil ravishda shakllarning asosiy xarakterli tomonlarini, undagi asosiy va ikkinchi darajalilarini aniqlashni o'rganishadi.

Hayvon shakllarini stilizatsiya qilish naturaga yaqin va umulashtirilganda mavhumroq bo'lishi mumkin. Axromatik tuslarda tasvirlab, aniq shakllarni o'rganishdan boshlanadi. Chunki stilizatsiya usullari va sushnostini o'zlashtirish ancha murakkab bo'lib, axromatik tuslarda tasvirlash esa diqqatni bir joyga jamlab tabiatdagi shakllarning o'zgaruvchanligining mohiyati anglab yetish imkonini beradi.

Stilizatsiyaning har qanday turida turlash, yaxlitlash, qarama-qarshilik, tasvirlash vositalarining asosiy g'oyaga bo'ysundirilishi kabi kompozitsiyaning umumiy qonun-qoidalari harakatga keladi. Undan keyingina chiziqli va fazoviy perspektivalarning qat'iy qonunalridan chetlashish, uning shakl siluetini umumlashtirish va chiziqlarning jozibadorligini oshirish usul xususiyatlari harakatga kelishini kuzatishimiz mumkin.

Naturadagi shakllarning o'zgarishi – bu tasavvurdan yaratish, borliqni idrok qilishdagi estetik saviyaning chizmatasvirdagi aksi, go'zallikdan bahramand bo'lish ko'nikmasi, bu go'zallikni boshqalarga ham yetkaza olish demakdir. Bu har

qanday motivning tipik jozibadorlik qiyofasining aslidek saqlangan holda naturaning poetik va estetik obrazlarga aylanish jarayoni hisoblanadi.

Musavvir borliqdagi g'aroyib shakllarni his qilishi, ko'ra olishi, ulardan ertakona, g'aroyib obrazlarni tanlay olishi kerak. Bu malakalar nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish yo'li bilan rivojlantirilib boriladi.

3-vazifa: "Manzara" mavzusiga oid kompozitsiyadan nusxa ko'chirish.

Bu bosqichda talabalar yaxlitlash va stilizatsiyalash asosida palitradagi barcha ranglardan foydalanib holda naturadagi shakllarning o'zgarishini bo'yoqlarda tasvirlay boshlashadi.

Ma'lumki minatyura kompozitsiyalarida rang g'oyani ochib berishda va syujetning rivojlanishidagi asosiy mazmuni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga rangning o'zi bebaho estetik ahamiyatga ega. Rang musavvirga o'z g'oyasini yorqin ochib berishga, tasvirlanayotgan obyektga nisbatan o'z munosabatini ifodalashga yordam beradi.

Rangning dekorativligi uning yorqinligi, jarangdorligi, tozaligini ta'minlaydi.

Minatyura kompozitsiyasida ranglar uyg'unligi, ranglar o'yini, ularning nozikligi, nafisligi va qarama-qarshi tasvirlar, iliq va sovuq ranglarning almashinib kelishi o'ta muhim sanaladi. Tuslardan har xil ko'rinishlarda foydalanib, musavvir ma'lum obrazlar orqali inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Talabalar kompozitsiya yaratishda ranglar imkoniyatlaridan erkin foydalanishlari uchun ularga avvalo ranglar ma'nosini tushunishga va undan keyin ma'lum hissiy taasurotlarini ranglar uyg'unligi yordamida ifodalay olishga o'rgatish lozim.

Vazifa qog'ozga tempera, guash, akvarel bo'yoqlari yordamida bajariladi.

4-vazifa: Inson qomatini tasvirlash.

Inson qomati ham minatyura kompozitsiyalarida umumlashtirish va shartlilik qoidalari asosida tasvirlanadi. Qiyofaning barcha xarakterli xususiyatlari jamlanadi va musavvir ulardan eng kerakligini ifodalaydi. Bular o'ziga xoslik, aniq xususiyatlarini umumlashtirib ma'lum tipdagi personajga aylantiriladi. Minatyurada tasvirlangan kishilar bu o'z davrining ideal holati, harakati, yuz tuzilishi, xarakteri qat'iy aniqlangan insonning go'zal xususiyatlarining jamlanma obrazi desa ham bo'ladi. Unda barcha personajlar bosiq, his hayajonsiz, oval yuzlari silliq bo'yalgan, qosh, ko'z, burun, lab va quloq tuzulishining umumiy xususiyatlari bilan bir biriga o'xshash qilib tasvirlangan.

Minatyura san'atida portret ishlashda mavjud insonning ma'lum xususiyatlari asosida umumlashgan obrazi beriladi.

O'rta asrlardagi portretlarda shaxsiy xususiyatlari va umumiy qiyofasi tipiklashtirilib nafis shartli chiziqlar yordamida ifodalangan. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki shartlilik ham, tipiklashtirish ham tomoshabinga ma'lum shaxslarning aniq qiyofalarini tanib olishga xalaqit bermagan. Chiziqlarning shartli tili va hayotiylik chegaralari tomoshabin tomonidan yengil qabul qilingan. O'rta asrlar rassomlari asarlarini uning shartli tizimda bo'lsa ham ijodiy asar sifatida qabul qiladigan, san'atni tushunadigan tomoshabinlarga mo'ljalab yaratar edilar. Bu ham o'rta asr tasviriy san'atiga xos xususiyatlardan biri sanaladi.

Nusxa ko'chirish vazifasi tempera bo'yog'i bilan qog'ozda bajariladi.

5-vazifa: Me'morlik inshootlari bo'laklarini bajarish.

Shartlilik minatyura rangtasvirida asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanishini endilikda biz yaxshi bilamiz. Minatyura kompozitsiyasiga tegishli qog'oz yuzasida shartli tasvirlar ishlashda buyumlarning perspektiv qisqarishlari kuzatilmaydi.

Shu bilan birgalikda musavvirlar jang sahnalari yoki maishiy, yoki epik asarlar, har xil me'moriy inshootlarning tashqi va naqshinkor ichki ko'rinishlari hamda undagi muhitni mohirona tasvirlaganlar. Interyerdagi fazoviy bo'shliq, hajmdorlik, binoning murakkab tuzilishlari, yon devorlarning simmetrik burilishlari hisobiga aniqlik va noziklik bilan erishilgan.

Minatyura kompozitsiyasidagi dabdabali va go'zal fasad ko'rinishlari tasvirlarini ifodalashda yengil naqshli panjaralar, balkon, naqshga boy hashamatli kirish eshiklaridan samarali foydalanilgan.

Nusxa ko'chirish vazifasi tempera bo'yog'i bilan qog'ozda bajariladi.

6-vazifa: Mavzuga oid syujetli kompozitsiya tuzish.

Tasviriy san'at asari tuzilishining muhim masalalarini o'rganar ekan talabalar kompozitsiya tuzish qonun-qoidalarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Minatyuradagi rangtasvir kompozitsiyasi tuzilishi jang, maishiy, epik, portret janrlarining mazmunini belgilaydi.

Kompozitsiya mazmunini ishlab chiqishda musavvir tomonidan chiziq, ritm (marom), rang va shartlilik kabi minatyuraning jozibador vositalari qo'llaniladi.

Chiziq tasvirlanayotgan obyektidagi shakllar harakatini ifodalaydigan badiiy obrazning jozibador vositasi sifatida nafaqat ifodaning nafisligi balki minatyuraning estetik mazmunini ham belgilaydi.

U o'zining kuyi, maromi yoki zo'riqish zarbi tarangligi bilan hissiy jarangdorlikkacha ko'tariladi. Uning qog'oz yuzasidagi yengil ko'z ilg'amas ingichka, nozik harakatlaridan to qalin va to'q izigacha bo'lgan imkoniyatlari mavjud.

Minatyurada ritm asosiy hissiy shashtni beradi. Kompozitsiyadagi mavzuning o'zgarishi bilan ritm ham o'z ko'rinishini o'zgartiradi. Shohona qabul va bazmlar sahnasida ritm xotirjam, sekin, jang sahnalarida esa voqealardagi bezovtalik va dramatik holatdagi ritmning tezlashgan sur'atini kuzatish mumkin.

Minatyura kompozitsiyasi unga yorqinlik beradigan dekorativlik va koloritning jarangdorligini aniqlaydi.

Minatyurada rang rassomga o'zining fikrini yorqin ifodalash, tasvirga o'zining munosabatini singdirishga yordam beradi. Odatda minatyurada eng yorqin va jarangdor ranglar kompozitsiyaning markazida kuzatiladi. Bu bilan rassom tomoshabin diqqatini o'zi aytmoqchi bo'lgan asosiy g'oyaga qaratishga intiladi. Lekin bu bilan kompozitsiya markazi qog'ozning markazi bo'lishi kerak degani emas.

Odamlar, manzara ko'rinishlari, me'moriy obidalar, kompozitsiyadagi fazoviy bo'shliqni berishda xarakterli, aniqlovchi belgi sifatida minatyuradagi shartlilikni aytish mumkin.

Kompozitsiyaning g'oyaviy mazmunini ochib berishda rassomlar ko'pincha sahna voqealarini tushuntirish, ko'rsatish uchun ramziy belgilardan foydalanishadi.

G'oyaviy fikrini yechib berishda kompozitsiyaning ajralmas qismi bo'lgan odamlar, hayvonlar va me'morlik obidalari ham kam ahamiyatga ega emas.

Masalan kompozitsiyaning fazoviy bo'shlig'ini ko'rsatish uchun odamlar doira, oval va diogonal holatlarda joylashtiriladi. Chuqurlik va bo'shliqni ifodalash uchun peshtoq, minbar, yon devorlar, ko'prik, ayvon, shiypon singari me'morlik obidalari ham katta ahamiyatga ega.

Vazifa gruntlangan karton, DVP, yog'och yuzalarda bajariladi.

Kompozitsiyani ishlash quyidagi bosqichlardan iborat:

- tekislikni gruntlash;
- gruntni oq bo'yoq bilan yopish;
- tasvirni xitoy qog'ozi yordamida yuzaga tushirish;
- yuzada rangtasvir koloritini yaratish;
- kompozitsiya unsurlarini tushlash, yedirma usuvda bo'yash;
- kompozitsiya unsurlarini to'q chiziqlarda chizib chiqish;
- kompozitsiya bo'laklarini naqshlar bilan bezash;
- har bir qatlamini quritgan holda yuzani ikki uch marotaba loklash;
- yuzani silliqlash.

7-vazifa: Buyumni tayyorlash va uni minatyura kompozitsiyasi ishlash.

Bu vazifa kompozitsiya qurilishi va manzara elementlari, odamlar va hayvonlar shakllarini stilizatsiya qilish haqidagi bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

Talabalar murakkab bo'lmagan, yuqorida keltirib o'tilgan kompozitsiya elementlari mavjud bo'lgan minatyura asaridan nusxa ko'chiradilar.

Bundan tashqari ular kompozitsiya uchun buyum tayyorlashlari kerak. Bu oddiy quticha, shkatulka bo'lishi mumkin.

Ish bosqichi quyidagicha:

- buyum tayyorlash;
 - buyumni kompozitsiya ishlash uchun tayyorlash: gruntovka, gruntni oq bo'yoq bilan yopish, tasvirni unga ko'schirish;
 - bo'yash, yedirma usulida rang berish, chizish;
- yuzani loklash.

Asardan nusxa ko'chirish minatyurachi rassomlar ustaxonalariga, ko'rgazmalarga borish bilan muvofiq olib boriladi. U yerda ularning ish uslublari bilan tanishiladi, pape mashe tayyorlash texnologiyalarini o'rganishadi.

8-vazifa: Minatyura rangtasviri usulida kitobni bezash.

Bu vazifada talabalar kitoblarga minatyura kompozitsiyasi usulida bezak berishadi. Bu vazifalar jarayonida ulardagi badiiy adabiyotga syujetli kompozitsiyalar tuzish qobiliyatlari rivojlanadi. Talabalarga oldindan kitobni bezash haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi.

Kitoblarga bezak berish san'ati talabalar avvalgi topshiriqlarda bajargan barcha dekorativ bezak san'ati turlarini birlashtiradi. Bu vazifa rassomning ijodiy faoliyatiga muvofiq alohida bosqichlarga bo'linadi. Ish quyidagi bosqichlarda bajariladi:

1. Badiiy adabiyot asarini tanlash;
2. Bosh sahifa, yakuniy sahifa uchun bezakli naqsh eskizlari tayyorlash;
3. Manzara bo'laklari, qush, hayvon, odamlar qomatlarini eskizi;

4. Kitob o'lchami, uning sahifalarini tayyorlash;
5. Mavzuga oid eskiz va bezakli naqshlar tayyorlash;
6. Rang koloriti ustida ishlash (tempera, akvarel);
7. Kompozitsiyani ishlash;
8. Kitob sahifalarini yig'ish.

9-vazifa: Buyum yasash va unga minatyura usulidagi shaxsiy kompozitsiyasi ishlash.

Ish bosqichlari:

1. Buyum yasash va uni rangtasvir ishlash uchun tayyorlash;
2. Kompozitsiya eskizi ustida ishlash;
3. Buyumga kompozitsiyani ishlash;
4. Bajarilgana kompozitsiya ustidan loklash va uni silliqlash.

10-vazifa: K. Bexzod asarlaridan nusxa ko'chirish.

Asar o'lchamiga mos qog'oz tayyorlash va unda K. Bexzodning asarining suratini joylashtirish.

Nusxa ko'chirish jarayoni bosqichlari:

1. asar o'lchamiga mos (qog'oz, karton, fanera, yog'och, shkatulka) asos tayyorlash.
2. asarni xitoy qog'ozi (kalka)ga ko'chirish.
3. kompozitsiyani axta yordamida asosga ko'chirish.
4. kompozitsiyadagi katta fonlarni belgilab, ranglar uyg'unligini topish.
5. kichik yuzalarga ishlash.
6. kompozitsiyadagi shakllarni to'q rangda chizib chiqish.
7. agar taxichkia, sandiqchalarga ishlangan bo'lsa ularni silliqlab ularga bezak berish. Loklash ishlari.

Bu vazifa yakuniy bo'lganligi, bajarilgan vazifa sifatiga qarab uning nusxa ko'chirish fanidan olgan bilim va ko'nikmalariga baho berilishi sababli talaba uni mustaqil bajarishi shart.

III.1. RANGTASVIR TEXNOLOGIYASI VA UNGA KERAKLI MATERIALLAR

Rangtasvir texnologiyasi. O'tmishdagi mashhur rassomlar asarlarini o'rganishda asl nusxani yaratishdagi barcha usullar va amallar bajarilgan holda aynan nusxa ko'chiriladi. Boshlang'ich grunтовkadan ishning tugashigacha bo'lgan jarayondagi muallif bajargan amallar qat'iy bosqichlar asosida takrorlanadi. Rassom bo'lish uchun faqat yaxshi chizish yetarli emas, balki rangni, tusni his qilish, kompozitsiyani anglash juda ham muhim. Shuningdek rangtasvirda ishlatiladigan materiallar va vositalarni yuksak darajada bilmoq va amalda qo'llay olish ham kerak.

Yosh musavvirga rangtasvir texnikasi va texnologiyasiga oid muammolar, tarixan shakllanib kelgan metod va ishlash usullari, barcha bo'yoq turlari, bog'lovchilar haqidagi bilimlarni birdan qamrab olish juda qiyin. Lekin boshlanishidan ijodiy muhit asosini egallab borish lozim, rangtasvir vositalaridan

foydalanish ko'nikmasi kerakli bilim va tajribani to'plash uchun har kungi tinimsiz, qat'iy mehnat natijasida, asta-sekin o'zlashtirib boriladi.

Rangtasvirning boshlanish asosidan to tugallanishigacha ishlatiladigan barcha materiallar o'ziga xos xususiyatiga ega. Rassom ularni o'zaro uyg'unlikda qo'llay olishi lozim. Faqat ularning barchasining uyg'unligi va yorqin obrazli yechimi hisobiga tasviriy san'at asarini yaratish mumkin.

Yog'och faneralar. Yaratilish vaqti, joyi, qaysi maktabga taaluqliligi, Estetik talablarga qarab rassomlar o'z asarlari uchun har xil materiallarni tanlashgan. Yevropada XV asrgacha yog'och-taxtalar mana shunday materiallar sirasiga kirardi. Buning uchun turli mamlakatlarda rassomlar ma'lum bir daraxt navini ishlatishni maqul ko'rar edilar. Masalan: Italiyada terak, tilog'och (listvennitsa), jo'ka (lipa) daraxti; Gollandiyada eman; Fransiyada ko'rincha yong'oq; Rossiyada jo'ka (lipa) daraxtini ko'p ishlatishgan. Alohida yog'och bo'laklari bir-biriga yelimlab yopishtirilib rasm chizish uchun tekis yuzali, keng o'lchamli taxtalar hosil qilinardi.

Rassom tomonidan foydalanilayotgan daraxt sifatiga katta e'tibor berilardi. Masalan XVII asrlarda Flandriyada rangtasvir uchun taxtalar faqat sinab ko'rilgandan keyin sotuvga ruxsat berilishi haqida qonun chiqarilgan edi. taxtaning orqa tomonida maxsus komissiya tomonidan ikkita qo'l kafti tasviri kuydirib tushirilar edi. rangtasvirga ma'qul ko'rinib yuksak baho berilgandan keyin Antverpen shahri tamg'asidagi minora taxta kuydirib ishlanardi.

Bu nazorat san'atga nisbatan hurmat va haqli savdoni yo'lga qo'yish natijasi hisoblanadi. Shuning uchun bu davrda jod qilgan rassomlar tomonidan yaratilgan asarlar o'zining yaxshi saqlanganligi bilan farqlanadi. Boshqa zamondoshlari qatorida Piter Paul Rubens ko'plab eskiz va kartinalarini mana shu yog'och faneralar yuzasiga ishlagan. Bu asarlar nafaqat vaqtlar sinovidan o'tdi balki, ularning o'z kasblariga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishning bir misoli sifatida haligacha o'rnak bo'lib kelmoqda.

Rangtasvir uchun boshqa qattiq materiallar. Tasviriy san'at asrlari yaratishda mashhur rassomlar yog'ochdan tashqari tosh, mis, temir, ruxdan ham foydalanishgan. Masalan XVI asrda italyan rassomi Sebastiano del Piombo "Xochning ko'tarilishi" asarini toshga ishlaganligi ma'lum.

Katta bo'lmagan kartinalar uchun asos sifatida mis doskalar ham ishlatilgan. Undan birinchi marotaba XVI asr italyan rassomlari Mikelanjelo de Karavajjo va Lyudoviko Karrachchilar foydalanishgan. Asta-sekin mis Gollandiya, Fransiya, Ispaniya va Angliyada ommalashib ketdi. Rossiyada uni XVII asrda ikona chizuvchi rassomlar ishlatishgan. Kiyevdagi Krill cherkovi uchun "Mariya chaqaloq bilan" asarini katta rux doskaga ishlagan.

Rangtasvir uchun zamonaviy qattiq materiallar. Ba'zi zamonaviy rassomlar ham o'z asarlari asosi uchun tekis yuzali qattiq materiallarni tanlashadi. Avvalgi yog'och materiallarni hozir ko'proq orgalit (DVP) egallagan desa ham bo'ladi. orgalit kartonga o'xshash, lekin qattiq bo'lib, silliq va jilvirsimon yuzaga ega. Har ikki tomoni ham rassomlar uchun asarlar yaratishga qulay. Uni ishlatishdan oldin (ayniqsa jilvirsimon tomoni) yaxshilab yelimli grunt yoki lok

bilan yopib chiqish kerak bo'ladi. Katta hajmdagi orgalitga ishlaganda uning orqasiga panjarasimon qilib yog'ochdan asos qilinib mixsiz yelim bilan yopishtirilib tayyorlab olinadi.

Ijbiy tomoni: DVP - baquvvat, yengil arralanadi, yaxshi saqlanadi, yengil gruntlanadi, qiyshaymaydi.

Kamchiligi: Chekkasiga aylantirib tag rom tayyorlab, uni yelim bilan orgalitga yopishtirib o'rnatilmasa har xil zarbalardan chekkasi sinib ketishi mumkin. Namda shishib qoladi. Namlikdan saqlash uchun: moy, mum, asalari mumi va olifa surkab, shimdiriladi, universal himoya - bu asalari mumi¹¹ hisoblanadi.

Bundan tashqari yana zichlangan yog'och qipig'i – DSPni ham ishlatsa bo'ladi. U DVPga nisbatan bir oz og'irroq. DSP ning o'lchami 5 metrgacha, qalinligi 2-3 sm dan 1,5-3 sm gacha bo'ladi. Uning afzal tomoni parketaj ham kerak emas. U arzon, destruktiv material, namlikka va issiq-sovuqqa chidamli, ishlov berish ham kerakmas, hajmi katta.

Kamchiligi: 1. Burchaklari kutilmagan zarbaga chidamsiz. DSP taxtani chetlariga yog'ochdan himoya sifatida hoshiyalash kerak. Namlikdan saqlash uchun: asalari mumi eritmasi, qaynoq olifa, qizdirilgan moy surkab, shimdirish kerak.

Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari moybo'yoq va temperada ishlash uchun tekstolet yoki alyuminiylarni ishlatish mumkin. Moybo'yoq yoki tempera uchun yaroqliligini tekshirib ko'rish uchun ishlashdan oldin dokani ho'llab ushbu material yuzasiga siqilganda suv shimilmay zoldir bo'lib yumalab ketsa, bo'yoqning unga yopishishi qiyinligini bildirad. Unga qo'shimcha ishlov berilib yuzadagi moylar ketkaziladi.

Rangtasvir uchun asoslar

Oldiga qo'yilgan maqsadga qarab ko'zda tutilayotgan rangtasvir kompozitsiyasi uchun qog'oz, tayyor gruntlangan, bo'yoqni shimmaydigan kanopdan tayyorlangan hamda sintetik an'anaviy oq mato, brezent yoki orgalit tanlash mumkin. Shuningdek jilvir donachali yuzaga ega bo'lgan qattiq qog'oz va kartonlarni ham yaxshilab gruntlab ishlatiladi.¹²

Xolst. Rangtasvir uchun maxsus to'qilgan, chidamli dag'al mato. Unda matoning dag'alligi rangli bo'yoqlar bilan tasvir yozishda o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Xolstning rangtasvirda ishlatilishining ommalashishi XV asrdan boshlandi. Yog'och asoslarga nisbatan uning ishlashga qulay va yengil. Yuzadagi jilvirlik rangtasvirga o'ziga xos jilvalanish berib, kompozitsiyaning jozibadorligini kuchaytiradi. Xolstning bunday xususiyatidan O'. Tansiqboyev ustalik bilan foydalanardi. U o'rtacha yoki katta hajmdagi manzaralarni tasvirlashda ko'proq mayda taroqli matodan foydalanishni xush ko'rardi. Jajji rasmlarni ishlashda esa yirik fonli (taroqli) matoni qo'llar edi.

¹¹ F.A. Ортиков. Рангтасвир техникаси ва ашёлар технологияси. «Шарк» нашриёти, Т-2007. 29-б.

¹² Aggy, Boshoff. Oil-painting Workshop. First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, New York, 10014 14-6er

U manzarani ishlar ekan, xolstni rangli bo'yoqlar bilan chaplashtirib (og'irlashtirib) yubormasdi. Ko'p o'rinda xolst donalarining (to'qimasi) jilvasini yo'qotmaslikka urinardi va o'ziga xos nafis (mayin tonli) asar yozishga muvaffaq bo'lardi.¹³

Boshqa materiallarga qaraganda xolst yupqa bo'lib, uni yog'och asosga tortiladi. Shuning uchun xolst uchun kanop va zig'irdan tayyorlangan yetarli darajadagi mustahkam matolar tanlanadi. Ipak, paxta, jundan olingan matolar rangtasvir uchun material bo'la olmaydi. Lekin ba'zan amalda bu materiallarga ishlangan asarlarni ko'rish mumkin. To'qilgan ipning qalinligiga qarab xolst yuzasidagi jilvirlik mayda va yirik ko'rinishlarda bo'ladi.

XVI asrda rangtasvirni quyuk pastasimon dog'lar holida qo'yib ishlash usuli tarafdorlari Venetsiya maktabi rassomlari xolstdagi g'adir-budur yuzalardan unumli foydalanishgan. Bunga xolstdagi mavjud o'ydim chuqurlar bo'yoqning yaxshi yopishishiga yordam beradi. O'sha davrdagi gruntlarning to'q rangi bo'yoqlarning ichkiidan ko'rinib turishi kompozitsiyaga o'ziga xos yanada jozibadorlik baxsh etgan

XVII asrda Italiyada siyrak to'qilgan matoni ishlatishgan. Bu materiallarga grunt tekis andavalar yordamida surkalib yuzadagi siyrak iplar orasida o'ziga xos taxlangan tosh qatlamlariga o'xshash g'adir-budur faktura hosil qilingan.

XVI asrda Germaniyada rassom yelimli bo'yoqlar va temperada grunt qilinmagan rangtasvir uchun yupqa xolstlarga to'g'ridan-to'g'ri o'tkir uchli mo'yqalam bilan chizishardi. Rangtasvirning bu turi "nemislarniki" degan nom oldi. XVIII asrda to'quvchilik aslahalarining yaratilishi bilan stanoklarda bir tekis va zich to'qilgan xolstlarni ko'plab ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi.

Rassomning yozish usuli va texnikasiga qarab suyuq bo'yoqlarda ishlash uchun mayda jilvirlik, bo'yoqlarni quyuk qalin qo'yib ishlanadigan ishlar uchun yirik jilvirli xolst tanlanadi.

Boshqa materiallar masalan, paxta bilan zig'ir ipidan aralashtirib to'qilgan xolstlar rangtasvir uchun ancha yaroqsiz hisoblanadi. Chunki bu xolstlarga namlik tez ta'sir qilib tez shalvirab qoladi.

Xolstda bajarilgan mashhur san'at ustalarining asarlari texnik ta'mirlashdan o'tkazilganda ular asosi qo'shimcha mustahkamlangan. Shuning uchun bir necha yuz yilliklardan yetib kelgan asarlar ni qoniqarli holatga keltirilgan. Buning barchasi, shuningdek mo'yqalamdagi bo'yoqning yaxshi surkalishi uchun xizmat qiladigan, kompozitsiyaga jozibadorlik baxsh etadigan xolst hozirgacha rassomlarning sevimli va ommalashgan rangtasvir materiali hisoblanadi.

Karton. Kartinalar uchun tayyorgarlik ranglavhalari va eskizlar uchun qadimdan ancha arzon hisoblangan karton ishlatilgan. Ko'pincha kartonda bajarilgan katta badiiy ahamiyatga ega bo'lgan mustaqil asar darajasiga ko'tarilgan ishlarni kuzatish mumkin.

Qog'oz – ma'lum asosda ishlov berilib tolalarning o'zaro ayqash-uyqash birlashtirilishi natijasida o'simlik tolalaridan olingan yupqa material. Qog'oz ishlab chiqarish uchun har xil o'simliklar sellyulozasidan foydalaniladi. Qo'shiladigan

¹³ X. Каримов. "Ў. Тансиқбоев", "Ёш гвардия" нашриёти; Т-1978. 91-бет

mineral, yelim, bo‘yoqlar natijasida u har xil faktura va rangga ega bo‘lishi mumkin.

Rassom rangtasvir uchun ishlatadigan karton vaqt o‘tishi bilan egiluvchanligini yo‘qotmasligi, mo‘rtlashmasligi qoramasligi bilan katta ahamiyatga ega.

Qog‘oz qadimdan rassomlar tomonidan akvarel, tempera, guash, pastel va moybo‘yoqlarda asarlar yaratish uchun rangtasvir ashyosi sifatida ishlatilib kelingan. Moybo‘yoqda ishlash uchun uning qattiq va qalin navlari ishlatiladi. Shunda ham uni avval gruntlash kerak bo‘ladi. Jahon muzeylarida qog‘ozda bajarilgan yirik rangtasvir ustalari tomonidan bajarilgan asosan eskiz va tezkor ranglavhalar ko‘rinishidagi asarlar saqlanmoqda. Shundayin Ermitajda ham Antonis Van Deykning “Xristosga motam qilinishi” asariga, Aleksandr Ivanovning “Xristosning xalqqa ko‘rinishi” nomli kartinasiga moybo‘yoqda bajarilgan eskizlari saqlanadi.

Karton qog‘ozning bir turi bo‘lib uni tayyorlashda anchayin dag‘al va qattiq tolalar – qo‘ng‘ir tusli chiqindilardan tayyorlanadi. Shuning uchun moybo‘yoq hamda tempera bo‘yoqlarida ishlash uchun kerakli bo‘lgan karton ancha qalin va qattiq ko‘rinishda bo‘ladi.

Eng yaxshi navi lattasimon kulrang karton bo‘lib, u mustahkam va egiluvchan xususiyatga ega. Bunday kartonlar emulsiyali gruntlangan, ishlashga tayyor holda do‘konlarda sotiladi. Ezilishga qarshi kartonni yog‘och asoslarga biriktirilib ishlatiladi.

Ichki rom(podramnik). Xolstni tortish uchun asboblar. Xolstda bajarilgan rangtasvir asarlarida asosiy yuk chorbarmoq bilan mustahkamlangan ichki romga tushadi. Ilk ichki romlar qo‘pol ko‘rinishga ega bo‘lib burchaklari o‘zgarmaydigan holatda, edi. XVIII asrning ikkinchi yarmida xolst salqigan taqdirda maxsus ponalar yordamida burchaklarini o‘zgartirish mumkin bo‘lgan ichki romlar paydo bo‘ldi. Bunday ichki romlar haqida monax Perneti o‘zining “Lug‘at”ida ta’kidlab o‘tadi.

To‘plangan tajribalar asosida ponalar yordamida o‘zgartirish mumkin bo‘lgan ichki romlar asta-sekin hozirgi ko‘rinishni oldi va uning tuzilishi yillar o‘tishi bilan mukammallashib bormoqda.

Hamyurtimiz, mashhur manzarachi rassom O‘rol Tansiqboyev o‘z ijodida tayyorlangan mana shunday maxsus ichki romlardan foydalanar edi.



Ponalar bilan o'zgartiriladigan to'g'ri burchakli zamonaviy ichki rom.

Hozirgi vaqtda katta o'lchamdagi kartinalar uchun maxsus yasalgan, temperatura va namlik hisobida bo'shashadigan xolstlarni avtomatik tarzda maxsus prujina va roliklar yordamida tortadigan ichki romlar paydo bo'ldi. Xolstlarni doimiy tortilib turishini ta'minlaydigan bunday ichki romlar kartinalar uchun

qulay sharoit yaratadi. Ichki romyasaladigan yog'och ko'zsiz va quruq holatda bo'lishi talab etiladi. Nam taxta qurigandan keyin qiyshayib yaroqsiz holatga kelib qoladi. Ichki romtaxtachalari ponalar uchun joy qoldirilgan turumga biriktiriladi. Ponalar qattiq navli daraxtlar: dub, bukadan yasaladi. Pona qoqiladigan burchak 15° burchak ostida bo'lib, qoqilganda xolstning bir maromda tortilishini ta'minlaydi. Xolst ichki romning tashqi burchagigagina tegib turishi uchun, tashqi burchagi ich tomonga qiya qilib olinadi. Bo'lmasa xolst gruntovka qilib yelimlanganda ichki romka yopishib qolishi mumkin. Shuningdek ramkaga qo'shimcha qo'yilgan chorbarmoq kartina o'lchamiga qarab 1-2 sm xolst orqa yuzasidan uzoqlikda bo'lishi zarur.

Xolstni ichki romka maxsus yog'och yoki metall qisqichlar yordamida tortiladi (2-surat).



-rasm

Xolstni ichki romka tortish uchun maxsus metall qisqichlar va stepler.




Steplarni maxsus o'qlari bilan to'ldiriladi.

Xolstni ichki romga tortish qoidasi. Qadimdan rassomlavr kompozitsiya yaratiladigan xolstni sifatli, tarang tortishga katta e'tibor qaratganlar. Bunda matoning bir maromda tortilishi va iplarining taxtalarga parallel bo'lishi xolstni ichki romga tortishning asosiy sharti hisoblanadi.

Xolstni ichki romka tortishning o'ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Bu necha yuz yilliklar mobaynida takomillashtirilib kelinadi. Ichki romga zig'ir ipli mato tortish quyidagicha amalga oshiriladi.

Ichki rom taxtachalari bir-biriga ulanib, tashqari burchaklari 90°C ni tashkil etgandan so'ng, mato ichki romga nisbatan 5 sm kattalikdagi o'lchamda kesiladi.




Matoni ichki romga tortishda avvalo rasmda ko'rsatilgandek yog'och reykaning yon qismi o'rtasidan mix yoki stepler bilan qotirilib (1) qarama-qarshi (2) tomonga tarang tortiladi va u tomon ham shunday qotiriladi. Keyin ikkinchi tomonga (3-4) tortilib, o'rtadan o'ng va chap tomonlarga burchakka yetguncha navbat bilan (mixlar oraligi 4 sm dan oshmasligi kerak) mixlab tortib boriladi. (-rasm). So'ngra burchaklariga ham mix urib, uchburchaklarni vaqtincha yechib, pona qoqiladi. Chunki pona matoni yanada tarang qilib tortadi. (-rasm)




-rasm

Avvallari mato oddiy duradgor uskunalari yordamida tortilgan bo'lsa, endilikda bu jarayonni bajarish uchun qulay zamonaviy asbob-uskunalar ham paydo bo'ldiki, u rassomning ishini ancha yengillashtiradi. Bu qoidalarga rioya qilib tortilganda mato ichki romda tarang bo'lib, gruntlangandan keyin bo'shshib qolmaydi. Bunda maxsus qisqich moslamalar (-rasm) va zamonaviy stepler (-rasm) asbobidan foydalaniladi. Steplarning maxsus o'qlari bo'lib, bunda xolstni tez va sifatli tortish mumkin. Agar bu asbob bo'lmagan taqdirda ham uni an'anaviy usulda duradgor

bolg'asi va mixchalar yordamida ham tortsa bo'ladi. Burchakkacha yetgandan keyin matoni ramka uchiga qarab barmoqlar bilan tortib yog'ochning avval yon tomoniga, so'ngra orqa tomoniga qayrilib, taxlanib qolgan mato ustidan mix yoki steplerda qotiriladi. Ortiqcha matolar osilib xunuk ko'rinib qolmasligi uchun qaychi yoki maxsus pichoqda (-rasm) qirqib tashlanadi.



-rasm





-rasm

III.2. GRUNTLAR

Matoni gruntlash. Moyli bo‘yoqlar bilan rangtasvir ishlash uchun maxsus tayyorlangan ashyolar - mato, taxta yoki qalin qog‘oz bo‘lish shart. Bular orasida eng keng tarqalgani – mato (xolst). Uni ishga tayyorlash uchun suyuq yelim va oq bo‘yoq kukunidan maxsus qorishma (grunt) tayyorlanadi. Har qanday xolst yuzasini grunt yordamida kerakli qalinlikda yopa olish mumkin. Grunt xolst yuzasi va moybo‘yoq o‘rtasida o‘zaro bog‘lovchi ham to‘siq vazifasini bajaradi. Shuningdek, bunday gruntlar bo‘yoqni shimib ketmasligi uchun qog‘oz, yog‘och fanera yoki karton yuzasida ham himoya qatlami sifatida juda muhim. Bir-birini kesishadigan ikki qatlam yopilgan grunt, xolst yuzasida bo‘yoqni ushlab qoluvchi tabiiy “tish” vazifasini o‘tovchi xira va quruq holdagi yopishqoq yuza hosil qiladi.¹⁴ Gruntlashdan avvalo mato tag romga tortiladi.

Matoni tag romga yaxshilab tortgandan so‘ng, matodagi ip tugunchalarini qumqog‘oz - pemza orqali tekislanadi va qirib, so‘ng toza jelatin yoki baliq yelimi eritmasi tayyorlanadi. U sovitib, quyushgandan so‘ng, yelim eritmasi enli mastixin yoki shetinali fleys orqali matoga surtiladi.

Yelim: eritma tayyorlash jarayoni:

1. Yelim; jelatin yoki baliq yelimi 5 gramm.
2. Suv 95 gramm.

¹⁴ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 64

3. Antiseptiklar (fenol, katamin yoki bo‘r kislotasi) 0,02 gr.

Shish a bankaga yuqorida ko‘rsatilgan retsept bo‘yicha baliq yelimi yoki toza jelatin va suv so lib ivitiladi (jelatin uchun 1 soat, baliq yelimi esa ko‘proq ivitiladi).

Boshqa bir idish ichiga to‘rt buklab sochiq solinadi va ushbu sochiq ustiga bankadagi uvitilgan yelimni quyiladi, so‘ng idishga banka ichidagi eritma chegarasiga yetguncha sekin-asta suv quyiladi, keyin idishni ochiq olovga yoki elektr plitaga qo‘yib, idishdagi suv qaynab chiqquncha qizdiriladi. qaynab chiqishi bilan elektr plita o‘chiriladi (ko‘p qaynatilsa, eritma yopishqoqlik xususiyatini yo‘qotadi). So‘ng eritmaga antiseptik fenol qo‘shiladi. Emulsiyali va yelim gruntlar uchun yuqorida ko‘rsatilgandek eritma tayyorlanadi va bo‘r, pigment, rux kabi to‘ldiruvchilar qo‘shiladi.

Yelimli grunt N566

Qatlamlar	Baliq yelimi	Suv	Rux	Bo‘r	Antiseptik (fenol)
Yelimlash 2 qatiam	1	17	-	-	0,01
Grunt 3 qatiam	1	17	2,5-4	2,5-4	0,01

Emulsiyali grunt N443

Qatlamlar	Baliq yelimi	Suv	Kungaboqar quyuq moyi	Rux oqartiruvchi	Bo‘r	Antiseptik (fenol)
Yelimlash 2 qatiam	1	17	-		-	0,01
Grunt 3 qatiam	1	17	1,2-1,5	2-3	2-3	0,01

Izoh: Baliq yelimi topilmasa, toza jelatin ishlatsa ham bo‘ladi.

Antiseptiklar: katamin, fenol, boor kislotasi (qurug‘i). Grunt tayyorlashda retseptda ko‘rsatilganlarga va birin-ketinlikka rioya qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yelimli grunt tayyorlash

Baliq yelimi yoki jelatinli eritmani tayyorlab, antiseptik qo‘shiladi va rux (sink) kukuni, keyin bo‘r qo‘shib, yaxshilab aralashtiriladiz. Tayyor bo‘lgan grunt shetina fleysi orqali oldindan yelim eritmasi surtilgan mato yuzasiga surkaymiz, qurigandan so‘ng yana 2 marta grunt beramiz.

1. Matoni yelimlashdan maqsad, undagi teshik oraliqlarini yopish.
2. Gruntlash esa rangtasvir uchun to‘shak vazifasini bajaradi.

Yemulsiyali grunt

Yuqorida ko'rsatilgandek, baliq yelimi yoki jelatin eritiladi keyin eritmaga kungaboqarning quyultirilgan moyi qo'shiladi va antiseptik qo'shib aralashtiriladi, so'ngra ketma-ketlik bilan rux (sink), bo'r qo'shib, uzoq vaqt yaxshilab emulgator yordamida aralashtiriladi. Aralashma sovib meyoriga yetgach, emulsiyali grunt ishlatish uchun tayyor bo'ladi.

Kazeinli grunt № 439

Qatlamlar	Kazein yelimi	Suv	Nashatir 25%	Rux	Bo'r	Fenol	Glitserin
Yelimlash 1 qat lam	1	10	0,4			0,01	0,2
Grunt 3 qatlam	1	10	0,4	2,5	2,5	0,01	-


Yuqorida ko'rsatilgan kazeinli gruntning retsept bo'yicha tayyorlash.

Yelimlash uchun 1 kv metrda taxminan 30-35 g kazein yelimi ketadi, shuni inobatga olgan holda miqdori hisoblanadi.

Shisha bankaga kazein yelimini solib, suv quyasiz va nashatir solasiz, shisha yoki yog'och cho'p bilan aralashtirasiz (faqat temir bo'lmasligi kerak). Yuqorida qayd etilganidek, idishga sochiqni to'rt buklab solib, tayyorlangan bankadagi aralashma sochiq usiga qo'yiladi. Idishga bankadagi aralashma chegarasiga yetguncha suv quyiladi va uni elektr plitada qizdiriladi, meyoriga yetguncha aralashtirib turiladi. Tayyor bo'lgan eritma elakdan o'tkaziladi, yelim elakdan to'liq o'tsa, demak, eritma meyorida, agar kazein elakda ko'p qolgan bo'lsa, uni yana takroran meyoriga yetguncha qizdiriladi.

Tayyor bo'lgan eritmani matoga surtiladi. Qurigandan keyin, yuqorida qayd etilgandek, grunt uchun eritma tayyorlanadi va unga rux (sink), bo'r qo'shib, emulgator orqali uzoq aralashtiriladi. Tayyor bo'lgandan so'ng grunt shetinali fleys bilan mato yuzasiga surtiladi. Grunt qurigandan keyin yana 2 qatlam grunt surtiladi.

Hozirgi paytda sotuvda tayyor gruntovkalar ham sotiladi. Buning eng yaxshi tomoni u tayyor bo'lib ishlatish va saqlash uchun juda qulay. Agar quyruq qaymoq holiga kelib qolgudek bo'lsa gruntga ozgina



suv aralashtirib suyultirib olib, uy sharoitida mo'yqalam bilan xolst yuzasini yengil yopishingiz mumkin. Tayyor gruntni uzoq vaqt foydalanish uchun qopqog'i zich yopiladigan plastik idishlarda saqlanadi. Gruntni xolstning avval qisqa tomoni va keyin uzun tomoni bo'ylab bir-birini kesishadigan qatlamlar hosil qilib kamida ikki marta yopish kerak. Har bir qatlam mo'yqalam yordamida yuzadagi notekis chuqurlarni to'ldirib borish uchun xolst to'qilgan iplariga parallel holda surkaladi. Keyingi qo'shimcha qatlamni yopishdan oldin gruntning yaxshilab qurishini kuting (odatda grunt kamida 40 minutdan bir soatgacha bo'lgan vaqtda quriydi). Yuzada hosil bo'lgan har qanday bo'rtiq joylar, chiqib qolgan qil yoki mato iplarini yo'qotish uchun mayda tishli (200-220 qattqlik) qumqog'ozdan foydalaning. Hech qanday dog' qolmaganligiga ishonch hosil qilish uchun barmoqlaringiz uchi bilan gruntlangan yuzani tekshirib ko'ring. Grunt yaxshi qurigandan keyin yuza moybo'yoqda rangtasir ishlash uchun tayyor holga keladi.¹⁵

Rangli gruntni Yevropadagi uyg'onish davri rassomlari ko'p qo'llashgan. Lekin hozirda ham bunday gruntlar rassomlarni qiziqtirib, ko'pgina zamonaviy rassomlar ham bunday gruntli xolstlarga ishlashni xush ko'rishadi. Toza oq grunt yupqa suyuq rang bilan yopilgan bo'yoq qatlamini tagidan yoritilishiga yordam beradi. Xolstning chuqur yuzalarida mayda oq dog'lar qolib ketmasligi uchun oq grunt ustidan birinchi xomaki rangli bo'yoq surkalganda juda sinchkovlik bilan yopish talab qilinadi. Kartinani boshlashdan oldin oq gruntga berilgan rang qo'shimcha optik ranglar hosil qilish imkonini beradi. Gruntovka ustidan rang berish ancha oson. Akril bo'yog'i (yoki rangli grunt) va moybo'yoq aralashtirib xolstga rang beruvchi ikki usul mavjud.

Akril bo'yog'ining afzal tomoni nafaqat uning tez qurishi (ikki soat), yuzadagi bo'yoqni olish xususiyatini buzmaydi va bu bilan rangtasvirda ishlashning birinchi qatlamlaridanoq ma'lum darajada suyultirgichni qo'shib



¹⁵ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. S. 64

ishlatish mumkin bo‘ladi (“yog‘ ustida ishlash”ga qarang). Buzilgan joylarni to‘g‘irlamoqchi bo‘lganingizda yuzani tirnab yoki gruntovka qatlamini ko‘chirib yubormaslikka harakat qiling.¹⁶

Uyg‘onish davri rassomlari asarlaridan nusxa ko‘chirganda uning grunt qatlami qanday rang ekanligiga ham yaxshilab e‘tibor bering. Bunda ko‘pincha asosga mars qorasi va oq bo‘yoqdan tayyorlangan marvaridsimon kulrang, kuydirilgan siyenadan qizg‘ish jigarrang va kuydirilgan umbradan tayyorlangan iliq qizg‘ish qo‘ng‘ir tusdagi an‘anaviy rang berish usuli qo‘llanilgani ma‘qul. Sahifadagi suratga qarang.

Rangli asosni tayyorlashda yelimli gruntlarning keyinchalik moybo‘yoqning gruntga so‘rilib ketib, xiralashishiga sabab bo‘ladigan xususiyati bo‘lganligi uchun bo‘yoqqa eritgich qo‘shib moybo‘yoqli (oq grunt va moybo‘yoq) grunt tayyorlanadi. Ba‘zan berilgan bo‘yoq qurigandan so‘ng grunt yuzasida to‘q yashil xira tusdagi dog‘lar paydo bo‘lishi kuzatiladi. Oq grunt rangidan unumli foydalanish uchun moybo‘yoqda tarkibidagi suyultirgich yuzada yoyilib hosil qilgan dog‘ni yo‘qoting yoki qo‘shimcha yana bir bor bo‘yab chiqing.

Qaysi usuldan foydalanishingizdan qat‘iy nazar har qanday yupqa berilgan rang jarangdorligini yo‘qotmasligi uchun asos sifatli darajada bo‘yalishi lozim. Xolstning butun yuzasi va yonlariga yetishi uchun yetarli miqdorda rang tayyorlab oling. Bu degani kam bo‘yoq aralashmasi tayyorlab yetmay qolganidan, ko‘p tayyorlab ortib qolgani afzal. Ortib qolgan bo‘yoqni har qanday vaqtda tezkor ranglavhalar uchun boshqa kichik xolstlarga rang berish va qo‘shimcha ranglar tayyorlashda sinab ko‘rish uchun foydalanish mumkin.¹⁷

Yaxshi grunt qilingan xolst ustidan tus berish uchun oxirgi qatlamda tayyor rangli bo‘yoqdan foydalanish mumkin. Bu xolst ustida moybo‘yoqda ishlashni yengillashtiradi. Lekin u xolstning yuzasini butkul yopishi sababli oq grunt yuzasida maxsus optik ranglar hosil qilishning iloji bo‘lmaydi.

Kadmiy zarg‘aldoq rang bilan tuslangan yuzadagi optik natijani solishtirganda, yuqorida bo‘yoq grunt yuzasini butunlay yopgan. Pastda esa qurigan bo‘yoq oq grunt yuzasining barcha qismini birdek yopmaganligi va yuzada dog‘ paydo bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin.¹⁸ O‘ng tomondagi suratga qarang.

Gruntlashdagi qoida: Grunt qatlami qalin bo‘lishi kerak emas, faqat teshik yopilsa bas.

¹⁶ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. S. 64

¹⁷ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. S. 67

¹⁸ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. S. 71

O'tgan asrda yashab manzara janrida ijod qilgan O'. Tansiqboyev fabrikada tayyorlangan matolardan ko'p foydalangan bo'lsada, bu tayyor matolarning sifati uni qoniqtirmadi va keyinchalik asosan qo'lda maxsus to'qilgan matodan foydalanishga o'tdi. Rassom bu matolarni o'zi gruntlab ishlov bergan. U dastlab romga ko'ngildagidek sirilgan matoga maxsus yelim surtib chiqqan. Keyin yana yelimli suyuqlik bilan qoplagan. Har ikki jarayonda ham mato tobiga keltirib quritilgan. Mato to'qimasining qili yoki bo'rtganjoyi bo'lsa maxsus ishlov vositasida yo'qotgan va yana quritgan. Nihoyai so'ngi bor yelimli suyuqlik surtgan. Shu jarayon poyoniga yetgach, qaymoqqa monand maxsus oq eritma tayyorlagan. Buning tarkibida yelim, qo'rg'oshinli oq belila va ozgina miqdorda glitserin bo'lgan. Glitserin asosan tayyorlanayotgan suyuqlikning elastik bo'lishi uchun xizmat qilgan. Haligi yelimlangan xolstning butun sathiga suyuqlik qattiq mo'yqalam bilan uch marotaba surtib chiqilgan. Dastlabki surtilgan suyuqlik yaxshilab quritilgan va mato silliqlangan. So'ngra matoga ikki marotaba suyuqlik bergan. Shu jarayonlardan keyin o'n besh kun atrofida so'ngi bor quritilgan. Xolst shundan keyingina rangtasvir yozishga tayyor bo'lgan¹⁹ – deb yozadi Habib Karimov o'zining “Ajoyib kishilar hayotidan” deb nomlangan kitobida.

III.3. MOYBO'YOQDA ISHLASH

Asosga rang berish. Gruntli asosga rang berish uchun moybo'yoq, yuqori sifatli, hidsiz uayt-spirit (“Eritgichlar bo'limiga qarang”) hamda kanop moyi 50-50 miqdorda qo'shib tayyorlanadi. Bunda eritgich bo'yoqning yuzada yaxshi yurishi uchun, moyli tarkib bo'yoqning xira tortib qolmasligini ta'minlaydi (o'sha shifaga qarang). Bu holda o'z palitrangizdan chiqarib tashlashni mo'ljallagan arzon bo'yoqlarni ishlatib yuborishga imkon tug'diradi. Bo'yoq aralashmasini shisha palitra ustida mastixin bilan yaxshilab aralastiring.

Agar tayyorlangan bo'yoq qorishmasi haddan tashqari quyuq bo'lsa yupqa qatlam hosil bo'lishi uchun unga ozgina eritgich qo'shib suyultiring. Agar tayyorlangan bo'yoq “quruq” bo'lib yuzada tez so'rilib ketsa unga ozgina moy qo'shing. Bo'yalgan yuzada bo'yoq mo'yqalam bilan oq gruntga surkalganda, yarim shaffof ko'rinishdagi bo'yoq tagidan oq grunt sezilib turishi lozim. Tiniq bo'yoq ostidan xira ko'rinib turgan grunt rangi rangtasvirning yanada jonli chiqishiga yordam beradi. Unga oq rangning qo'shilishi esa yuzada xira va bo'g'iq rang hosil bo'lishiga olib keladi.

Bo'yoqni yuzaga surkashda sintetik neylon mo'yqalamdan (kamida bir dyum) foydalangan afzal. Birinchidan bo'yoqning mayda zarralari xolst yuzasidagi notekis chuqurchalargacha kirib boradi. Keyingi bosqichda enli mo'yqalam bilan xolstni uzunasiga mo'yqalam izini qoldirmasdan u burchagidan oxirigacha butun yuza bo'ylab bir tekisda silliq qilib rang beriladi. Ba'zi qismlarida ochartirish yoki to'qlashtirish, yoki unga harorat baxsh etib (sovuqdan iliqqacha bo'lgan) har xil

¹⁹ X. Karimov. “Ў. Тансиқбоев”, “Ёш гвардия” нашриёти; Т-1978. 92-бет

tuslarni hosil qilish uchun mo'yqalamni har xil bosimda bosib bo'yoq surkaladi, kerakli joylar silliqalanadi.

Shuni esdan chiqarmangki, xolst yuzasiga ishlov bergandek uning yon tomoni (asosan molbertda ko'p sirg'aladigan tag qismi) juda sinchkovlik bilan qalin qatlamda bo'yaladi. Undan keyin bo'yalgan xolstni devorga suyab yoki polga yotqizib qo'ygan holda yaxshilab quritiladi. Mo'yqalamni avval eritgichda keyin suvda tozalab yuviladi.²⁰

Moybo'yoq. Moybo'yoqda ishlaganda kerakli joylarda yupqa qatlamda suyuq ishlash yoki qalin qatlamdagi keng rang dog'lari qo'yish, hamda bu ikki usulni birga qo'llash ham mumkin. Hozirgi paytda moybo'yoqning keng assortimentdagi turli ranglari mavjud. Bu bo'yoqlar pigmentlarning kuchiga qarab yaltirashi va yopish xususiyatlari har xil darajada bo'ladi. Rangtasvir asari yaxshi chiqishini ta'minlash uchun bo'yoqni tanlaganda professional rassomlar uchun chiqarilgan bo'yoqni tanlash kerak bo'ladi.

Talabalar va qiziquvchilar uchun **AKADEMIE OL COLOR** yo'nalishi bo'yicha Germaniyada **AKADEMIE OL COLOR**, Schmincke, Niderlandiyala **VAN GOGH**, Talens, Angiyada **GEORGIAN**, Daler-roynew, Italiyada **CLASSICO**, **MAIMERI**, Rossiyada **LADOGA**, Badiiy bo'yoqlar zavodi (**ZXK**), **STUDIYA**, **Gamma**, **KRASKA MASLYANAYA DLYA JIVOPISI**, **Podolsk Art-Sentr** mahsuloti bo'lgan sifatli moybo'yoqlar ishlab chiqiladi.

Professional rassomlar uchun esa **NORMA PROFESSIONAL** yo'nalishi bo'yicha Germaniyada **NORMA PROFESSIONAL**, Schmincke, Niderlandiyada **REMBRANDT**, Talens, Angliyada **ARTISTS**, Daler-roynew, Rossiyada **MASTER-KLASS**, Badiiy bo'yoqlar (**ZXK**), **STARIY MASTER**, **Gamma** mahsuloti bo'lgan sifati juda yuqori bo'lgan moybo'yoqlar ishlab chiqariladi.

Rangtasvir uchun moybo'yoqlar rangi va nomlanishi.

Ranglar nomi va badiiy bo'yoqlar nomlanishi har doim ham bir-biriga to'g'ri kelavermaydi. Bo'yoqlar nomi ko'pincha u olinadigan narsalar nomi bilan ataladi. Ma'lumki tabiiy tuproq, tosh va o'simliklarni quritib tayyorlanadigan kukunlardan va sun'iy yo'llar bilan olinadigan bo'yoqlar mavjud. Bu ham ko'pincha bo'yoqning qanday nomlanishiga sabab bo'ladi. Quyida uch tilda qadimdan ishlatilib kelinadigan va zamonaviy fabrikalarda tayyorlanadigan badiiy bo'yoqlar nomlanishi ko'rsatilgan:

O'zbek tilida	Na russkom yazike	On english
OQ BO'YOQ	BELIYE	WHITE
Titan oq bo'yog'i	Titanoviye belila	titanic whitewash Titanium ceruse

²⁰ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. S. 74

Ruxli oq bo‘yoq	Sinkoviye belila (prozrachniy)	zinc whitewash (transparent)
Qo‘rg‘oshinli oq bo‘yoq	Belila svinsoviye	White lead
Barit oq mineralli bo‘yoq	Baritoviye belila	White barite
Kaolinli oq bo‘yoq	Kaolinoviye belila	Kaolin white
QIZIL:	KRASNIYE:	RED:
Kraplak qizil	Kraplak krasniy	Madder lake red
Siyohrang kraplak	Kraplak fioletoviy	Madder lake purple
Kinovar	Kinovar	Cinnabar
Och qizil kadmiy	Kadmiy krasniy svetliy	Cadmium red light
To‘q kadmiy qizil	Kadmiy krasniy tyomniy	Cadmium red deep
Purpurli to‘q qizil	Kadmiy krasniy purpurniy	Cadmium red purple
Kadmiy qizil	Kadmiy krasniy	Cadmium red
Kadmiy zarg‘aldoq	Kadmiy oranjeviy	Cadmium orange
Tionid pushtirang	Tioindigo rozovaya	The thyoindigo pink
SARIQ:	JYOLTIYE:	YELLOW:
Limonrang kadmiy	Kadmiy limonniy	Cadmium lemon
Sariq kadmiy	Kadmiy jyolтий	Cadmium yellow
To‘q sariq kadmiy	Kadmiy jyolтий tyomniy	Cadmium yellow deep
O‘rtacha sariq kadmiy	Kadmiy jyolтий sredniy	Cadmium yellow medium
Och sariq kadmiy	Kadmiy jyolтий svetliy	Cadmium yellow light
Stronsian sarig‘i	Stronsianovaya jyoltaya	Strontium yellow
Neopolitan sarig‘i	Neapolitanskaya jyoltaya	Naples yellow
Aureolin (sariq kobalt)	Aureolin (jyolтий kobalt)	Aureolin (cobalt yellow)
Hind sarig‘i	Indiyskaya jyoltaya	Indian yellow
Tillarang sariq	Zolotistaya jyoltaya	Golden yellow
YASHIL:	ZELYONIYE:	GREEN:
Zumrad yashil	Izumrudnaya zelyonaya	Emerald green
“FS” yashil	Zelyonaya «FS»	Green "phthalocyanine"
Xrom oksidi	Okis xroma	Oxide of chromium
Yashil kobalt	Kobalt zelyoniy	Cobalt green
Och yashil kobalt	Kobalt zelyoniy svetliy	Cobalt green light
To‘q yashil kobalt	Kobalt zelyoniy tyomniy	Cobalt green dark
Ko‘kish yashil kobalt	Kobalt sine-zeleniy	Cobalt blue-green
Kadmiyli marganets	Margansevo-kadmiyevaya	Manganese-cadmium
Tuproqsimon yashil	Zelyonaya zemlya	Green earth
volkonskoit	Volkonskoit	Volchonskoite
Viridon yashili	Viridonovaya zelenaya	Viridian
KO‘K:	SINIYE:	BLUE:
Ultramarin	Ultramarin	Ultramarine

Ko‘k kobalt	Kobalt siniy	Cobalt blue
Havorang «FS»	Golubaya «FS»	Blue is "phthalo"
Havorang marganets	Margansevaya golubaya	Manganese blue
Sereleum	Seruleum	Ceruleum blue
Berlin lazuri	Berlinskaya lazur	Prussian blue
Parij ko‘k rangi	Parijskaya sinyaya	Parisian blue
Milori	Milori	Milori
Indigo	Indigo	Indigo
SIYOHRANG:	FIOLETOVIYE:	PURPLE:
To‘q siyohrang kobalt	Kobalt fioletoviy tyomniy	Cobalt violet dark
Och siyohrang kobalt	Kobalt fioletoviy svetliy	Cobalt violet light
Mineralli siyohrang	Mineralnaya fioletovaya	Mineral violet
JIGARRANG:	KORICHNEVIYE	BROWN:
Mars sarig‘i	Mars jyolтий	Mars yellow
Zarg‘aldoq mars	Mars oranjeviy	Mars orange
Siyohrang mars	Mars fioletoviy	Mars violet
Shaffof to‘q jigarrang mars	Mars korichneviy tyomniy prozrachniy	Mars brown deep, transparent
Angliya qizili	Angliyskaya krasnaya	English red
Hind qizili	Indiyskaya krasnaya	Indian red
Venetsiya qizili	Venetsianskaya krasnaya	Venetian red
Shaxnazar qizili	Shaxnazarskaya krasnaya	Shakhnazarskaya red
Gutankar qizili	Gutankarskaya krasnaya	Gutangira red
Metskar qizili	Metskarskaya krasnaya	Markarska red
Shamshatsin qizili	Shamshatsinskaya krasnaya	Samazina red
Chaykent qizili	Chaykentskaya vishnyovaya	Chicotsky cherry
Serpuxova qizili	Serpuxovskaya krasnaya	Serpukhovskaya red
Sxaltubsk qizili	Sxaltubskaya krasnaya	Tskaltubo red
Agarak qizili	Agarakskaya krasnaya	Agarak red
Kdinova jigarrangi	Kudinovskaya korichnevaya	Kudinovskiy brown
Gutankar siyohrangi	Gutankarskaya fioletovaya	Gutangira purple
Kaput-mortum	Kaput-mortuum	Caput mortuum
Arzakan sarig‘i	Arzakanskaya jyoltaya	Arzamasskaya yellow
Tanzut sarig‘i	Tandzutskaya jyoltaya	Tanjuska yellow
Tumanyan sarig‘i	Tumanyanskaya jyoltaya	Tumanjana yellow
Malishkin sarig‘i	Malishkinskaya jyoltaya	Malyshkina yellow

Och oxra	Oxra svetlaya	Light ochre
Tillarang oxra	Oxra zolotistaya	Gold ochre
To‘q oxra	Oxra tyomnaya	Deep ochre
Qizil oxra	Oxra krasnaya	Red ochre
Kuydirilgan oxra	Oxra jjenaya	Ochre burnt
Tabiiy siyena	Siyena naturalnaya	Sienna
Kuydirilgan siyena	Siyena jjenaya	Burnt Sienna
Tabiiy umbra	Umbra naturalnaya	Raw umber
Kuydirilgan umbra	Umbra jjenaya	Burnt umber
Feodosiyo jigarrangi	Feodosiyskaya korichnevaya	Theodosia brown
Van-dik jigarrangi	Van-dik korichneviy	Vandyke brown
Xotkov jigarrangi	Xotkovskaya korichnevaya	Meeting them brown
Arxangelsk jigarrangi	Arxangelskaya korichnevaya	Arkhangelsk brown
Kuydirilgan suyak	Kost jjonaya	Ivory black
Temirli surik	Surik jelezniy	Minium iron
Bolyus qizili	Bolyus krasniy	Bolus red
Sepiya	Sepiya	Sepia
QORA:	CHYORNIYE:	BLACK:
Uzum qorasi	Vinogradnaya chyornaya	Grape black
Shaftoli qorasi	Persikovaya chyornaya	Peach black
Gaz qurumi	Saja gazovaya	Black gas
Podolsk qorasi	Podolskaya chyornaya	Podolskaya black
Zvenigorod qorasi	Zvenigorodskaya chyornaya	Zvenigorod black
Shungit	Shungit	Shungite
Tionid qorasi	Tionidogo chyornaya	The thyoindigo black

Tavsiya etiladigan ranglar. Yana bir nechta qo‘shimcha ranglarni hosil qilish mumkin bo‘lgan quyidagi 15 ta rang rassom uchun asosiy ranglar hisoblanadi. Lekin hohishingizga qarab boshqa ranglarni ham palitrangizga qo‘shishingiz mumkin. Titan oq bo‘yog‘ini katta tubada oling, chunki ranglarni ochartirib ishlash uchun bu bo‘yoqni ko‘p ishlatishingizga to‘g‘ri keladi. .



Moybo‘yoqdan manzarachi rassom O‘. Tansiqboyev dastgohli asarlarida asosan quyidagi bo‘yoqlardan foydalanardi:

Oq rangda- ruxli oq bo‘yoq va qo‘rg‘oshinli oq bo‘yoqdan. Ish jarayonida asosan ruxli oq bo‘yoqdan, pardoqlashda esa qo‘rg‘oshinli oq bo‘yoqdan foydalanardi.

Sariq rangda - yorqin oxra, oltin rang oxra, sariq mars, qo‘ng‘irang mars, sariq, kadmiy, neopolitan sarig‘i, hind sarig‘i, oltinsimon sariqni qo‘llagan. Sarg‘ish tusli yengil metallardan tayyorlangan och sovuq rangni esa umuman yoqtirmagan. Chunki, bu rang keyinchalik tabiiy havo bilan reaksiyaga kirishib, yashilsimon tusga kirgan.

Qizil rangda- venetsian qizil tuproq, pussuolli qizil tuproq, och qizil, bo‘g‘iqroq qizil, sun‘iy simob sulfiddan tayyorlangan qizil bo‘yoq va qizil kadmiydan.

Havo rangda - ultramarin, havo rang kobalt, to‘q havo rang kobalt va azuritli lazurdan.

Gunafsha rangda - yorqin gunafsha rang kobalt va bo‘g‘iq gunafsha rang kobaltdan.

Ko‘k rangda- veronsk ko‘k tuprog‘i, gruzin ko‘k tuprog‘i, arman ko‘k tuprog‘i, ko‘k aobalt, bo‘g‘iq ko‘k kobalt, va zumrad rang ko‘kdan. Xrom eritmasini esa juda kam qo‘llagan.

Jigar rangda - yorqin hamda bo‘g‘iq jigarrang mars, jigarrang tuproq, tabiiy umbra, kuydirilgan umbra, tabiiy va kuydirilgan jigarrang bo‘yoqdan.

Qora rangda- shaftoli danagining kuydirilgani, charos rang, kuydirilgan suyakdan tayyorlangan bo‘yoqdan ko‘p foydalanardi. Rassomga ayniqsa arman va gruzin ko‘k tuprog‘i, xotkov jigarrang tuprog‘i ma‘qul kelgan hamda fransuz va ingliz Vinzor firmalari tayyorlagan moy bo‘yoqlarda ishlashni ma‘qul ko‘rgan. Bu moyli bo‘yoqlar pastasi artishga soz va rangi rassomning istagidagidek bo‘lgan.²¹

Moybo‘yoqning o‘zgarishi

Tuba idishdagi moybo‘yoqlar mayinligi, yumshoqlik xususiyatlarini o‘rtacha 1 yildan 5 yilgacha yo‘qotmaydi. Bu vaqt ichidabo‘yoq ozgina quyushishi va sal yaltirashi kamayishi mumkin. U holda uni razbavitel suyultirgichi bilan o‘z

²¹ X. Каримов. “Ў. Тансиқбоев”, “Ёш гвардия” нашриёти; Т-1978. 92-93-бетлар

holatiga keltirib olish mumkin. Qanday qalinlikda qo'yilishiga qarab, moybo'yoqning qurishi bir necha kundan bir necha haftalargacha cho'zilishi mumkin. Odatda unga ta'sir qilayotgan muhit va bo'yoq qalinligiga qarab moybo'yoqlarda 3-7 kunda ustki qatlami qurib, plyonka hosil bo'ladi. Butunlay qotishi bir necha oylarga cho'zilishi mumkin. Alkidli bo'yoqlar nisbatan tezroq quriydi.

Rangtasvir uchun mo'yqalamlar. Mo'yqalam rassomlarning eng qadimiy aslahalaridan biri bo'lib, tuzilishi oddiy bo'lgan bu aslaha hozirgacha o'z ko'rinishini saqlab qolgan. Rangtasvir ishlash texnikasida kompozitsiyaning yaxshi chiqishi uchun mo'yqalam sifati va rassomning bu aslaha imkoniyatlarini sezishi va bilishiga bog'liq. Mo'yqalamlar ikki xil turga bo'linib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlariga mo'ljallangan. Akvarel bilan ishlashda maxsus akvarel mo'yqalamlaridan foydalanish lozim. Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq shaklda bo'lib, mo'ynasi uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va bu mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi. Mo'yqalam bilan tasvir chizganda qog'ozning yuzi buzilmasligi uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshoq yunglardan yasaladi.

Akvarel mo'yqalamning kolonok, olmaxon, savsar, mo'ynalaridan yasalgan turlari mavjud.



Mo'yqalamning yana bir turi moyli bo'yoqlar uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar bo'lib kurakchasimon va yumaloq shaklda bo'ladi. Mo'yqalamlarning bandida raqami bo'ladi. Bu raqam mo'yqalam mo'y qismining kengligini bildiradi. Raqamlardagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi.

Shuning uchun moyli bo'yoqlar va akvarel bilan ishlashda mo'yqalamning kerakli raqami yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi.

Rangtasvirda ishlashning har xil bosqichida unga mos alohida mo'yqalamdan foydalanib siz tasviriy san'at ashyolarida ishlash tajribangizni oshirib borasiz. Qattiq to'ng'iz junidan tayyorlangan eski mo'yqalam oq grunt ustidan katta yuzalarni yopish uchun juda qulay. Uchi yumshoq dumaloq shaklli mo'yqalam

bo'lutlar chetini yumshatib ishlash yoki bo'yoq bilan ho'l yuzada (suvdagi aks ko'rinishlari) ishlash uchun qulay. Kuraksimon mo'yqalamlar bilan kompozitsiyada keng, katta va yaxlit rang surtmalari (toshli qirg'oqlar ko'rinishi) qo'yiladi. Undan tashqari dumaloq uchli kichik o'lchamdagi mo'yqalamlar kompozitsiyaagi o't-o'lanlar, shoxchalar kabi mayda bo'laklarni ishlashga mo'ljallangan.

Do'kondan mo'yqalam xarid qilayotganingizda rang qo'yishda yuzada iz qoldirmaydigan darajada yumshoq va mayinligini sinab ko'rish uchun qo'lingizning orqa tomoniga ehtiyotlik bilan bosib ko'rib olishingiz mumkin. Ko'proq va qalin rang surtmalari qo'yish uchun mo'yqalam junlari yetarli darajada zich va qattiq bo'lishi lozim. Nimani tasvirlamoqchi bo'lganingizga qarab kerakli o'lchamdagi mo'yqalamni tanlang. Masalan: kichik o'lchamdagi xolstlarda ranglavha ishlayotgan bo'lsangiz, shunga qarab kichik o'lchamdagi, katta o'lchamdagi xolstlar uchun katta o'lchamdagi mo'yqalamlar jamlanmasini tanlab olishingiz kerak bo'ladi. .

Tabiiyki rangtasvir ishlash jarayonidagi ishqalanish natijasida mo'yqalam uchlari yeyilib boradi. Agar ehtiyotkorlik bilan ishlatilsa eng arzon va sifatsiz mo'yqalamni ham o'z vaqtida yuvib, tozalab turilsa uzoq vaqt foydalanish mumkin. Rangtasvir ishlashni tugatgandan keyin mo'yqalamdagi qoldiq bo'yoqlarni latta bilan yaxshilab artib, idish tagida eritgich bilan chayqab yuviladi. Keyin iliq suvda sovun bilan yana bir bor yuviladi. Mo'yqalamdagi bo'yoq izlarini barmoq bilan siqib, bo'yoqdan tamoman tozalanmaguncha sovunli suvda yaxshilab yuving. So'ngra metall qismidagi bo'yoqni tozalang, uch qismini ehtiyotkorlik bilan ushlab mo'yqalamni aylantirib mo'ylar ichida ko'rinmay qolgan bo'yoqni yana bir bor tozalang. Butunlay bo'yoqdan tozalanmaguncha bu jarayonni bir necha bor qaytaring.²²

Moybo'yoqda ishlash uchun 6 dona atrofida mo'yqalam, 3 dona har xil o'lchamdagi mastixin kerak bo'ladi. Bundan tashqari bo'yoqni suyultirish hamda mo'yqalamlarni yuvish uchun razbavitel, artish uchun latta, bo'yoqlarni aralashtirish uchun palitra, kiyimga bo'yoq tegmasligi uchun xalat, qo'lga taqish uchun qo'lqop ham zarur.

²² Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. S. 80



Palitra. Palitra atamasi rangtasvirda kerakli rangni topish uchun bo‘yoq aralashtiriladigan maydon, rassomning yaratayotgan kartinasi uchun tanlagan ranglar jamlanmasi (nabor) degan ikki ma’noda ishlatiladi. Rang aralashtirish uchun palitra turadigan moslama (stul) molbertning ajralmas qismi hisoblanadi. Ko‘pchilik rassomlar mastixinda bo‘yoqlarni aralashtirib rang tayyorlash uchun shisha palitralarni xush ko‘rishadi. Ustaxonalarda kartina ishlash jarayonida bo‘yoq qotib qolmasligi uchun usti mahkam yopiladigan qutilar ichidagi (Misol uchun Masterson maydoni) shisha palitralardan foydalanishadi. Shisha palitralarni tayyorlab olganingizdan keyin bo‘yoqlarda yengil ishlash imkoniyatiga ega bo‘lasiz. (bo‘yoqlar qurib qolishidan saqlash uchun palitrangizni sovutgich xonasida yoki konteynerga plyonka qoplab qo‘ying.) Eng oddiy va qulay usullardan biri plastik konteynerga qog‘ozdan qopqoq qilib olib yurish ham saqlash va olib yurish uchun qulay.²³

Hozirgi paytda rangtasvirda ishlailadigan loklangan yog‘och fanera va plastiklardan yasalgan har xil o‘lcham va har xil shakldagi palitralar sotuvda mavjud. Har bir ish jarayonidan keyin palitrani albatta mastixin bilan tozalab, latta bilan artib ish maydonini tozalab qo‘yish zarur. Palitraga yopishtirib, ish tugaganidan keyin axlatga tashlab yuborish mumkin bo‘lgan moybo‘yoqdagi moyni shimib olmaydigan bir martalik yelimli qog‘ozni ishlatish ham qulay.

²³ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. S. 75

Akvarel guash bo‘yoqlari uchun maxsus chuqurchalari bo‘lgan palitralar ham ishlab chiqariladi.

“Rangtasvirda avvalom bor ranglarni o‘rinli tanlash, uni joyida ishlata bilish, tayyorlay bilish muhimdir” – degan edi O‘. Tansiqboyev. Men ranglarni quyidagicha joylashtirishga o‘rganganman. O‘ng tomonda rangli moybo‘yoq, o‘rtada oq bo‘yoq, chap tomonda xira rangdagi bo‘yoqlar bo‘ladi²⁴.

Rangtasvir ishlashda atrofiga bo‘yoqlar tartib bilan qo‘yilib, rangni aralashtirish uchun o‘rta qismida joy qoldirilgan palitradan foydalaniladi. Ranglarning palitrada joylashishi: soat yo‘nalishi bo‘yicha sariq tusli ranglar chapda, qizil tusdagi ranglar tepada, ko‘k va siyohrang o‘ngda, yashil ranglar past tomonda joylashgan.

OQ

- titan oqi (bekituvchan)
- ruxli oq (shaffof)

QORA

- fil suyagi qorasi
- Mars qorasi ili fonarniy cherniy

SOVUQ SARIQ

- och oxra
- shaffof sariq oksidi
- tillarang oxra
- tabiiy siyena

ISSIQ SARIQ

- kadmiy sariq
- kadmiy zarg‘aldoq
- oxra sariq

QIZIL

- alizarin to‘q qizildan iliq marena qiziligacha

Issiq qizil

- kadmiy qizil
- olovrang yorqin qizil

JIGARRANG

- kuydirilgan umbra
- kuydirilgan siyena
- Venetsiya qizili yoki hind qizili

SOVUQ TUSLI YASHIL

- viridian yashili
- terre yashil
- yashil oxra
- yashil umbra (Eski Gollandiya)

²⁴ X. Karimov. “Ў. Тансиқбоев”, “Ёш гвардия” нашриёти; Т-1978. 91-бет

- tabiiy umbra (Eski Gollandiya)

- phthalo yashil

ILIQ YASHIL

- yashil soki yoki yashil lojuvard (Eski Gollandiya)

SOVUQ TUSLI KO‘KLAR

- ultramarin

- kobalt ko‘k

- indanthrene blue

ILIQ TUSLI KO‘KLAR

- phthalo sinyaya ili Berlin lazuri

- indigo

- serelium

- ko‘kish siyohrang

SIYOHRANG

- Mars siyohrang

- siyohrang ultramarmn

- siyohrang marganets²⁵



²⁵ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. S. 79-80



Palitradan bo‘yoqlarni qirib olib tashlash va qalin bo‘yoq qatlamlarini qo‘yish uchun mastixin.

Bo‘yoq ustida moy surkash

Siz “yupqa qatlam ustida moy” tamoyili bilan tanish bo‘lgan holda, yupqa bo‘yoq qatlami ustidan qalin moy bilan aralashtirilgan bo‘yoq qatlamini qo‘ydingiz. Bu holda qo‘yilgan rang surtmalari ostki bo‘yoq qatlamlari bilan qanday ushlashadi? Bir soatda tugatishga mo‘ljallangan kartina ko‘p qatlamli bo‘lib ellik soatga cho‘zilib ketgishi mumkin. Ayniqsa siz yetuk rassomlarning ko‘pqatlamli asaridan nusxa ko‘chirayotganingizda ham bunday holat ko‘p uchraydi. Bu vaziyatda bo‘yoq qatlamini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan yupqa qatlam ustidan moy surkash jarayonini ko‘rib chiqamiz.

Ozroq suyultirgich aralashtirilib tayyorlangan, tuba idishlarga joylashtirilgan bo‘yoq ko‘pincha kompozitsiya eskizini ishlashda qo‘llaniladi. Idishda bo‘yoqqa nisbatan moy miqdori kam bo‘lganligi uchun uni “yupqalashtirilgan” bo‘yoq turi deb ataymiz. Bu bo‘yoq tez quriydi va keng rang surtmalari qo‘yilganda qurigandan keyin ham “yangi ho‘l bo‘yoq” hissini beradi. Ammo shuni esdan chiqarmaslik kerakki bog‘lovchi sifatida moy qo‘shilmagan bo‘yoqlar xolst yuzasiga yaxshi “yopishmaydi”. Suyultirgich bilan aralashtirilgan moybo‘yoq juda quruq yupqa qatlam hosil qilib, kartinaning changini artish yoki yuvish paytida tiralib dog‘lar hosil bo‘lishi mumkin.

Eskiz uchun bo‘yoqlar yana tez quriydigan Liquin yoki Galkyd mahsulotlaridan tayyorlangan bo‘lishi ham mumkin. Rangtasvirning birinchi bosqichlaridagi boshlang‘ich yupqa qatlamlar uchun moybo‘yoqqa tez quriydigan suyultirgichlarni qo‘shib ishlatishingiz mumkin, lekin o‘shanda ham bo‘yoq miqdori 50 foizdan kam bo‘lmasligi kerak. Chunki ular juda tez quriydi, hamda

bo'yoqqa ishlov berishda (20 minutdan 1 soatgacha) aralashtirish va ishni tugatish vaqtini kamaytiradi. Rang surtmalari ostidagi moybo'yoq qatlami ustidan qo'yilganda, moy bilan almashib ketishi sababli sun'iy eritkichlar asosidagi bog'lovchilik xususiyati kamayib ketadi.

Yupqa qo'yilgan rang surtmasi kartina ishlash bosqichining o'rta qismida yupqa qatlamdan qalin rang surtmalari qo'yib qalin bo'yoq fakturasi hosil qilishga o'tishning yana bir usuli hisoblanadi. Ustma-ust bir necha rang qatlamlari qo'yib ishlash mumkinligi moybo'yoqda rangtasvir ishlashning yana bir afzallik tomoni hisoblanadi. Bu rang qatlamlari nafaqat xolst yuzasida boy fakturalar balki optik ranglar hosil qilish imkoniyatini yaratadi. Agar bo'yoq yupqa qatlamda berilsa quruq va xira, qalin qatlamlarda berilsa bu yaltiroq va jarangdor ko'rinish hosil qiladi. Bu rangtasvirida qalin qo'yilgan bo'yoq qatlamlari qurishida nafaqat uzoq vaqt talab qilinishi, keyinchalik yorilib ketmasligi uchun qalin qatlam ustidan yupqa tez quriydigan rang qatlamlari qo'yilmasligini ham talab qiladi. Yupqa qo'yilgan rang qatlamlari hatto shaffof ranglar hosil qilish uchun unga qo'shimcha kanop moyi qo'shilgan taqdirda ham tez qurish xususiyatiga ega. Chunki bu oddiy rang emas, bu "moyli" bo'yoq. Undan yarim shaffof soya qismlar va daraxt پوستloqlari va qoyatosh yoriqlarini kabi mayda bo'laklarga ishlov berish jarayonlari uchun ishlatiladi. Bunday usulga oid ishlash usullariga oid misollar bilan tanishish uchun keyingi sahifalarga qarang.

Moybo'yoq rangtasviri ustidan ishlash

Bir necha senaslarda ko'plab qatlam bo'yoq surtmalari qo'yganingizdan keyin butun kompozitsiya ustidan "moy surkab chiqish" maqsadga muvofiq bo'ladi. qurigan yuzada ma'lum miqdordagi oddiy kanop moyini surkab chiqing. Bo'yoqlar ustidan barmoqlaringiz bilan paypaslab tekshirib ko'rganingizda quruq bo'lishi juda muhim. Bo'yoqlar yuzasida barmoqlaringiz uchi bilan muzdek joyni sezsangiz, demak o'sha joyda qotgan bo'yoq qatlami tagida qurib ulgurmagan. (shuni esdan chiqarmangki, akril bo'yog'i kabi tez qurishi uchun moybo'yoqda bug'lanish hosil bo'lmaydi, buning ustiga ortiqcha yutilgan kislorod molekulalarini jonlantiradi.) Tozalash yoki ishqalanish natijasida bu joydagi yopib turgan pardani yorilib ketish ehtimoli bo'ladi. Xolstni qiya holda ushlab yonidan qarasangiz bunday joylar yaltirab ko'rinadi, uni tozalamasdan avval ustidan moy surta ko'rmang. Moy bilan surkashdan oldin ammiakli suvda (bir miqdordagi ammiakni besh miqdordagi suv bilan) ho'llangan latta bilan ishqalash yupqa parda ostidagi "yuqoriga intilayotgan mayda munchoq" yaltiroq joylarni yo'qotishga yordam beradi. Keyin kanop moyini butun kartina yuzasi bo'ylab katta mo'yqalam yoki mayin lattada surkab chiqishingiz mumkin. Shuni esdan chiqarmangki moybo'yoqda ishlangan har qanday kartina yuzasi bir xil tekislikda qurishi kerak, aksincha yuqoridagiga o'xshash pufakchalar paydo bo'lishi mumkin.

Ustidan moy bilan surkash kartina yuzasida yaltirab ko'rinib turgan uncha to'q bo'lmagan (yig'ilib qotib qolgan moy) dog'lari hamda haddan tashqari kontrastlikning ham yo'qolishiga sabab bo'ladi. qurigan bo'yoq ustidan yangi rang

surtmalarini qo'yishingizda mo'yqalamning yengil yurishi uchun mayin yuza hosil qiladi. Mana shundan keyin hech qanday tez quruvchi bog'lovchilar ishlatilmay, ko'proq moyli bo'yoq aralashmasidan iborat qalin rang surtmalarini bemalol qo'yish mumkin bo'ladi.



Yuzani artishga ishlatish uchun yumshoq lattaning chetlarini yig'ib ushlanganda tomchiga o'xshash shakl hosil qilinadi. Bu lattani kartina

yuzasini moy bilan surkashdan oldin amiakli suv qoldiqlarini artib tashlash uchun ishlatiladi.

Yupqa qatlamda kanop moyi surkash natijasida xira, baxmalsimon yuzada boshqa och va to'q ranglar kontrastligi tiklanadi.²⁶

Eritgichlar. Bo'yoqlarga aralashtirish uchun faqat tozalangan yuqori sifatli, hidsiz uayt-spiritlardan (OMS) foydalanishingiz mumkin. Ular Turpenoid, Sansodor va Gamasol savdo belgilari bilan badiiy ashyolar sotiladigan barcha



do'konlarda uchraydi. Xo'jalik do'konlarida sotiladigan kam tozalangan eritgichlardan mo'yqalamlarni yuvishda foydalanganingiz ma'qul. Ishlatilgan kir eritgichlarni arag surtmalariga zinhor qo'sha ko'rmang, ular rang tarkibining xiralashishiga sabab bo'ladi. Eritgichning hidi chiqmasligi va spirti uchib ketmasligi uchun o'zingiz bilan har doim zich yopiladigan idishlarda olib yuring va uni faqat shamollab turadigan xonalardagina ishlatning. Teringizga zarar

²⁶Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. S. 101-103

yetkazmasligi uchun himoyalovchi krem (xo‘jalik do‘konlarida sotiladigan “suyuq qo‘lqop”) xarid qilib, rangtasirda ish boshlashdan oldin qo‘lingizga surkab olishingiz mumkin. Har bir seansni tugatgandan keyin qo‘lingizni sovunli iliq suvda yuvib yuring!

Ishlatilgan kir eritgichni tinitib, keyin juda sekinlik bilan boshqa idishga quyish bilan undagi tiniq va toza qismi ajratib olinadi. Eritgich uchun idish tagida qolgan qattiq bo‘yoq parchalarini qog‘oz sochiq bilan olib tozalanadi va u yana ishlash uchun tayyor bo‘ladi.

Moy ustidan qattiq rangtasvir qatlamini qurish bo‘yicha ko‘rsatmalar

- **Bo‘yoq bilan eritgichni qo‘shish:** oq yoki rangli grunt ustidan tasvir ishlash
- **Bo‘yoqqa eritgich va moy qo‘shish:** rangli grunt ustidan yaxlit ishlash yoki butunlay artib ishlash usulini qo‘llash.
- **Tubikdagi moybo‘yoq:** bo‘yoqni suyuq yedirma usulida, keyin oq (titan va rux) bo‘yoq bilan aralashtirib rang surtmalari qo‘yishda faqat qo‘shimcha kanop moyi bilan suyultiriladi.
- **Moyli bo‘yoqlar:** Kanop moyini qo‘shish yordamida asosan to‘q rangli bo‘yoqlarda kichik bo‘laklarning ingichka chiziqlarini chizish uchun bo‘yoqdagi tus shaffofligiga erishish tavsiya etiladi.
- **Rangtasvir ustidan moylash:** Kartina ishlash yakunida och va to‘q joylari, rang kontrastlarini tiklash uchun kanop toza moyi bilan umumiy ishlov beriladi
- **Qalin rang surtmalari:** Kartinani ishlash yakunida shaffof bo‘lmagan, qalin rang surtmalari qo‘yish.
- **Glazur:** Kartinaning ba’zi qismlarida iliqlik, sovuqlik hissini kuchaytirish yoki boshqa tomondan rang tusini boyitish uchun ishlatiladigan (kanop moyining boshqa turi) eritgich qo‘shilgan shaffof rang kukuni qorishmasi.²⁷

²⁷ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s. 107-108.

Bo‘yoqni aralashtirish, suyultirish uchun eritgich –razbavitel.



Razbavitel quyish uchun palitraga qistirib qo‘yiladigan idishcha. Ishlatib bo‘lgandan keyin bu idishchani ham lattada artib qo‘yilishi lozim.

Faktura – rangtasvir asarining jonli ifodalash usuli hisoblanadi.

Bugungi har xil texnologiyalar, tasvirlash vositalari, video, audiolarning yangi turlari paydo bo‘lib, imkoniyatlari kengayib borayotgan texnika asrida rassomlarga o‘z ishlari bilan tomashabinlar e‘tiborini qaratish ham taboro qiyinlashib bormoqda. Zamonaviy rassomlar o‘ziga xos muvoffaqiyatlarga erishish uchun tinimsiz yangi eksperimentlar ustida ishlashlariga to‘g‘ri kelmoqda. Rangtasvirning ifodali chiqishi uchun tasvirlash vositalari va usullarini yangi zamonaviy rangtasvir san‘atiga moslab ishlab chiqishdan iborat.

Faktura (lat. factūra – ishlov berish, tuzilish) – san’at asarining jonli chiqishi uchun kerakli bo‘lgan qiziqarli va zarur vositalardan biri hisoblanadi. Badiiy asarning sirtiga berilgan ishlov, uning o‘ziga xos xususiyati. Rassom ijodkor uchun o‘ta muhim hisoblangan, tomoshabinlarni hayratga solishi, his hayajon uyg‘otishi – bu asar va undagi buyumlar sirtining o‘ziga xos ko‘rinishi, holati yoki fakturasiga bog‘liq. Fakturaning ko‘plab xillari mavjud. u yoqimli yoki yoqimsiz, harakatchan yoki turg‘un, quvonchli yoki g‘amgin, dabdabali yoki egri bugri, mayin yoki g‘adir budur ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari fakturani bo‘yoq qatlamining mikrorelyefi, ya’ni tasvirlanayotgan obyektning sirtqi ko‘rinishi, yoki unga ma’lum shakli, hajm berish xususiyati deb ta’riflash mumkin. Bu bilan bo‘yoq qatlami yuzaning sirti xususiyati va uning umumiy qurilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Shakl va hajm fakturasi uyg‘unlikda tomashabinga ta’sir o‘tkazishi, his hayajonini uyg‘otib, ma’lum obrazlarni ko‘z oldiga kelishi, eslashiga sabab bo‘lishi mumkin. Fakturaning har xilligi va betakrorligi badiiy obrazlar yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. fakturani to‘g‘ri tanlash, demak materialni to‘g‘ri tanlash va to‘g‘ri ishlov berish o‘ylangan obrazni yaratishga yordam beradi.



shaklni ranglarsiz ko‘z oldimizga keltirishimiz qiyin, lekin aniq materialsiz va shaklsiz umuman mumkin emas. Fakturani material va rassomning ishlash usuli belgilaydi. Rassomning vazifasi an‘anaviy va zamonaviy materiallarning tarkibi, xususiyati, ishlatish texnologiyasini chuqur bilishi, amalda qo‘llashni o‘zlashtirishidan iborat.

Guash bo‘yog‘i va unda ishlash texnologiyasi

Guash fransuz tilidan olingan bo‘lib shaffof bo‘lmagan degan ma‘noni anglatib (fr. Gouache, ital. Guazzo suvli bo‘yoq, plesk) – akvarelga nisbatan quyuq va yaltiramaydigan suvli bo‘yoq. Guash shaffof bo‘lmagan suvli bo‘yoq turiga taaluqli bo‘lib, tarkibi suvli yelim asosidagi (Mayda kukunli pigment, bog‘lovchilar – gummiarabik, bug‘doy kraxmali, dekstrin, Plastifikator – glitserin, Sirtqi faol modda – hayvon o‘ti, Antiseptik – fenol) mayda pigmentlar hamda xitoy oq bo‘yog‘i (mel) aralashmasidan tayyorlanadi. Bu akvarelga nisbatan kuchliroq rang olinishiga olib keladi.

Guash bo‘yog‘i shaffof emas, lekin shaffof akvarel bo‘yog‘i kabi ishlab chiqariladi. Guashdan rasm ishlash uchun akril, akvarel, siyoh kabi suvli bo‘yoqlar va markerlar bilan qurigandan keyin pastel, rangli qalamlar bilan uyg‘unlikda foydalanilsa bo‘ladi. Uni aerografda sepib ham ishlatish mumkin.

Guashda ishlashning o‘ziga xos xususiyati bor – pigment tez quriydi va nam holatiga nisbatan ocharadi. Oldin qo‘yilgan quruq bo‘yoqni yumshatish yoki ho‘l rang ustidan rang qo‘yish usulida ishlash uchun rang surtmalari ustidan ozgina suv puflanadi.

Akvarel bilan o‘xshashligi

Palitrada guash tashqi ko‘rinishi bilan akvarel bilan juda o‘xshash, ishlash jarayoni esa akril yoki moybo‘yoqqa yaqin. Shaffof akvarel bo‘yog‘ida ishlaganda ochdan to‘q ranglarga qarab shaffof rang surtmalari ustma-ust qo‘yish bilan rang-tuslar hosil qilinadi. Guashda rang ustidan yangi shaffof bo‘lmagan rang surtmalari qo‘yib boriladi. Mustahkamligi va shaffof emasligi to‘q fonlar ustidan och ranglarni qo‘yish imkonini beradi, bu sifatlari guash rangtasviri bilan o‘ziga xos usulda ishlashni talab qiladi.

Akvarelning bir turi bo‘lgan bu qadimiy rangtasvir usuligi birinchi bo‘lib rassom Paolo Pino asarlarida qo‘llanilganini ko‘ramiz. Hozirgi vaqtda guashda ishlash uchun qog‘ozdan tashqari ipak va boshqa materiallardan ham foydalanishadi. Paolo Pino akvarel bo‘yog‘iga mel qo‘shib guash bo‘yog‘ining turli ranglarini hosil qilgan. Guash ham akvarelda ishlash singari dadillik va mahorat talab qiluvchi tez quriydigan suvli bo‘yoqlar turiga kiradi. Xorijiy davlatlarda guashda ishlangan ishlarni rangtasvir, Rossiyada va bizlarda esa grafika deb hisoblashadi. Bo‘yoq sifatida ishlatilib kelishi juda uzoq tarixga ega bo‘lsada, Guash atamasi Fransiyada 18 asrda paydo bo‘lgan bo‘lsada, guashda ishlash texnikasi qadimgi Misr va Antik davridan beri g‘arbda ham sharqda ham ma‘lum edi. O‘rta asrlardaguash akvarel bilan uyg‘unlikda kitob minatyuralari ishlashda ham

qo'llanilgan. Qadimgi arab va fors minatyuralari, Movorounnaharda buyuk Temuriylar va Hindistonda esa Boburiylar imperiyasi davri san'ati va boshqalar Jahon madaniy me'rosiga katta hissa qo'shgan. Uyg'onish davri san'atida rassomlar tomonidan eskizlar, fonining ichdan yoritilishiga erishishda uni yopish, karton va boshqa tayyorgarlik ishlari hamda minatyurada portret uchun ishlatilgan. Rossiyada guash rangtasvirining gullab-yashnashi 19-20 asrlarga to'g'ri keladi. Guash rangtasviri texnikasiga Taniqli rassomlar V.A. Serovning "Pyotr 1", "Portret G.L. Girshman", Ye.Ye. Lanserening "Petrov vaqti kemalari", A.Ya. Golovinning "Ispan ayoli", B.M. Kustodievning "Yarmarka", N.N. Sapunovning "Ryazanliklar" va boshqa ko'plab asarlarni misol qilib keltirsa bo'ladi. Ko'plab dastgohli rangtasvirlarda guashdan foydalanishgan. Bu ishlarda matoviylik, barxatligi, baxmalsimon fakturasi, o'ziga xos dekorativ ko'rinishi kabi ajoyib sifatlari namoyish etilgan.

"San'at olami" rassomlar uyushmasi dastgohli rangtasvirlar, kostyumlar eskizi va teatr bezaklari, plakat san'atida ko'plab asarlar yaratishdi. Guashda yozilgan san'at asarlarini namlikdan, changdan va quyosh nurinig salbiy ta'sirlaridan saqlash uchun, oyna ostida saqlash urf bo'lgan. Butun tarixi davomida guashning juda yaxshi effekti bilan noan'anaviy usullarini qo'llagan rassomlar juda ko'p. Bu universal bo'yoq bilan bog'liq A. Dyurer, Dega, Van Gog, Pikassolarning ishlari misol bo'la oladi. G'arbda esa guash texnikasiga P. Pikasso "Kuchuk bilan bola", A. Matiss "Yalang'och" asarlarida guash texnikasiga murojaat qilishgan.

Rassom chizayotgan paytda guashning qurigandan keyin oqish tusga kirishi kabi salbiy tomonlarini hisobga olishi kerak. Qalin qo'yilgan rang surtmalarining yorilishi, bunday holda unga yog'och yelim qo'shish kerak bo'ladi. Quyuq bo'yoq surtmalari bilan nisbatan to'q joylarni ham och ranglar bilan yopish mumkiligi, matoviyliigi, baxmalsimon fakturasi, bo'yoqning tez qurish, qo'llashning oddiyliigi, materialning sotuvda mavjudliigi guashning plyus tomoniga kiritish mumkin. Guashda lessirovka, akvarelsimon, rang surtmalari kabi texnikalarda ishlash mumkin. Unda qog'ozga, gruntli xolstga, kartonga, fanera va hatto ipakka ham ishlash mumkin. Guash dekorativ rangtasvirida har xil eskizlar bajarishda keng foydalaniladi. Uni ko'pincha rangli qoramalar bajarishda ishlatishadi. Guash ishlash uchun juda qulay bo'lib, ish jarayonida buzilgan joyni to'g'irlash mumkin. O'rtacha qalinlikda qo'yilgan rang surtmalari havoning namligiga qarab, yarim soatdan uch soatgacha bo'lgan vaqt oraliqda quriydi. Rassomlar uchun badiiy, plakat uchun, florusentli, akrilli va bolalar ijodiyoti uchun guashning bir necha turlari mavjud. Guash turlari:

Badiiy guash – bu distillangan suv, oq bo'yoq va gummiarabikning pigment kukunlari bilan qo'shib tayyorlangan bo'yoq turi. Bu guash ajoyib yopish xususiyatiga ega bo'lib, yuzada matoviy, baxmalsimon faktura hosil qilish xususiyatiga ega. Bunday turdagi bo'yoqlar uchun melli kartonlar emas, akvarel qog'ozi, tuslangan qog'oz . birinchi qatlam bo'yoq gruntli qatlam hosil qilgan

holda yuzada shimilib ketadi. Bu bo‘yoqning yuzada mustahkam ushlanishiga olib keladi.

Plakat uchun guashda oq bo‘yoq o‘rnida kaolin moddasi ishlatiladi. Bu uning nisbatan yorqin va mustahkam bo‘lishiga olib keladi.

Bolalar ijodiyoti uchun mo‘ljallangan guashlarda qimmatbaho gummiarabik o‘rniga arzon PVA yelimi ishlatiladi. Bu bo‘yoqning plastikligini kamaytirib, tez qurishiga sabab bo‘ladi. Ammo bu uning yuzaga nisbatan mustahkam yopishishini ta‘minlab, ko‘chib ketishi va to‘kilishini kamaytiradi. Bunday bo‘yoqlarni nafaqat qog‘oz, balkim, fanera, sopol va maxsus gruntlangan xolstlarga ham ishlatish mumkin.

Badiiy akrilning paydo bo‘lishi bilan ba‘zi ishlab chiqaruvchilar akrilli guashni ishlab chiqara boshladilar. Bunday guashlar barcha yuzalarga naqshlar ishlashda qo‘llaniladi, qurigandan keyin esa suvda yuvilmaydi. sinkli oq bo‘yoq o‘rniga bo‘yoqni kam oqartiruvchi va unga nisbatan mustahkamlik, to‘yinganlik va jarangdorlik beruvchi kaolindan foydalanganligi sababli plakat uchun guash badiiy guashra nisbatan tez yopish va rang to‘yinganligi bilan farq qiladi. Spektakllarni dekorativ va bezak ishlari uchun florusent bo‘yoqlar ishlab chiqariladi. Bu bo‘yoqlar ultrafioletiv va ko‘rinib turuvchi fioletiv, ko‘k va yashil nurlar ta‘siri ostida yorqinligi oshadi va bu effektidan qorong‘i joylar dekoratsiyasida foydalaniladi. Bu bo‘yoq ham suv bilan aralastirilib, nisbatan yopish xususiyati past, shuning uchun oq gruntli xolst, qog‘oz boshqa oq materiallarga ishlash tavsiya etiladi. Unda bu bo‘yoqlar nisbatan yorqin ko‘rinish olib, uni yupqa qatlamda surkaladi. Florusentli guash suvga chidamsiz, shuning uchun uni tashqarida ishlatish tavsiya etilmaydi.

Guash texnikasi–guash rangtasviridagi asosiy usullar

Ho‘l qog‘ozlar ustidan ishlash – bu texnika akarelda ishlab yurganlar uchun juda tanish bo‘lib, ko‘pincha bulutlar yoki orqa plandagi tumanli ko‘rinishlarni ishlashda qo‘llaniladi. “Ho‘l qog‘ozlar ustidan suyuq qilib” ishlash usulida bo‘yoqni odatdagidan ko‘ra nisbatan yaxshiroq aralastirib olingani ma‘qul, bo‘yoqni qog‘ozga tezlikda surkash va ustidan boshqa rangdagi rangni suyuq qilib surkash kerak bo‘ladi. undan keyin bo‘yoqlar aralashadi vabir tomonga sizib yumshoq, yengil chegarali shakllar hosil qiladi. agar bu hodisa ro‘y bermasa, demak siz bo‘yoqni kerakli darajada suyuq qila olmagansiz yoki birinchi qavat bo‘yog‘i qurib qolgan bo‘ladi. bunday holatga yo‘l qo‘ymaslik uchun qog‘ozni oldindan toza mo‘yqalamni toza suvga botirib ho‘llab chiqish kerak bo‘ladi. Qachonki aniq shaklli figuralarni ishlash kerak bo‘lganda bu usul juda qo‘l keladi. Bunda kartinada alohida mo‘yqalam izlari sezilib qoladi. Bu guashda ishlashning klassik usullaridan biri hisoblanib bu usulda ajoyib natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa aniq shakldagi yonma-yon yoki ustma-ust qo‘yilgan bo‘yoq surtmalari

ajoyib ko‘rinadi. Guash bo‘yog‘i shaffof bo‘lmagani bois och rangdagi rang surtmalarini to‘q rang ustidan, yoki aksincha qo‘yish mumkin.

Guashda qo‘yilgan ranglarning bir rangdan boshqa rangga yengil o‘tishi – tus bo‘yicha ranglarning bir-biriga yengil o‘tadigan fon yaratish uchun qo‘llaniladigan badiiy usul hisoblanadi. Guashda rangning to‘qdan ochga, hattoki oq fongacha yengil o‘tishiga erishish mumkin. Tanlangan rang-tusdagi bo‘yoqni qurishga ulgurmasdan tezlikda gorizontaal yo‘nalishda taboro ochartirib boriladi. Mo‘yqalam o‘ndan chapga, chapdan o‘nga qarab harakatlantirib surkaladi. Ranglar bir-biriga yengil o‘tishi uchun gubkadan ham foydalanish mumkin.

Lessirovka – asosiy rang ustidan shaffof boshqa tusni surkash hisoblanadi. Yarim shaffof rangar bilan asosiy ranglarni yopish yo‘li bilan yangi chuqur rang-tus hosil bo‘ladi. Akvarelda bo‘lganidek guashda ham bu usul mavjud. Shaffof bo‘lishi uchun guashni ko‘proq suv bilan aralashtirish kerak. Lessirovka usuli yordamida qaytarilmas tuman holati effektiini yaratish mumkin, guashda bu usul bilan ishlash boshqa materiallarga nisbatan juda qulay.

Rang surtmalari – bu mo‘qalamlar yordamida hosil qilinadigandan bo‘yoq izi. Bo‘yoqni quyuq va qalin surkash evaziga moybo‘yoq rangtasvirida rang surtmalari o‘ziga xos jozibadorlik aks etadi. Rang surtmalari texnikasini qo‘llab harakatni kuchaytirish, kartinaga qo‘shimcha jozibadorlik baxsh etish mumkin. Har qanday namlikdagi qog‘oz yuzasida rang surtmalarini qo‘yib ishlash mumkin. Lekin, ajoyib natijalarga baribir salgina nam yoki quruq qog‘ozlar yuzasida erishish mumkin.

Monotopiya (grek tilidan ”” – bitta, yolg‘iz va - iz) – tarixi uzoq 17 asrlarga olib boradigan oddiy grafik texnikalardan biri. Monotopiyaning mazmuni bo‘yoqni qo‘ldan tekis va silliq yuzaga, boshqa yuzaga keyingi iz uchun (dastgohda) yoki o‘rtasidan bukilgan qog‘ozga osish. Har doim noyob izlar hosil qilinadi va ikkita bir xil ish bajarish mukin emas. Undan keyin hosil qilingan rangli yoki rangsiz dog‘larni o‘z holicha qoldiriladi yoki to‘g‘ri keladigan obraz o‘ylab topiladi va yetmaydigan bo‘laklar chizib chiqiladi.

Ko‘p qatlamli rangtasvir – ishni bir qator bosqichlarga bo‘lib chiqishni talab qiladigan (podmolyovka, rang qo‘yish, lessirovka) bo‘yoqning butunlay qurishi uchun dam olishlar bilan bajariladigan rangtasviring muhim texnik har xilligi. Uzoq ishlanadigan barcha ishlarda hamda katta mavzuli kompozitsiyalarni bajarishda moybo‘yoq texnikasi yagona qulay usul hisoblanadi. 19 asr o‘rtalarigacha o‘tmishdagi taniqli rassomlar asosan shu texnikani qo‘llashgan. Keyinchalik impressionistlar va uning izdoshlari undan voz kechishdi. Ko‘p qatlamli rangtasvir tushunchasi tor texnologik jihatdan eski usta rassomlar texnikasi bilan bog‘liq bo‘lmagan qurigan bo‘yoq qatlamiga (podmalyovkasiz va lessirovkasiz) rang qo‘yishgagina muvofiq bo‘lishi mumkin.

Pastasimon rang qo‘yish texnikasi – ham guashda ishlash uchun qulay. Bu texnika ishlanayotgan yuzaga quyuq, shaffof bo‘lmagan bo‘yoq surkashdir. Bunday texnika asosan moybo‘yoqqa tegishli. Pastasimon rang qo‘yish texnikasida

bajarilgan kartinadagi faktura, yorug'lik va soya nafaqat rangdan balki, shakl hamda qo'yilgan rang surtmalarga bog'liq. Agar asosida PVA yoki akril bo'yog'i bo'lsa bu usulda guash bilan ham ishlash mumkin. Oddiy badiiy guashdan foydalangan holda pastasimon rang surtmalari qo'yish usulida ishlaganda o'ta qalin rang bo'yoq qatlami qurigandan keyin oddiy yorilishi va to'kilib ketishini yodda saqlash kerak. Shuning uchun bu texnika uchun "oltin kesimi"ga erishish uchun yuzaga juda qalin rang surtmalarini juda ehtiyotkorlik bilan qo'yish zarur.

Puantalizm – nuqtalar deb tarjima qilinadi. Nuqtali yoki to'g'ri burchakli rang surtmalari qo'yish hisobiga (rang aralashtirish bu yerda istisno) bu texnikada vizual effektlarga erishish mumkin.

Mo'yqalamlar yordamida bir tekis rang surkash – yuza va uning bo'laklarini bo'yashda qo'llaniladi. Mo'yqalamda bajariladi. Guash o'ta quyuq (bo'yoq parcha-parcha bo'lib joylashadi) yoki o'ta suyuq (dog'lar hosil bo'ladi) bo'lmasligi kerak. Shaklga rang berish uning chetlaridan boshlanadi.

Sepish – fakturani yaratish uchun eng oddiy va yoqimli usul. Bunday texnika yordamida yo'l va daryo chetidagi toshlar, yaproqlar va shunga o'xshash buyumlarni ifodalash oson. Eng yaxshisi guashni kichik bo'yoq uchun mo'yqalamda (yangi va guash uchun mo'ljallangan, lekin oliya yoki emulsiya bo'yog'ida emas) sepish kerak. Mo'yqalamni bo'yoqqa yaxshilab botirib uning tukini orqaga (kartinadan) torting va zudlik bilan qo'yib yuboring. Tuklar oldinga intilib ulardagi butun bo'yoqto'plami mayda tomchilarga aylanib oldinga otiladi. Butun kartinaga sochilib ketmasligi uchun gazeta yoki boshqa keraksiz qog'ozlardan qirqib kartinaning sepilishi kerak bo'lmagan qismini niqob qilib yopish zarur bo'ladi.

Saraffito – bu gravyuraga yaqin texnika. (grattaj) Bu usulni mazmuni ostki qatlamini ochib shakllar yaratish uchun nam bo'yoqni uchli cho'p yoki pichoq bilan tirnashdan iborat. Guashda ishlash jarayonida saraffitoni idojining boricha ustki bo'yoq qatlamini qo'ygandan keyin bir necha soniyalar ichida tezroq bajarishingiz kerak bo'ladi, chunki guash moybo'yoqqa nisbatan juda tez qotadi. Saraffito texnikasi usulida kartinaning oldingi planida ko'zga tashlanadigan juda chiroyli, noodatiy fakturalar hosil qilinadi.

Aralash texnika – undan tashqari guashdan rangtasvirning aralash texnikasida ham ajoyib tarzda foydalansa bo'ladi. Masalan fon guashda qoplanib, ustidan akril bo'yog'ida surat chiziladi. Guash va akril bo'yog'i uyg'unligida gullar tasvirini ham ajoyib tarzda ifodalasa bo'ladi. shuningdek guashni akvarel, pastel va tempera bilan ham birgalikda qo'llasa bo'ladi.

"Quruq kist" –rangtasvir va grafikadagi yordamchi texnik usul bo'lgan kam to'yingan bo'yoqni qattiq tukli mo'yqalamda ishlash. Mustaqil texnika sifatida asosan dekorativ san'atda qo'llaniladi. Tashqaridan qaraganda bu usul rangli qalamni eslatadi. Rangni to'g'ridan-to'g'ri qog'ozda yengil aralashtirish imonini beradi.

Quruq lessirovka – ham juda qiziqarli usul. Quruq qattiq mo‘yqalam yordamida qo‘yilgan bo‘yoqlar ostidan ostki ranglar aks etib turadigan ajoyib izlar qoldiradi.

Sfumato – ranglarning bir-biriga nafis o‘tishi. Yorug‘-soyaga ishlaganda har xil shakl va buyumlar umumiy ko‘rinishi suratining yumshatilishi orqali ularni fazoga birlashtirib yuborilishi. Sfumato Leonardo da Vinchi tomonidan nazariy asoslangan va amalda qo‘llangan fazo perspetivasining muhim elementi.

Muhrlash (Shtampovka) – gubka, paxta yoki mayda qog‘oz bo‘lagi yordamida iz qoldirish. Unda g‘adir-budur yer, o‘t-o‘lan va barglar ko‘rinishlarini ifodalash qulay. Gubkadan tashqari bir necha marta buklangan qog‘oz yoki karton yordamida ham noodatiy va kutilmagan natijalarga erishish mumkin.

Impasto - quyuq bo‘yoqlarni qalin qilib qo‘yish usulida bajariladigan guash texnikasi. Impasto usulini qo‘llab rangtasvir ishlashni hohlasangiz, anchadan beri ishlatilmagan guash bo‘yog‘ini oling, chunki u yangi guash bo‘yog‘iga nisbatan quyuq holga keladi. Shuningdek suvli bo‘yoqlarda ishlashda akril uchun, impasto texnikasini qo‘llash uchun Winsor&Newton kompaniyasi tomonidan maxsus yaratilgan Aqvapasto qo‘shimchasi qo‘shib guashni quyultirish mumkin.

Karnatsiya – bo‘yoqlarni bir necha qatlamlarda qo‘yish usuli. Inson yuzi va gavda qismlarini ifodalashda qo‘llaniladi. Bu texnika tasvirda maksimal realizm ko‘rinishiga erishish imkonini beradi.

Ko‘pchilik rassomlar guashda ishlaganda pastasimon keng rang surtmalarini qo‘yib ishlash texnikasida ishlashni xush ko‘rishadi, bu ishga harakatchanlik, yorqinlik va rangdorlik beradi.

Guash bo‘yoqlari pigmentlar oq bo‘yoq aralashgan yelim qo‘shib tayyorlanadi. Oq bo‘yoq guashga matoviy barxatsimon faktura beradi, lekin qurigandan keyin nisbatan oqaradi (ocharadi). Guashda bajarilgan ish qurigandan keyin yangi qo‘yilgan rang surtmalariga nisbatan ochroq ko‘rinishda bo‘lgani bois, rang tanlashni qiyinlashtiradi. Qalin qo‘yilgan rang surtmalari yoriqlar hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Akvarel bilan o‘xshashligi

Guash tashqi ko‘rinishiga ko‘ra palitrada akvarel bo‘yog‘ini eslatadi, lekin ishlatish jarayonida uslub jihatdan akril va moybo‘yoqqa yaqin. Ustma-ust qatlamlarda qo‘yilgan shaffof akvarel bo‘yog‘i asta-sekin ochdan to‘qqqa qarab to‘qlashib boradi. Guashda esa bir-birini yopadigan shaffof bo‘lmagan rang surtmalari qo‘yish usulida ishlanadi. Rang kukunlarining zichligi, shaffof emasligi nisbatan to‘q ranglar ustidan och tuslarni qo‘yish imkonini beradi. Guashning bu sifatlari rangtasvirga o‘zgacha yondashishga olib keladi. Moybo‘yoqdan farqli tomoni, rang surtmalari qo‘yilganda juda tez quriydi va bu amaliy sa’atda ishlatishga qulaylik yaratadi. Suvda erishi

Agar akril bo‘yog‘ining qurigandan keyin suvda qayta erimasligi, buzilmasligini hisobga olsak, unga nisbatan guash esa suvda yengil eriydi. Guash bo‘yog‘ida ishlaganda noan’anaviy usulda qurigan rang surtmalarini yumshoq mo‘yqalamda aralashtirib nozik effektlarga erishish va ishda katta o‘zgarishlar qilish imkoniyati

mavjud. Elastik va matoviy akril bo'yog'ini guash bilan aralashtirib podmalyovkalar ishlash mumkin.

Rang qo'yish usullari

Guashda ishlash uchun mo'yqalamda suv va bo'yoqni aralashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish kerak. Erkin qo'yilishi uchun guash juda suyuq bo'lishi kerak emas. Agar yetarli darajada suyultirilmasa, qo'yilgan quyuq va qalin bo'yoq qurigandan keyin yorilishi mumkin. Ishlatishda guash bo'yog'ining quyuqligi taxminan qaymoqning quyuqligidek bo'lishi tavsiya etiladi, bunda bo'yoq qog'ozda yengil yuradi va yuzani bir tekis yopadi.

Bo'yoqlarni ustma-ust qo'yilganda oldingi qatlamdagi bo'yoq umuman qurigan bo'lishi zarur. Aksincha bo'lsa qo'yilgan bo'yoq shakli va rangi o'zgarib ketishi mumkin. Agar ikkinchi qatlam bo'yoq o'ta suyuq bo'lgan taqdirda ham shunday hodisa yuz berishi mumkin. Ehtiyotkorlik bilan ostingi bo'yoqlarni olib tashlash bilan nozik natijaga erishish mumkin. Kerak bo'lganda bo'yoqlarning alohida qatlamlari yumshoq mo'yqalamlarda olib tashlanadi yoki keyingi qatlam rang surtmalari bilan aralashtiriladi.

Grafikada ishlatiladigan materiallar va texnologiyalar. Birinchi grafik tasvirlar paleolit davrida paydo bo'lib, bu oddiy asboblardan yordamida qoyaga o'yib chizilgan tasvirlar edi. O'shandan beri badiiy grafika katta va uzoq yo'l bosib o'tdi. Chizish texnikasi rivojlana borib, rangtasvir paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qildi, shu bilan birga o'zi tasviriy san'atning alohida va mustaqil turlaridan biriga aylandi.

Zamonaviy grafikada avvaldan ishlatib kelingan an'anaviy va yangi paydo bo'lgan tasvirlash vositalari texnologiyalari o'zaro uyg'unlashib, tasviriy san'at asarlarida hamda amaliy san'atda (reklama, prezentatsiya, sanoat va mahsulotlar va h.k...) badiiy g'oyalar yaratish uchun kerakli tasvirlash vositalarini yaratish imkoni kengayib bormoqda.

Badiiy grafikada ishlatiladigan materiallar haqida gapirar ekanmiz, avvalo ularni ikki sinfga bo'linishini to'g'ri tushunib olishimiz kerak, bu nima bilan chiziladi va nimaga chiziladi. Chiziladigan materiallar ichida eng an'anaviysi va asosiysi bu qog'oz hisoblanadi. Chizish uchun kerakli materiallarga grafitli qalam, ko'mir, sepiya, sangina, sous, pastel va tushlar kiradi.

Ko'mir tabiiy tasvirlash ashyolariga kiradi. U katta tus diapazoniga ega bo'lib, katta hajmdagi chizmatasvirlar, eskiz yoki qisqa muddatda bajariladigan qoramalar bajarishda qadimdan to hozirgacha tengsiz material hisoblanadi. Tabiiy sepiya dastlab dengiz molyuskalarining siyoh qopidan tayyorlangan bo'lib, och jigarrang tusi bilan ajralib turadi. 20 – asrdan boshlab uning har xil sun'iy ranglari olinib boshlandi.

Sepiya akvarelga o'xshash bo'yoqlar turiga kirib, suvda yaxshi aralashadi.

Sangina qizg'imgir jigarrang va to'q jigarrang bo'lib, tabiiy mineral moddalardan olinadi, surilganda qog'oz yuzasiga yaxshi kirishadi, tasvirga yumshoqlik baxsh etadi, tusni bir xilda yoyilishi uning imkonini kengaytiradi. Bu

tasvirlash ashyosidan Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo kabi Uyg'onish davrining buyuk rassomlari unumli foydalanishgan.

Sangina qalamlari iliq qizil va to'q jigarrang tus beradi. Sanginadan foydalanilganda ishlash uslubi ko'mir qalam bilan ishlash jarayoniga o'xshash. Sangina bilan ishlab, amaliy ish bajarganda, texnik usul va mahoratga ega bo'linadi. Sangina uchun tag asos qog'ozning barcha turlari va karton bo'lishi mumkin. Ularni ham tus berilgan oxrasimon rangli qog'ozlarda unumli qo'llash mumkin. Sanginani yon tomoni bilan surkab soyalarning katta-katta qismlarini yopish imkoniyati ham borligi ish rivojini tezlashtiradi.

Odam qomatini turli holatlarda, vaziyatlarda harakatli ko'rinishlarda interer muhiti sharoitida tasvirlash ancha murakkab vazifalardan hisoblanadi. Agar ular tez muddatda ishlanishi kerak bo'lsa, tezchizgi lavhalari ko'rinishida bo'lsa, bir nechta tasvirni bitta qog'oz sathida chiroyli kompozitsiyada jyolashtirib bajarish ko'p samara beradi. Chunki bunda har bir chizilgan har turli holatlarda turgan odamlar qiyofasi o'zaro solishtirib ishlanadi, o'lchamlari bir-biriga moslanadi va shuning natijasida tasvirlar guruhi bog'langan mazmun kasb etib badiiy ko'rinishga ega bo'ladi.

Inson qaddi-qomatini chizishga albatta tezkor tasvirlar ishlash, ko'proq mashq qilish talab etiladi. Ayniqsa suratning qismlari nisbatlari, katta shaklning yaxlitligiga e'tibor qaratilishi kerak. So'ng tana holati uning qanday harakat holatida namoyon bo'layotganligi muhim bo'lib, uni to'g'ri topish va aks ettirishi lozimdir.

Sous 18 asr oxiridan bizga ma'lum. Kuydirilgan va maydalangan kukunga oz mihdorda o'simlik yelimi ho'shilib, hosil bo'lgan horishmani holiplarda zichlanadi. Sousning uch-to'rt tusligi mavjud. Bular: qora, kulrang, oq, jigarrang. Intensiv bo'yash xususiyatiga ega. Sousni tayyorlashda pigment, chasov-yarskoy loy va OP-7 preparatidan foydalanilgan. Ma'lumki, sousni suvga eritib mo'yqalamda ham ishlatish mumkin. Bu materialda ham yetuk Uyhonish davri rassomlari ijodidan nusxa ko'chirish talaba uchun juda foydali. Bu tajribalar halamtasvir o'huv mashhulotlarda ham ashotadi. Sousda chizmatasvir bajarganda rassomlar qog'oz yuzasini butunlay mo'yqalam bilani bo'yab olib, keyin quruq sous bilan to'q dog'larda turli tuslar beriladi va ishni oxirigacha yetkazish uchun shtrixlar berib, ko'zda tutilgan maqsadga erishiladi. Tasvirning eng yorug' qismlarini o'chirg'ich yordamida usalik bilan o'chirib bo'rttirilsa, eng to'q soyalarning sathi qora sous bilan bo'yab kompozitsiyadagi hajm hamda fazoviylikni mohirona ifodalash mumkin.

Agar kerak bo'lsa, retush qalamdan ham qo'shib foydalansa bo'ladi. Rassomlar sousdan qancha ko'p foydalanishsa, ularning mahorati, malakasi shuncha oshib boradi va rangtasvirning nozik sir-asrorlarini o'zlarida kashf etadilir. Faqat bunga amalda tinimsiz ishlash, buyuk rassomlar ishlaridan nusxa ko'chirish orqali sousda tasvirlash uslubiga erishishlari mumkin.

Pastel. Bo'yoq kukunlarini zichlab tayyorlangan hilofsiz nozik tusdagi halamchalar ko'rinishidagi turli ranglar jamlangan badiiy tasvirlash materiali. Uning tarkibiga presslangan pigment, kaolin, blanfiksi, boyer, chasov-yarskoy loyi, oq kul kiritilgan. Xira, nozik, yaltiramaydigan baxmalsimon rangda ekanligi uning

xarakterli tomoni hisoblanadi. Chunki boshqa bo‘yoqlar rangtasvirda bu xususiyatni berolmaydi. qog‘ozga pastel yaxshi birikmaydi, salgina zarbaga ham tob bermay, to‘kilib ketadi. Shuning uchun pastelda ishlash uchun g‘adir-budur qumqog‘ozga o‘xshash yuzali materiallar tag asos bo‘la oladi. Bundan tashqari, sotuvda maxsus pastel uchun tag asos sifatida maxsus qog‘ozlar sotiladi. Ular turli rangda va turli tusda bo‘ladi, g‘adir-budurligi ham turlicha. Pastelni fiksatsiya qilish uchun “Badiiy jamg‘arma” birlashmasi maxsus “lok fiksativ” lar ishlab chiqargan. Ammo undan foydalanilganda pastelning xususiyati, tasvirdagi koloritning o‘zgarib ketishi va ishning yaltirab qolishini hisobga oladigan bo‘lsak bu lok - fiksativdan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Pastelda ishlash uchun planshet tayyorlanib, bu planshetga qumqog‘oz tortib chiqiladi va qumqog‘ozga ko‘zda tutilgan rangtasvir bajariladi. Rangtasvirlashda rastushka - charmdan qalam shaklida

ishqalagich tayyorlash kerak bo‘ladi. Agar rastushkadan foydalanmasdan, barmoqda ishqalanaversa, barmoq terisi yedirilib, qonab ketishi mumkin.

Pastel zarbaga bardosh bermasligini, chang rangtasvirning koloritik xususiyatiga zarar keltirishini va buning ehtiyot choralarini hisobga olgan holda himoya vositasi tayyorlaymiz. Planshet chetiga 5 mm chiqqan holda ingichka yog‘och reyka qotiriladi. Keyinchalik oynali gulrom o‘rnatilganda, 5 mm masofa asar bilan oyna oralig‘i bo‘lib himoya vositasi vazifasini bajaradi. Shunday qilib, biz asarning oynaga tegib turishidan va chang kirishidan saqlab qolamiz. Rassomlar o‘z asarlarini ag‘darma charm, torshon qog‘oz, vatman, filtr qog‘oz, mayda donli qog‘oz, rulonli qog‘oz, gruntlangan mato va kartonga maxsus gruntlar berishgan (bular kraxmalli kleyster va mayda kukunli pemza).

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha tasvirlash vositalarini uzoq muddatda bajariladigan, hamda tezkorlik bilan ishlanadigan qalamtasvirlarda birdek muvaffaqiyat bilan qo‘llash mumkin.

TASVIRIY SAN’AT VIKTORINASI. TESTLAR

1-topshiriq. Bu so‘zlarda harflar aralashtirilib berilgan. Qanday so‘zlar yashiringanligini toping.

Skatervipep, rxitsh, lkoitor, sopryapori, imemisrtya, aritkuraka, svratairng, aydniz, xekaturarir.

2-topshiriq. Matnga tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘ying.

1. _____ - bu qog‘ozga qalam, tush bilan tasvirlangan asar.

2. _____ - plastilin, loyda yasash, marmarda o‘yish, bronzada quyish yo‘li bilan yaratiladigan hajmli tasviriy san’at asari.

3. _____ - qurilish san’ati, me’morchilik.

4. _____ - bu badiiy loyihalash, buyumlarni ham foydali, ham chiroyli qiladigan san’at turi.

5. _____ - insonning kundalik turmush tarzi, hayoti, odatlarini tasvirlovchi tasviriy san’atning an’anaviy janrlaridan biri.

6. Tarixiy janr – o‘tmishdagi buyu shaxslar va voqeliklarga bag‘ishlangan tasviriy san’at janri.

7. Peyzaj – bu tasviriy san’atning _____ ko‘rinishlarini

tasvirlovchi janri.

8. _____ - bu mavzu va kompozitsiya jihatdan o'zaro bog'langan jonsiz buyumlarni tasvirlovchi tasviriy san'at janri.

9. _____ - bu muallifning o'zini tasvirlagan tasviriy san'at asari.

10. hayvonlar suratlari tasvirlanadigan kartina _____ janr deyiladi.

11. Marina – bu _____ ko'rinishlarini tasvirlovchi tasviriy san'at janri.

12. Harbiy voqealarga oid ko'rinishlarni tasvirlash _____ janriga tegishli.

13. _____ - kimnidir yoki nimanidir komik va satira usulida tasvirlash usuli.

3-topshiriq. To'g'ri javobni tanlang.

1. "Hayot qisqa, san'at abadiydir" jumlasining muallifi kim?

A. Aristotel.

B. Neron.

S. Gippokrat.

D. Leonardo da Vinchi.

2. Quyidagi san'at turlarining qaysinisi tasviriy san'atga tegishli emas?

A. Haykaltaroshlik.

B. Musiqa.

S. Rangtasvir.

D. Grafika.

3. Quyidagilarning qaysi biri iliq ranglarga kirmaydi?

A. Zarg'aldoq.

B. Ko'k.

S. Sariq.

D. Jigarrang.

4. Ko'k va sariq rangning aralashmasidan qanday rang hosil bo'ladi?

A. Zarg'aldoq.

B. Qizil.

S. Yashil.

D. Siyohrang.

5. Rassom yoki bo'yoqchining ish quroli qanday ataladi?

A. Kaft.

B. Panja.

S. Mo'yqalam.

D. Musht.

6. Rassom rangtasvirda nima bilan ishlaydi?

A. Qalamda.

B. Mo'yqalamda.

S. Ko'mirda.

D. Bo'rda.

7. Moybo‘yoq tayyorlashda qanday yog‘ ishlatiladi?
- A. Sariyog‘.
 - B. Mashina moyi.
 - S. O‘simlik yog‘i.
 - D. Sintetik yog‘.
8. Tasviriy san‘at tarixida qanday tasvirlash vositasi aslaha eng yoshi hisoblanadi?
- A. Ko‘mir.
 - B. Mo‘yqalam.
 - S. Qalam.
 - D. Flomaster.
9. “Batik” texnikasida asos qilib qanda material qo‘llaniladi?
- A. Shisha.
 - B. Yog‘och.
 - S. Qog‘oz.
 - D. Mato.
10. Dengiz ko‘rinishlarini tasvirlovchi janr nima deb ataladi?
- A. Marianna.
 - B. MariY.
 - S. Marina.
 - D. Meri.
11. Dengiz ko‘rinishlarini tasvirlovchi rassom kim deb ataladi?
- A. Suvchi.
 - B. Akvalang.
 - S Dengizchi.
 - D. Marinist.
12. Meva sabzavotlar tasvirlangan asar qanday ataladi?
- A. Peyzaj.
 - B. Portret.
 - S. Natyurmort
 - D. Sharj
13. Hayvonlar mavzusida ishlovchi rassomlarni qanday ataladi?
- A. Batalist.
 - B. Animalist.
 - S. Marinist.
 - D. Peyzajist.
14. Urushlar va harbiy hayotga bag‘ishlangan asarlar yaratish tasviriy san‘atning qanday janriga kiradi?
- A. Batalyon.
 - B. Tarixiy.
 - S. Batareyniy.
 - D. Batal.
15. Mitti o‘lchamdagi tasviriy san‘at asari qanday ataladi?
- A. Panorama.
 - B. Miniatyura.

S. Diorama.

D. Natyurmort.

16. Mato parchalaridan bajarilgan surat qanday ataladi?

A. Applikatsiya.

B. Kollaj.

S. Mozaika.

D. Vitraj.

17. Bir mavzuga yoʻnaltirilgan uch boʻlak kartina qanday ataladi?

A. Uchlik.

B. Triptix.

S. Toq.

D. Qoʻshaloq.

18. "Traktat o' jivopisi" - texnologiyaga oid eng qadimgi asar qoʻlyozmasining muallifi kim?

A) Chellini;

B) Dyurer;

S) Leonardo da Vinchi;

D) Mikelanjelo.

19. Rangtasvir xususiyatlari va uning texnologiyasiga oid eng qadimgi qoʻlyozma qachon yozilgan?

A) XI asrda;

B) Oʻrta asrlarda;

S) Yuqori Uygʻonish davrida;

D) IX asrda.

20. Qaysi qatordagi ranglar "issiq ranglar"ga kiradi?

A) koʻk, havorang, yashil, safsar;

B) sariq, qizil, noranji, qirmizi;

S) sariq, yashil, jigarrang, koʻk;

D) pushti, siyohrang, binafsha, zumrad.

21. Qaysi ranglar "sovuq ranglar" turkumiga kiradi?

A) qizil, oq, qora, jigarrang;

B) qizil, sariq, jigarrang, qora;

S) koʻk, safsar, yashil, moviy, havorang;

D) noranji, oxra, targʻil, koʻk.

22. Qaysi ranglar "xromatik" hisoblanadi?

A) qora, oq, kulrang, safsar;

B) sariq, yashil, havorang, qizil, noranji;

S) kulrang, oq, qora, jigarrang;

D) jigarrang, oxra, qora, kulrang.

23. Qaysi ranglar "axromatik" hisoblanadi?

A) qizil, sariq, jigarrang, koʻk;

B) qora, kulrang, qoʻngʻir, qoramtir;

S) safsar, alvon, qirmizi, qora, oq;

D) oxra, qirmizi, safsar, pushti.

24. Rassomlarning asarlaridan nusxa olish nima uchun kerak bo'ladi, u qanday ahamiyatga ega?

- A) uslubiy o'rganish uchun;
- B) mahoratni oshirish uchun;
- S) havas uchun;
- D) mashq qilish uchun.

25. Mato "gruntlash"dan avval nima qilinadi?

- A) ho'llanadi;
- B) romga tortiladi;
- S) dazmollanadi;
- D) yuviladi.

26. Eng oddiy tayyorlanadigan "grunt" qanday bo'ladi?

- A) yelim va suv aralashmasi;
- B) yelim va olif, bo'r aralashmasi;
- S) suv, glitserin, lok, moy;
- D) guash, suv, bo'r, olif.

27. "Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish" fani nimani o'rgatadi?

- A) tasviriy san'atga oid tajribalar asosida texnologiyalarni;
- B) tasviriy san'atga oid bilimlarni;
- S) tasviriy san'atda foydalaniladigan barcha narsalarning turli xususiyatlari, ishlash metod va yo'llarini, tajribalarni, bilimlarni o'rgatadi.
- D) qalamda ishlash bilimlarini o'rgatadi.

28. Moybo'yoqda tasvir ishlash uchun asosan qanday ashyo, ish qurollari zarur bo'ladi?

- A) etyudnik, moybo'yoqlar, mo'yqalam, "eritgich", mato, palitra, ko'mir tayoqchalari, mato yoki karton;
- B) moybo'yoqlar, karton, suv, gletserin, qog'oz, qalamlar;
- S) mo'yqalam, qalam, qog'oz, "eritgich", dastgoh, o'chirg'ich;
- D) qalam, qog'oz, planshet, mo'yqalam.

29. Moybo'yoq rangtasvirda ilk marotaba qaysi davlatda qo'llanilgan?

- A) Ispaniya;
- B) Niderlandiya;
- S) Fransiya;
- D) Italiya.

30. «Rangtasvir texnologiyasi» deganda nimani tushunasiz?

- A) rangtasvir ishlash ilmi;
- B) rangtasvirni o'rgatuvchi predmet;
- S) rangtasvir ishlash uchun zarur nazariy va amaliy bilimlarni beruvchi predmet;
- D) qalamtasvir ishlash yo'llarini o'rgatuvchi fan bo'limi.

31. Tasviriy san'at texnologiyasi nimalarga asoslanib o'rganiladi?

- A) o'tmish tajribasiga;
- B) o'tmish rassomlar, olimlar, pedagoglar tajribasi, me'rosiga, kimyo yutuqlari, fizik qonuniyatlarga;
- S) texnologiyaga oid kitoblar, mashqlarga;

D) shaxsiy tajribaga asoslanib o'rganiladi.

32. Dag'al mo'yqalamlar nimadan tayyorlanadi?

A) to'ng'iz mo'ylaridan, sintetik mo'ylardan;

B) kiyik mo'ylaridan, qo'y yungidan;

S) bug'u mo'ylaridan, ayiq, sug'ur mo'ylaridan;

D) suvsar, olmaxon junidan.

33. Yumshoq-mayin mo'yqalamlar nimalardan tayyorlanadi?

A) kiyik, to'ng'iz, oq ayiq, bug'u, qunduz mo'ynasidan;

B) ayiq, kiyik, qo'y, quyon, suvsar mo'ynasidan;

S) quyon, olmaxon, kolonok, suvsar mo'ynasidan;

D) to'ng'iz, bo'rsiq, jayron, kiyik junidan;

34. Moybo'yoqlar ishlatilganda nima bilan eritiladi?

A) eritgichlar – zig'ir moy, lok, kerosin;

B) eritgichlar – eritgich, skipidar, pinen;

S) eritgichlar – atseton, uayt-spirt, olif;

D) eritgichlar – paxta yog'i, zig'ir moyi, suv.

35. Moybo'yoq tasviriy san'at faoliyatida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?

A) XVII asrdan;


B) XVI asrdan;

S) XV asrdan;

D) XIV asrdan.


4-topshiriq. KRASSVORDLAR RANGTASVIR ATAMALARI

Mashq. Rangtasvirda ishlatiladigan atamalarni yozib bo'sh kataklarni to'ldiring.



Misol uchun variantlar: *tus, ritm, eskiz, siluet, yorug'-soya, qoralama, muvozanat, kompozitsiya, perspektiva, mutanosiblik.*

5-topshiriq.
Krossvord 1. TASVIRIY SAN'AT



Savollar:

Bo'yiga:

1. XII asr o'rtalarida Fransiyada paydo bo'lgan badiiy uslub.
2. Tasviriy san'atda inson yoki odamlar guruhini tasvirlovchi janr. Nafaqat insonning tashqi ko'rinishi, balki ichki ma'naviy dunyosini ham yetkazib berishga qaratilgan tasvir.
3. Badiiy asar yuzasi ko'rinishi, uning xususiyati.
4. Qadimgi grek san'atining ilk rivojlanish bosqichi. San'at asarining umumiy rang sifatlarining estetik baholash, ranglar qurulishi.

Eniga:

1. XVIII asr o'rtalarida Yevropa san'ati usuli.
2. Satira va yumor vositasidan foydalanadigan tasviriy san'at janri. Kolonna o'rnida tektonik ayol qomati
3. Kolonnalar o'rnida bajarilgan ayol qomati aks ettirilgan haykallar.

6-topshiriq.
Krossvord 2. RANGTASVIR

Berilgan so'z orqali qolganlarini aniqlang.

1. Oynaga shaffof ranglarda ishlangan tasvir.
2. Maxsus bo'yoqlarda ipak, paxta, jun va sintetik matolarga qo'lda rasmlar ishlash usuli.
3. San'atning har xil turlarida ichki bo'linishlarini anglatuvchi atama (fran. genre xil, tur), badiiy asarlarning mazmuni va shakli, badiiy obrazning kelib chiqish belgilariga ko'ra turlarga ajratadi.

4. Suvda eritiladigan shaffof bo‘lmagan bo‘yoq.

Rangli tosh bo‘laklaridan bajarilgan tasvir.

5. Harakatsiz turg‘un holat.

Razbavitel, skipidarda suyultiriladigan rangtasvir uchun shaffof bo‘lmagan quyuq bo‘yoq.


6. Po‘latdan yasalgan kurakcha yoki pichoqcha shaklidagi ingichka plastina(italyancha metsichino); rangtasvir ishlashda qo‘llaniladi.

7. Ho‘l shkaturka ustidan rangtasvir.

8. Rangtasvirda ishlatiladigan yarim shaffof, suvda eritiladigan bo‘yoq.

9. Bitta rangda bajarilgan (ko‘proq qora, jigarrang) ranglardan foydalanib bajarilgan rangtasvirning bir turi.

10. Qalin, qattiq va juda pishiq qog‘oz, qalin qog‘ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u asosga tushiriladi (mato, devor, yog‘och yoki metall tekislik).



7-topshiriq.

Krossvord 3. BADIY TASVIRLASH VOSITALARI

Berilgan so‘z orqali qolganlarini aniqlang.

1. Kartinaning rang yechimi. Ranglar mutanosibligi.


2. Qog‘oz yuzasida fazoviy bo‘shliqning tasviri.

3. Tabiat ko‘rinishi.

4. tasvirlanayotgan gavda, yuz, shakl bo‘laklarini tomashabin e‘tiborini jalb qilish maqsadida rangda, chiziqlarda va tushlash usuli bilan bo‘rttirib ko‘rsatish.



8-topshiriq.
Krossvord 4. GRAFIKA



Berilgan soʻz orqali qolganlarini aniqlang.

1. Chizish uchun ishlatiladigan qizil va jigarrang tusdagi qalamchalar .
2. Yogʻoch va linoleumga oʻyib ishlanadigan tasvir.
3. Kompozitsiyadagi turgʻun holat.
4. Metallga oʻyish, kislota bilan ishlov berish orqali chiziladigan surat.
5. Narsa yoki tasvir ikki qismining bir biriga aynan oʻxshashligi, mutanosibligi.
6. Tasviriy sanatta: narsaning uzoqdagi qismlarini qisqartirib, kichraytirib tasvirlash.
7. Narsaning uch oʻlchamda (fazoviy boʻlib) boʻrtib koʻrinayotgan shakl–shamoyili.

Topshiriq va testlar javoblari

1-topshiriq javobi: Perspektiva, shtrix, kolorit, proporsiya, simmetriya, karikatura, rangtasvir, dizayn, arxitektura

2-topshiriqqa javoblar: Matnga tushirib qoldirilgan soʻzlarni qoʻying.

1. **Grafika** - bu qogʻozga qalam, tush bilan tasvirlangan asar.
2. **Haykaltaroshlik** - bu plastilin, loyda yasash, marmarda oʻyish, bronzada quyish yoʻli bilan yaratiladigan hajmli tasviriy sanʼat asari.
3. **Arxitektura** - qurilish sanʼati, meʼmorchilik.
4. **Dizayn** - bu badiiy loyihalash, buyumlarni ham foydali, ham chiroyli qiladigan sanʼat turi.
5. **Natyurmort** - insonning kundalik turmush tarzi, hayoti, odatlarini tasvirlovchi tasviriy sanʼatning anʼanaviy janrlaridan biri.
6. Tarixiy janr – oʻtmishdagi buyu shaxslar va voqeliklarga bagʻishlangan tasviriy sanʼat janri.
7. Peyzaj – bu tasviriy sanʼatning **tabiat** koʻrinishlarini tasvirlovchi janri.
8. **Natyurmort** - bu mavzu va kompozitsiya jihatdan oʻzaro bogʻlangan jonsiz buyumlarni tasvirlovchi tasviriy sanʼat janri.
9. **Avtoportret** - bu muallifning oʻzini tasvirlagan tasviriy sanʼat asari.
10. Hayvonlar suratlari tasvirlanadigan kartina **animal** janr deyiladi.
11. Marina – bu **dengiz** koʻrinishlarini tasvirlovchi tasviriy sanʼat janri.
12. Harbiy voqeliklarga oid koʻrinishlarni tasvirlash **batal** janriga tegishli.
13. **Karikatura** - kimnidir yoki nimanidir komik va satira usulida tasvirlash usuli.

3-topshiriq test javoblari:

1-C; 2-B; 3-B; 4-S; 5-S; 6-B; 7-S; 8-D; 9-D; 10-S; 11-D; 12-S; 13-B; 14-D; 15-B; 16-A. 17-B; 18-S; 19-S 20-B; 21-S; 22-B; 23-B; 24-A; 25-B; 26-B; 27-S; 28-A; 29-B; 30-S; 31-B; 32 A; 33-S; 34-B; 35-S.

5-topshiriq. (krossvord №1) javoblari:

Boʻyiga :

1. Gotika. 2. Portret. 3. Faktura. 4. Arxaika.

Eniga:

5. Rokoko. 6. Karikatura. 7. Kariatida.

6-topshiriq (krossvord №2) javoblari:

1. Vitraj. 2. Batik. 3. Janr. 4. Guash. 5. Statik. 6. Mastixin. 7. Freska. 8. Akvarel. 9. Grizayl. 10. Karton

7-topshiriq (krossvord №3) javoblari:

1. Kolorit. 2. Perspektiva. 3. Manzara. 4. Aksent.

8-topshiriq (krossvord №4) javoblari:

1. Sangina. 2. Gravyura. 3. Statik. 4. Ofort. 5. SimmetriY. 6. Rakurs. 7. Hajm.

Atamalar izohi:

Abris – nusxa ko‘chirish usulida bajarilgan tasvirlanayotgan shaklning chiziqli ko‘rinishi, surat konturi.

Aksonometriya – perspektiv tasvirlash usuli turlaridan biri, shakl, tekislikni uch tomonlama tasvirlash usuli.

Aksent – tasvirlanayotgan gavda, yuz, shakl bo‘laklarini tomashabin e‘tiborini jalb qilish maqsadida rangda, chiziqlarda va tushlash usuli bilan bo‘rttirib ko‘rsatish.

Alfresko - devoriy rasm ishlash usullaridan bir turi (bu usul devoriy rasmni ohak zamin qurimasidan, namligida ishlashni talab qiladi).

Axromatik rang - yunoncha “rangsiz” degan ma‘noni bildirib, ular bir-biridan qabul qiladigan yoki tarqatadigan yorug‘lik kuchi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kulrang, qora rangdan yorug‘lik kuchi bilan farq qiladi.

Badiiylik - borliqni, inson va uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini o‘zaro o‘xshatish, shakllantirish va rango-rang tasvirlash.

Bosqichma–bosqichlik – rasm chizishni nisbiy tarzda ketma ketlik asosida olib borish.

Voqeband kompozitsiya – mavzuga asoslangan voqelikni aks ettiruvchi tasvir, kompozitsiya, asar.

Grizayl (Grisaille) – Bitta rangda bajarilgan (ko‘proq qora, jigarrang) ranglardan foydalanib bajarilgan rangtasvirning bir turi

Detallashtirish – tasvirning har bir detalini maydalab ishlash.

Dinamik – harakatdagi, tez o‘zgaruvchan (holat).

Yorug‘lik – buyum yuza qismining eng ko‘p yoritilgan qismi; yorug‘ soya bo‘lagi.

Yorug‘-soya – shakldagi eng och va eng to‘q joylar, tasvirning kompozitsion qurish va narsaning o‘zaro mutanosiblik xususiyatlarini ifodalash vositasi.

Janr – tasviriy san‘at nazariyasida qo‘llanadigan tasviriy san‘at va adabiyot sohasiga tegishli atama. Tasviriy san‘atda manzara, tabiat ko‘rinishlarini aks ettiradigan rasmlarni manzara janriga oid rasmlar deyiladi. Shuningdek portret, natyurmort janrlari...

Kartina tekisligi – tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog‘oz yuzasi.

Kompozitsiya – (latin. “compositio” – tuzilish, qurilish) badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g‘oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligi

Kompozitsiya qurilishi – kartina yoki qog‘oz tekisligida uning o‘lchami, hajmi, formatiga muvofiq joylashtirish, kompozitsiya markaziy o‘qini aniqlash va unga nisbatan tasvirning ikkinchi darajali bo‘laklarini bo‘ysundirish, guruhlash va tasvirning barcha qismlarini asosiyga nisbatan bo‘yundirib yaxlit birlashtirish, asarning nafis yaxlitligi. Naturadan ishlaganda tasvir mavzusini izlash, tasvirlanayotgan narsalar ni saralash va qo‘yib chiqish, qiyofachining harakat holatini maqsadga muvofiq tarzda to‘g‘ri tashkil etish. Tasvirning eng jozibali tus yechimini topish, masshtablarning va nisbatlarining o‘zaro mosligi bilan bog‘liq bo‘lgan uzoq jarayon bo‘lgan tasvirning perspektiv qurishning eng ma‘qul holatini topish uchun izlanish.

Kontrastlik – qarama qarshilik, zidma zidlik, ranglarning o‘zaro qarama qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, jozibaliroq ko‘rinishi. Masalan: Yashil rangning oldida qizil rang yanada jozibali, chiroyliroq ko‘rinadi va hakoza...

Konstruktiv shakl – tasvirning alohida va yaxlit ko‘rinishlari nisbatlarining o‘zaro mutanosibligida ko‘rinadigan; narsa shakli qismlarining nisbatlari, ularning bir biriga mosligi, mohiyati, har qanday shakl tuzilishi ning o‘ziga xos jihatlari.

Koordinat – ma‘lum masofalarda belgilab olingan, o‘lchami aniqlangan joylar, nuqtalar. (tasvirdagi)

Mastixin – (italyancha metsichino) po‘latdan yasalgan kurakcha yoki pichoqcha shaklidagi ingichka plastina; rangtasvir ishlashda qo‘llaniladi.

Mutanosiblik (garmoniya) – tasvir obyektini yoki tasvirning turli qismlarining (o‘lcham, rang tuzilishidan) o‘zaro blg‘lanib, go‘zallik me‘zoniga mos bo‘lishi.

Muvozanat – o‘quv natyurmorti yoki kompozitsiya, tasvirining qismlari, ranglar, o‘lcham, shaklning o‘zaro mos kelishi, sath og‘irligi mutanosibligi.

Palitra – rasm ishlayotgan paytda musavvir bo‘yoqlarni qorishtiradigan yupqa moslama, taxtakach.

Perpendikulyar – gorizontall tekislikka nisbatan tik chiziq.

Plener – (fransuzcha plein air – ochiq havo) Tasviriy san‘at asarida quyosh yorug‘ligi va atrofidagi muhitning ta‘siri bilan bog‘liq bo‘lgan ranglar tuslanishini anglatuvchi termin. Bu turdagi rangtasvir ochiq havoda ishlanadi.

Plastik yechim – qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik asarlarida shakl jozibadorligi

Plan – tasviriy san‘atda: tasvirlash masshtabi, tasvirdagi buyumlarning joylashish o‘rni.

Rakurs (Frans. Raccourci – qisqarish) – tasviriy san‘atda: narsaning uzoqdagi qismlarini qisqartirib, kichraytirib tasvirlash. Tasvirlanayotgan shaklning perspektiv qisqarishi.

Ritm – tasvirlanayotgan shaklning bir xil ketma-ketlikdaligi qaytarilishi; tasvirning kompozitsion qurilishi vositasi.

Safit – naturani yoritish uchun maxsus chiroq

Siluet – XVII asr fransuz arbobi nomidan kelib chiqqan. Kishi, hayvon, qush, narsalarning soyaga o‘xshatib bir rangda ishlangan tasviri. Tasvir sidirg‘a rangdagi qog‘ozni kesib ishlab, boshqa rangdagi qog‘oz yoki materialga yopishtirilishi ham mumkin. Grafika texnikasining bu turi qadimdan Xitoyda, Yaponiya va boshqa sharq mamlakatlarida, asrdan boshlab esa Yevropada rivojlangan. Keng ma‘noda narsa, bino turi shakllarining xarakterli ko‘rinishidir.

Simmetrik – narsa yoki tasvir ikki qismining bir biriga aynan o‘xshashligi, mutanosibligi (muvozanatda ekanligi).

Skalpel – qalam tarashlash uchun tig‘larini almashtirib turish mumkin bo‘lgan maxsus pichoqcha.

Soya – naturaning yorug‘lik tushmagan qismi.

Statik – harakatsiz turg‘un holat.

Stilizatsiya – tabiatdan olingan murakkab shaklni, soddalashtirib ifoda etish (bezak ko‘rinishiga) yo‘li..

Syujet – (fransuzcha – buyum, narsa, harakat), tasviriy san‘atda tasvirlangan buyum yoki voqea tushuniladi, Hayotiy voqea, lavha, harakat.

Tasvir yaxlitligi – alohida qismlarning umumiyga, ikkinchi darajadagi narsalarning asosiya bo‘ysunishi, barcha qismlarning o‘zaro mutanosibligi, bajarish usullarining bir xilligi.

Taqqoslash – suratdagi o‘zaro yorug‘ soya, tus, shakl va hajm nisbatlarni aniqlash usuli.

Tugallanganlik – rassom tomonidan uzoq vaqt ishlangan qalamtasvirni har bir bo‘laklarining yaxlitliiga erishish, umumlashtirish qisqa qilib aytganda maqsad qilib qo‘yilgan vazifani uzil-kesil tugallash.

Tus – narsaning rang hamda tusining och–to‘qlik darajasini bildiruvchi tushuncha.

Fazoviy perspektiva – yorug‘lik va havo ta‘sirida kuzatuvchi hamda kuzatilayotgan ko‘rinish orasidagi tasvirlanayotgan narsalar ko‘rinishi va ranglarning o‘zgarishi hodisasi.

Fas – old ko‘rinish, yuz, chehra. har bir narsaning to‘rt tomondan ko‘rinishi bor: Old ko‘rinishi, ikki yoni, tepa va tagi.

Xolst - kanopdan to‘qilgan mato

Yarim soya – yorug‘ soyaning elementlaridan biri, buyum sirtining yorug‘lik bilan to‘q soya orasidagi qismi

Shu‘la – tasvirlanayotgan yoritilgan buyum sirtining nur tushib turgan eng yorug‘ joyi, buyum shakli yuzasida eng yorug‘ bo‘lagi.

Enkaustika - Mum bilan rangtasvir ishlash “enkaustika” deb nomlanadi. Mum sovuqda qattiq holatda bo‘lib, isitilgan holatdagina yumshatib mo‘yqalam bilan rangtasvir ishlasa bo‘ladi. Bu holda enkaustika usulida rangtasvir ishlash ishlanayotgan yuza ham qizdirilgan holda bo‘lishi kerak.

Etyud – rangda tezkor bajarilgan ish, ranglavha.

REPRODUKSIYALAR



Magdalen, Mutoala ustida



Veyden. Madonna

LA DUE FERONTE
LEONARDO D'AVINCI



Leonardo da Vinci. "Ayol portreti". 1480-90 y.y.



Aka-uka van Yeyklar. «Gentskiy altar». Moybo‘yoq, taxta. 1432.




Samuel Pallache, "Qaroqchi Ravvin"



Leonardo da Vinci. "Madonna Litta"



Leonardo da Vinci. "Sirli oqshom"



Jan-Vermeier. "Sut sog'uvchi ayol"



Rafayel Santi "Sikstin Madonnasi"



Sandro Botichelli. “Anor ushlagan Madonna”, fragment 1487



Sandro Botichelli. "Anor ushlagan Madonna" 1487




Karavadjo (1571- 1610) "Mevalar to'ldirilgan savat (1596)



Karavadjo. “Musiqa chalayotgan bola”



Rembrandt van Reyn, "Avtoportret"



Rembrandt "Hendrika Stoffels deraza oldida" 1656-57 moybo'yoq, xolst. 86 x 65



Karl Bryullov. "Italiyada peshin" (Uzum uzayotgan italyan qizi). 1827.



Karl Bryullov. "Turk qizi"




I. Kramskoy. “Notanish ayol”



Pyotr Fyodorovich Sokolov. “Olga Fersen (Stroganova) portreti”

1829 y. Qog‘oz, akvarel. Rus davlat Muzeyi



Karl Bryullov "Tavba qilish". 1827-1830 y.y.

Qog'oz, akvarel, grafit qalam. Rus davlat Muzeyi



Karl Bryullov “Maria Goncharova portreti”. qog‘oz, akvarel, grafit qalam



Karl Bryullov "Sariq ro'mol tashlagan italyan qizi".
1832 "Italiya albomidan" qog'oz, akvarel, grafit qalam



Rizo Abbosiy. Sevishganlar





Kamoliddin Behzod. "A. Navoiy portreti"

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. RANGTASVIR ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	5
II. YEVROPADA RANGTASVIR TEXNIKASINING RIVOJLANISHI....	18
I.2. AMALIY MASHG‘ULOTLAR.....	39
II.1. SHARQ MINATYURA RANGTASVIRI.....	56
III.1. RANGTASVIR TEXNOLOGIYASI VA UNGA KERAKLI MATERIALLAR.....	75
III.2. GRUNTLAR.....	84
III.3. MOYBO‘YOQDA ISHLASH.....	89
TASVIRIY SAN’AT VIKTORINASI. TESTLAR	114
4-topshiriq. KRASSVORDLAR	119
5-topshiriq.....	120
6-topshiriq.....	120
7-topshiriq.....	121
8-topshiriq.....	122
Topshiriq va testlar javoblari.....	123
Atamalar izohi:.....	124
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	Ошибка! Закладка не определена.
REPRODUKSIYALAR	127

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
I. ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА ЖИВОПИСИ	5
II. РАЗВИТИЕ ТЕХНИКИ ЖИВОПИСИ В ЕВРОПЕ	18
I.2. ПРАКТИЧЕСКИЕ ЗАНЯТИЯ	39
II.1. ВОСТОЧНАЯ МИНИАТЮРА	56
III.1. ТЕХНОЛОГИЯ ПОКРАСКИ И НЕОБХОДИМЫЕ ДЛЯ НЕЕ МАТЕРИАЛЫ	75
III.2. УЧАСТОК	84
III.3. РАБОТА АКВАРЕЛЬЮ	89
ВИКТОРИНА ПО ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. ИСПЫТАНИЯ КРОССВОРДЫ	119
5 заданий	120
6 заданий	120
7 заданий	121
8 заданий	122
Ответы на задания и тесты	123
Пояснение терминов	124
ССЫЛКИ	127
РЕПРОДУКЦИИ	129

TABLE OF CONTENTS

INTRODUCTION	3
I. THEORETICAL BASIS OF PAINTING	5
II. DEVELOPMENT OF PAINTING TECHNIQUE IN EUROPE	18
I.2. WORKSHOPS	39
II.1. EASTERN MINIATURE	56
III.1. PAINTING TECHNOLOGY AND MATERIALS REQUIRED FOR IT	75
III.2. PLOT	84
III.3. WORK WITH WATERCOLOR	89
FINE ART QUIZ. TESTING CROSSWORDS	119
5 tasks	120
6 tasks	120
7 tasks	121
8 tasks	122
Answers to tasks and tests	123
Explanation of terms	124
LINKS	127
REPRODUCTIONS	129